SH. A. SULTONOV

KICHIK SANOAT ZONALARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI



MONOGRAFIYA

SAMARQAND – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

SULTONOV SHODIYOR ABDUXALILOVICH

KICHIK SANOAT ZONALARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

MONOGRAFIYA

Samarqand – 2023

UO'K: 338.49+338.242
S 96
KBK: 65.9(5O')-96

SH. A. Sultonov

Kichik sanoat zonalari infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari *[Matn]: monografiya / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 210 bet.*

O'zbekistonda kichik sanoat ishlab chiqarishi infratuzilmasining huquqiy asoslari, O'zbekiston iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda kichik sanoat ishlab chiqarishi infratuzilmasining roli, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda kichik sanoat ishlab chiqarishi infratuzilmasining o'rni, kichik sanoat ishlab chiqarishi infratuzilmasining tarkibi va rivojlanish dinamikasi, O'zbekistonda kichik sanoat korxonalarini rivojlantirishda infratuzilmaning roli kabi masalalar atroflicha o'rganilib, kichik sanoat ishlab chiqarishi infratuzilmasi faoliyatini samaradorligini oshirish yo'llari va uning milliy iqtisodiyot o'sishini ta'minlashdagi imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Viloyatda kichik sanoat zonalari infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlashning omillari va istiqbollarini o'rganish zarurligi ochib berilgan.

Monografiyadan Samarqand viloyatida kichik sanoat zonalari infratulimasini rivojlantirish hamda sifatini oshirishda foydalanish mumkin, olingan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar kichik sanoat zonalar rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Ushbu monografiyada kichik sanoat ishlab chiqarishi infratuzilmasining sotsial-iqtisodiy mohiyatini yoritish asosiy maqsad etib olingan.

Mazkur monografiya ushbu soha bo'yicha qiziqishi yuqori bo'lgan kitobxonlar, professor va o'qituvchilar, bakalavr yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, magistrlar va tayanch doktorantlar, doktorant va izlanuvchilar uchun mo'ljallangandir.

Taqrizchilar:

G.M.Shadiyeva – SamISI professori, i.f.d.
F.B.Shakirova – TDTU professori v.b., (PhD)

Monografiya institut Kengashining 2023-yil 31-oktabrdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (31.10.2023-yil 3-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-752-04-9

© SH. A. Sultonov. SamISI. 2023 y.
© "STEP-SEL" MChJ. Nashryoti. 2023 y.

MUNDARIJA

KIRISH 4
I BOB. O‘ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INFRATUZILMANING MOHIYATI VA HUQUQIY ASOSLARI 8
1.1. Infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati 8
1.2. Kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasining iqtisodiy mohiyati 22
1.3. Kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasini rivojlantirishda davlat siyosati 28
II BOB. KICHIK SANOAT ZONALARI INFRATUZILMASINING TARKIBI VA HUQUQIY ASOSLARI 38
2.1. Kichik sanoat zonalari infratuzilmasining tarkibi 38
2.2. Kichik sanoat zonalari infratuzilmasining huquqiy asoslari 44
2.3. Kichik sanoat zonalarining elektr energiya va transport xizmatlaridan foydalanishini tashkil etish..... 53
III BOB. SAMARQAND VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI 64
3.1. Viloyatda kichik sanoat zonalari infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar va ularning ahamiyati 64
3.2. Kichik sanoat zonalari infratuzilmasidan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari 74
3.3. Kichik sanoat zonalarining moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash yo‘llari 82
IV BOB. O’ZBEKISTONDA KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING HOZIRGI HOLATI 90
4.1. Iqtisodiyotning sanoat tarmog’ini rivojlanishi tendensiyalari va uning hozirgi holati tahlilini o`rganish borasida xulosalar 90
4.2. Ochiq iqtisodiy zonalarni xorij tajribasi, rivojlanish tendensiyalari va uning O`zbekistindagi hozirgi holatini tahlili 104
4.3. O`zbekistonda kichik sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari..... 122
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI..... 130

KIRISH

Davlatimiz rahbari tomonidan erkin iqtisodiy va kichik sanoat[1] zonalari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan qaror respublikaning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish va sanoat hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilashda muhim qadam ekanligi ta’kidlandi.

Ayni paytda mamlakatimizdagi 23 ta erkin iqtisodiy zona jami 8,8 ming gektar yer maydoniga ega bo‘lib, shundan 3,9 ming gektarida qiymati 5,3 miliard dollarga teng 895 ta investitsiya loyihasi joylashtirilgan. 5 ming gektarga yaqin maydon foydalanmasdan qolmoqda, bu esa mazkur maydonda yangi investitsiya loyihalarini joylashtirish, sanoat quvvatlari va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish mumkin deganidir. Shu bilan birga, qayd etilganidek, ular maydonining qariyb yarmi hozircha zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalari bilan to‘liq ta’minlanmagan.

Shuningdek, Respublikamizda 348 ta kichik sanoat zonasi mavjud bo‘lib, ularning umumiy maydoni 2,4 ming gektarni tashkil etadi. 1,6 ming gektar maydonga umumiy qiymati 16,7 trillion so‘mlik 3 587 ta investitsiya loyihasi joylashtirilgan. Qolaversa, faoliyat ko‘rsatayotgan 60 ta kichik sanoat zonasi zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan to‘liq ta’minlanmagan.

Erkin iqtisodiy hamda kichik sanoat zonalarning muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini ta’minlash – ular faoliyatini jadal rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun qulay muhitning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, joriy yilda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari uchun tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurishga 1,6 trillion so‘m, 2022 yilda esa 1,8 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi bilan erkin iqtisodiy zonalarda bo‘sh turgan 4,9 ming gektar yer maydonidan 3,2 ming gektar yer maydoni, kichik sanoat zonalaridagi 822 gektar yer maydoni muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalari bilan to‘liq

[1] https://yuz.uz/news/iqtisodiy-zonalar-infratuzilmasi-qanday-yaxshilanadi

ta’minlanadi. Qaror bilan har bir erkin iqtisodiy zona va har bir kichik sanoat zonasini infratuzilmalar bilan ta’minlash bo‘yicha manzilli ro‘yxat tasdiqlandi, deb xabar beradi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi matbuot xizmati.

Ma’lumot uchun: joriy yilda erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 1,1 milliard dollar bo‘lgan 332 ta loyiha, kichik sanoat zonalarida umumiy qiymati 9,5 trillion so‘m bo‘lgan 1 ming 845 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Natijada 20 ming 298 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Bu loyihalar asosan iqtisodiyotimizning o‘sish nuqtasi hisoblangan elektrotexnika, charm-poyabzal, qurilish materiallari, neft-gaz, farmasevtika, turizm, issiqxona xo‘jaliklari, xalq iste’mol mollarini ishlab chiqarish sanoati yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Bu esa shu yilning yakuni bilan 400 million dollarlik mahsulot eksport qilish, 350 million dollarlik import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish hamda Davlat byudjetiga qo‘shimcha 2 trillion so‘mdan ortiq mablag‘larni yo‘naltirishga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish vazifasi belgilab berilgan[2]. Bu, tabiiyki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining o‘zaro uzviy bog‘liqlikda rivojlanishini talab qiladi. O‘zbekistonda yalpi milliy mahsulotning aksariyat qismi sanoat majmuasi tarmoqlarida ishlab chiqarilayotganligi, ularning o‘zaro bog‘liqlik doirasini yanada kengaytirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bozor iqtisodiyotida sanoat majmui samaradorligining asosiy mezoni yakuniy mahsulot qiymati hisoblanadi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmini oshirishda, tarmoqlarni yetuk kadrlar bilan ta’minlashda, ularning mehnat qobiliyatini tiklashda, shuningdek, sanoat tarmoqlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlashda

[2]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.

infratuzilmaning ahamiyati katta. U o‘zaro bog‘liq ikki tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, ishlab chiqarish infratuzilmasi va sotsial infratuzilmani o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qilib, ma’lum ma’noda uning tarkibiy bo‘g‘ini hisoblansa, sotsial infratuzilma sanoatni kadrlar bilan ta’minlashga, xodimlarning sog‘ligini saqlashga, turmush darajalarini oshirishga xizmat qiladi.

Sotsial infratuzilma ham ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Infratuzilmaning rivojlanishi iqtisodiyotning real sektorn bilan bevosita bog‘liq.

Sanoat tuzilmasi shunday murakkab vazifalar tizimidan iborat. Undagi barcha unsurlar bir-biri bilan shu qadar uzviy bog‘langanki, ulardan birining rivojlanishda orqada qolishi, boshqalarida samaradorlik pasayib ketishiga sabab bo‘ladi.

Shu boisdan ham respublika sanoatining yaxlit rivojlashini ta’minlash o‘ta muhim. Ushbu monografiya infratuzilmaning mohiyati, uning tarkibi, vazifalari va rivojlanishi tamoyillari bilan bog‘liq masalalar mohiyatini ochib berishga mo‘ljallangan.

Demak, bugungi kichik sanoat zonalari infratuzilmasini samarali tashkil etish o‘ta muhimdir. Bu esa o‘z navbatida mazkur monografiya mavzusining dolzarbligini bildiradi.

Monografiyaning birinchi bobi “O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiyalash sharoitida infratuzilmaning mohiyati va huquqiy asoslari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati, kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasining iqtisodiy mohiyati, Kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasini rivojlantirishda davlat siyosati kabi dolzarb masalalar yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida kichik sanoat zonalari infratuzilmasining tarkibi va huquqiy asoslari, kichik sanoat zonalari infratuzilmasining tarkibi, kichik sanoat zonalari infratuzilmasining huquqiy asoslari, kichik sanoat zonalarining elektr energiya va transport xizmatlaridan foydalanishini tashkil etish kabi masalalar yoritilgan.

Ishning uchinchi bobida Samarqand viloyatida kichik sanoat

zonalari infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, viloyatda kichik sanoat zonalari infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar va ularning ahamiyati, kichik sanoat zonalari infratuzilmasidan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari,kichik sanoat zonalari infratuzilmasining moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash yo‘llariga bag‘ishlangan.

I BOB. O‘ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INFRATUZILMANING MOHIYATI VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati

Sanoat ishlab chiqarishning pirovard natijalari faqat sanoat tarmog‘i rivojlanish darajasiga emas, balki unga xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga ham bog‘liqdir. Ishlab chiqarish hajmi o‘sishi bilan sanoat tarmog‘ida moddiy-texnika resurslari, kerakli xomashyo va yordamchi materiallardan foydalanish hajmi ham oshadi. Xo‘jaliklarning elektr energiya, transport, aloqa vositalariga, mahsulotni saqlash joylariga talab ortadi. Sanoat korxonasining ta’mirlash-texnik xizmatiga, moddiy texnika ta’minotiga, muhandislik va boshqa xizmatlarga bog‘liqlik darajasi o‘sadi. Bu jarayonda samarali foydalanish va iste’molchiga yetkazib berishni ta’minlaydigan tashkilot va tarmoqlarning rivojlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Bunday tarmoqlar va xizmatlar iqtisodiyotda infratuzilma deyiladi.

“Infratuzilma (struktura)” atamasi sotsial-iqtisodiy tadqiqotlarda nisbatan yangi bo‘lib, (iqtisodiyotga oid adabiyotlarda 80-yillardan ishlatilib kelinayapti) u lotincha “infra” so‘z bilan rus tilidagi “struktura”, ya’ni o‘zbekcha “tuzilma” so‘zlarining birlashmasi sifatida ishlatiladi. Lotincha “infra” – ostidagi, tagidagi, tubidagi ma’noni anglatadi.

“Infratuzilma” atamasining keng qo‘llanilishiga qaramay, bu tushunchani turlicha talqin qilish hollari uchrab turadi. Bir guruh olimlar infratuzilmaning funksiyasini ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko‘rsatishda deb qarab, uni xizmat ko‘rsatishning yaxlit tizimi sifatida izohlashadi.

“Infratuzilma” tushunchasi bilan “xizmat sohasi” tushunchasini sinonim sifatida talqin etish xorijiy adabiyotlarda ham uchrab turadi. Rossiyalik olimlar tomonidan tayyorlangan va chop etilgan “Ekonomika predpriyatiya ” nomli darslikda: “Infratuzilma – sanoat ishlab chiqarishi (yoki qandaydir boshqa)ga hamda aholiga xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik tarmoqlari majmuasi bo‘lib, o‘z ichiga transport,

aloqa, savdo, moddiy-texnik ta’minot, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlashni qamrab oladi”[3], deb yozilgan.

“Sotsial iqtisodiyot” fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmada infratuzilmaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Infratuzilma – bu ishlab chiqarish va sotsial-hayotiy ehtiyojlarni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan moddiy vositalarning majmuasidir.”[4]

Ishlab chiqarish infratuzilmasi nomli darslik muallifi R.X.Karlibaevaning fikricha: “Infratuzilma – bu har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo‘lish sharti hisoblangan tarkibiy qismidir.

So‘zma-so‘z ifodalaganda, infratuzilma – bu iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi ma’nolarini ifodalaydi”[5].

Rossiyalik olim V.I. Staxanov “infratuzilmani” insonni hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarishda xizmatlar, ishlab chiqarishdagi o‘ziga xos mehnat jarayonlari majmuasi sifatida talqin qiladi”,[6] yana bir rossiyalik olim A.Y.Sharipov esa “infratuzilmani” moddiy ishlab chiqarishga ishlab chiqarish xizmatlari ko‘rsatuvchi, milliy iqtisodiyotda iqtisodiy aylanishni ta’minlovchi, aholi uchun xizmatlar va ma’naviy ne’matlar ishlab chiqaruvchi, atrof-muhitni takror ishlab chiqarish va muhofaza qilish uchun mavjud iqtisodiyot tarmoqlari va tarmoq ichi sohalari yig‘indisi sifatida ta’riflaydi[7],

“Infratuzilma”ni ishlab chiqarish va xizmatning elementi sifatida va shu sifatda sotsial-iqtisodiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida tadqiqot qilish, xizmat sohasini esa ishlab chiqarish munosabatlari sifatida qarash, bizning fikrimizcha, bu ikki xil atamani aralashtirib yubormaslikka, infratuzilmani xizmat sohasiga tenglashtirmaslikka olib keladi.

Infratuzilma moddiy ne’matlar ishlab chiqaruvchi hamda xizmat

---

[3] Экономика предприятия .Учебник для вузов. (под ред проф. В.Я. Горфинкеля, проф В.А. Швандара), 4-ое изд. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. стр. 255.

[4] Социал иқтисодиёт. Ўқув қўлланма (проф. К.С.Саидов таҳрири остида). -Т.: Ўзбекистон, 2006, 107 бет.

[5] Karlibayeva R. X. Ishlab chiqarish infratuzilmasi**:** darslik / R.X. Karlibayeva, M.M . Tashxodjayev, Z.A. Ashurov; 0 ‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta ’lim vazirligi. – T.: 0 ‘zbekiston faylasuflari milliy jam iyati, 2014, 19 bet/

6 Стаханов В.И. Экономика инфраструктуры общественного производства. Учебное пос. – Ростов н/Д, 2008, стр. 6.

7 Шарипов А.Й. Экономическая сущность инфраструктуры. Управление отраслями инфраструктуры в системе региона. –М.:2008, стр. 5.

ko‘rsatuvchi tarmoqlarning faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoit yaratib beruvchi − “yordamchi iqtisodiy vosita” sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ishtirokida yuritilayotgan faoliyat – iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy mohiyati “ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini yaratish”, “asosiy ishlab chiqarish faoliyatini ta’minlash” kabi vazifalarni bajarish bilan belgilanadi.

Qayd etilganlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki: Infratuzilma − bu ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan umumiy sharoitlarni hamda insonning farovon hayot kechirishini ta’minlovchi tarmoqlar majmuasidir. U ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmalarga ajratiladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi transport, aloqa, yo‘l, elektr uzatish liniyalari, neft va gaz quvurlarini hamda boshqa tizimlarni, inshootlarni o‘z ichiga oladi.

Milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish infratuzilmasi inshootlari va ob’ektlari bilan jihozlanganlik darajasi ko‘p jihatdan ishlab chiqarishning samaradorligini belgilaydi. Transportning, avtomobil yo‘llari shaxobchalari va boshqalarning rivojlanishidagi oqsashlar − sanoatda, qishloq xo‘jaligida, qurilishda talay yo‘qotishlarga olib keladi.

Sotsial infratuzilma savdo, sog‘liqni saqlash, yo‘lovchilar tashiydigan transport, umumiy ovqatlanish tarmoqlari, mehmonxonalar xo‘jaligi, kommunikatsion inshootlari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarning bo‘linmalaridan tashkil topadi.

Sotsial infratuzilmaning rivojlanish darajasi ham milliy iqtisodiyot samaradorligiga ta’sir qiladi. Ishlab chiqarish sohasida band bo‘lgan ishchilar kasallanishining kamayishi yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishiga olib keladi.

Infratuzilma iqtisodiy jarayonlarda, ya’ni ishlab chiqarish va xizmat jarayonlarida “iqtisodiy vosita” funksiyasini bajaradi va sotsial munosabatlarda ishtirok etadi: savdoda – savdo shahobchalari

(magazin, laryok, kiosk va boshqalar); umumiy ovqatlanishda – restoran, stolovoy, bufet va boshqalar; maishiy xizmatda – atelye, maishiy xizmat uylari, ta’mirlash shahobchalari va boshqalar; transportda – avtobus, tramvay, troleybus, taksi kabilar hamda ishlab chiqarish, xizmat va institutsional sohalardagi yordamchi iqtisodiy vositalardir.

O‘zbekistonda sotsial yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish jarayoni mamlakatimiz sotsial-iqtisodiy taraqqiyotidagi juda ko‘plab omil va xususiyatlarni, jumladan, respublikamizning geosiyosiy va geostrategik holati, iqtisodiy tizimni bosqichma-bosqich isloh qilish, davlatning faol belgilovchi roli, islohotlarga qadar davrdagi iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishidagi nomuvofiqliklar, kuchli sotsial siyosat zarurligi kabilarni e’tiborga olgan holda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga iqtisodiy mexanizmlarning samarali amal qilishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni, shu jumladan, ishlab chiqarish infratuzilmasining to‘laqonli faoliyatini ta’minlash davlatning asosiy vazifalaridan biriga aylangan.

Sanoat ishlab chiqarish infratuzilmasi – ishlab chiqarish uchun normal shart-sharoitlarni ta’minlovchi tarmoq majmuidir. U ishlab chiqarish, texnologik, iqtisodiy va tashkiliy aloqalar jarayonida vujudga keladigan munosabatlar orqali sanoatning samarali ishlashini ta’minlaydi.

Infratuzilma – jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining bo‘linmas qismi hisoblanadi. U korxonaning samarali faoliyatini ta’minlaydi va sanoatning pirovard mahsuloti miqdoran ko‘p va sifatan yuqori bo‘lishiga yo‘naltirilgan. Sanoat mahsulotining yalpi ishlab chiqarilishi pirovard natijada tarmoqning ishlab chiqarish fondlari, aylanma mablag‘lari, mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi bilan birga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishning rivojlanganlik darajasiga bog‘lnq.

Infratuzilma – sanoat ishlab chiqarishi samaradorligi o‘sishining muhim omili hisoblanadi. Xomashyo, material va tayyor mahsulotning o‘z vaqtida olib kelinishi xo‘jalik aylanmasida bo‘lgan resurs hajmini belgilaydi. Sanoat ishlab chiqarishining tez sur’atlarda o‘sishiga nafaqat sanoat uchun ishlab chiqarish mablag‘larining miqdoran o‘sishi

hisobiga, balki resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydigan xizmat tizimi tashkil etilishi hisobiga ham erishilgan.

Moddiy ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy maqsadi – sanoat korxonalarini ishlab chiqarishiga xizmat qilishi vazifasidan bosqichma-bosqich ozod etishdan iborat. Infratuzilma ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulotlar sifatining yuqori bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Infratuzilmaga kiradigan tarmoqlar ishlab chiqarish jarayoniga bir xilda ta’sir ko‘rsatmaydi va jamiyat ishlab chiqarishida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shu tufayli infratuzilma tarmoqlarini asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha turkumlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Infratuzilma turkumlanishi alohida elementlari bilan birga butun tarmoqlarning jamiyat ishlab chiqarish tizimidagi o‘rinlarini belgilashga yordam beradi. U tarmoqlararo aloqalarni o‘rganishga va asosiy ishlab chiqarish bilan xizmat ko‘rsatish tarmoqlari orasida optimal muvozanatni belgilashda ko‘maklashadi.

Infratuzilma elementlarining xarakterini ko‘p tomonlama hisobga olgan xolda uni konkret xususiyati bo‘yicha turkumlash mumkin emas. Sanoat infratuzilmasi elementlarini quyidagi to‘rt xususiyati orqali turkumlashtirish mumkin:

- ishlab chiqarish jarayoniga ta’siri darajasi bilan;
- hududiy;
- tarmoq;
- funksional yo‘naltirilganligi bo‘yicha.

Sanoat infratuzilmasini ishlab chiqarish jarayoniga ta’siri darajasi bo‘yicha quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- ishlab chiqarish;
- sotsial.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiy samaradorlngining asosiy ko‘rsatkichi – ob’ektlar ishlab chiqarishi xarajatlarining o‘z-o‘zini qoplashi hisoblanadi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Kn = \frac{K \text{ yoki } B}{Mi}$$

Bu yerda:

Kn – ishlab chiqarish infratuzilmasiga ketgan xarajatlarning o‘z-o‘zini qoplashi;

K yoki B – sanoat mahsulotining qiymati;

Mi – ishlab chiqarish infratuzilmasining ishlab chiqarishga ketgan moddiy xarajatlari.

Xizmat ko‘rsatish bo‘yicha infratuzilma tarmoqlari quyidagilarga bo‘linadi:

- infratuzilmaning milliy iqtisodiyotdagi tarmoqlari;
- hududiy tarmoqlar;
- lokal ishlab chiqarish tarmoqlari.

Milliy iqtisodiyot infratuzilmasi butun jami iqtisodiyotning samarali ishlashiga xizmat qiladigan tarmoq va xizmatlardan iborat. U yagona energetik, transport, aloqa tizimlari yirik infratuzilma majmui hisoblanadi, Uning asosiy vazifasi milliy iqtisodiyotning elektr energiyaga, pochta, telegraf va transport aloqalariga bo‘lgan talabini qondirishga yo‘naltirilgan.

Hududiy infratuzilma alohida iqtisodiy zonalarning rivojlanish va hududiy ishlab chiqarish majmuilari shakllanishi bilan bog‘liq.

Lokal yoki ishlab chiqarish infratuzilmasi alohida korxonalarning faoliyatini ta’minlaydigan element va ishlab chiqarishdan iborat. Lokal infratuzilmaga ichki xo‘jalik va xo‘jaliklararo yo‘l quradigan tashkilot misol bo‘la oladi.

Tarmoq xususiyatlari bo‘yicha infratuzilma tarmoqlararo infratuzilma va tarmoq ichki infratuzilmasiga bo‘linadi. Tarmoqlararo infratuzilma milliy iqtisodiyotning ko‘pgina tarmoqlariga xizmat qilishga yo‘naltirilgan. Tarmoq ichi infratuzilmasi esa konkret tarmoqning ishlashiga yordam beradi.

Funksional yo‘naltirganlik bo‘yicha sanoat infratuzilmasida ikkita sohani ko‘rish mumkin: bevosita sanoatga xizmat qiluvchi soha hamda pirovard mahsulot iste’molchiga yetib borishini ta’minlaydigan soha. Birinchi soha, mashina-stanok ta’mir-ta’minoti tarmog‘i, transport, suv ta’minoti tashkilotlari, informatsiya xizmatlari, moddiy-texnika ta’minoti va elektrlashtirish tizimlaridan, ikkinchi soha, esa

mahsulotni tayyorlash, tashish, saqlash tashkilotlaridan iborat. Sanoat korxonasining normal ishlashini turli qadoqlash materiallarining yetarli miqdorisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuksalishga, ular faoliyatiga samarali ta’sir etuvchi infratuzimalar tufayli ro‘y bergan, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

1.1.1-jadval ma’lumotlarining dalolat berishicha, respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2021 yili 2018 yilga nisbatan 220715,4 ming so‘mga yoki qariyib 2,0 barobarga ko‘paygan. O‘rganilayotgan davrda ishlab chiqarish indeksi har yili ortib bormoqda. Bu davlatning islohotlar strategiyasini – sanoatlashtirish siyosati bilan barobar olib bora boshlaganining natijasidir.

1.1.1-jadval

O‘zbekistonda sanoat rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari[8]

Ko‘rsatkichlar	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2021 yilning 2018 yilga nisbati, foizda
Sanoat mahsuloti (amaldagi narxlarda), ming so‘m	235340,7	322535,8	368740,2	456056,1	193,8
Sanoat ishlab chiqarish indeksi (o‘tgan yilga nisbatan foiz hisobida)	110,8	105,0	100,9	108,8	–
Sanoatda band bo‘l-gan aholining o‘rtacha yillik soni, ming kishi	1802,9	1821,5	1809,5	1863,3	103,4
Sanoat korxona-larining asosiy fondlari, mlrd. so‘m	132373,5	124610,3	231453,7	297131,1	224,5

[8] O' zbekiston sanoati. − T:. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, 2022, 15, 53 ва 75 betlar.

Tarmoqda band bo‘lgan aholi soni ham yildan-yilga ortib bormoqda: 2021 yili 2018 yilga nisbatan 60,4 ming kishiga yoki 3,4 foizga ko‘paygan. Shuningdek, ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri hisoblanmish – asosiy fondlar hajmi 164757,6 mlrd. so‘mga yoki 2,2 barobarga ortgan.

Sanoatning rivojlanishi ishchilar sonining oshishi va uning jamiyatdagi mavqeining ko‘tarilishiga olib keladi. Tarmoq ishchilari respublika yalpi ichki mahsuloti, milliy daromadning asosiy qismini bunyod etmoqda, mamlakat sotsial-iqtisodiy salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarishda faol ishtirok etmoqda.

Sanoat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri – sanoat xodimlarining madaniy-texnikaviy, ma’naviy-ma’rifiy darajasining o‘sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasining tinmay oshib borishidir.

Mamlakatimiz sanoati ishchilari qiyofasida (rivojlangan mamlakatlar ishchilaridagidek) ongli industrial mehnatkash, insonlar munosabatining yuksak me’yorlari va umuminsoniy tamoyillarini, qadriyatlarini qaror toptiruvchi, yangi hayot uchun ilg‘or kurashchi hislatlari bir butun bo‘lib mujassamlashgan.

Tarmoq xodimlarining bilim va ko‘nikmasi, ishlab chiqarish malakasi va mahorati, madaniy va ma’rifiy saviyasini yuqori darajaga ko‘tarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarda ham sanoatning yuqori o‘rin tutishini ko‘rish mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmalar milliy iqtisodiyot tarmoqlarida, jumladan, sanoat tarmog‘ida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning o‘sishida muhim omil hisoblanadi.

1.1.2-jadval ma’lumotlari dalolat beradiki, 2017-2021 yillarda sanoatning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 6,7 foizga oshgan, xizmatlar sohasining ulushi esa 2,8 foizga pasaygan. Biroq, xizmatlar sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hamon yuqori darajada bo‘lmoqda. Bu tabiiy hol. Chunki, O‘zbekistonda xizmatlar iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

1.1.2-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyoti turlari bo‘yicha yalpi ichki mahsulot tarkibi[9]

Ko‘rsatkichlar	Jamiga nisbatan foiz hisobida				
	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
Yalpi ichki mahsulot	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	32,2	30,0	26,9	27,1	26,9
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	26,5	31,1	34,4	34,2	34,5
- jumladan, sanoat	21,1	25,3	28,1	27,5	27,8
Xizmatlar	41,4	38,9	38,7	38,7	38,6

O‘rganilayotgan davrda sanoat tarmog‘ida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sish darajasi yuqorilab borishi – tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ichki va tashqi bozorlarda talabning o‘sishidan hamda sanoat mahsulotlari bozorining eng tez rivojlanayotgan bozorlardan biri bo‘lib borayotganidan darak beradi.

Mamlakatda ishlab chiqarish va sotsial infratuzilma sohalarini kompleks ravishda rivojlantirish vazifalari belgilab olingan. Unda milliy iqtisodiyot va aholini joydan-joyga tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlashni yaxshilash tadbirlari ko‘zda tutilgan. Uy-joy, sotsial madaniy-maishiy ob’ektlar qurilishiga katta e’tibor berilmoqda. Bu ishlar fan-texnika taraqqiyot yutuqlariga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Kichik sanoatzonaga ta’rif berishdan oldin xorijiy davlatlarda keng tarqalgan va sanoat ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning samarali shakllari bo‘lgan “Sanoat zonasi”, “Industrial zona”, Industrial

[9] O’zbekiston Respublikasi yillik statistic to’plami 2011-2020. − T:. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, 2021, 34 bet; O'zbekiston raqamlarda 2020-2021, − T:. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, 2022, 39 bet.

park, Sanoat kompleksi va klaster ta’riflarini o‘rganamiz. Industrial park deganda, alohida ishlab chiqarish kompleksi bo‘lib, yagona rivojlanish konsepsiyasi va infratuzulmasiga ega yo‘nalish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish va samarali ishlab chiqarishni boshqaruv kompaniyasi tomonidan ta’minlanuvchi, faoliyati davlat tomonidan kafolatlanuvchi va imtiyoz olish imkoniyatiga ega mintaqa iqtisodiyotining hududiy tarkibiy elementi tushuniladi.

Industrial parkning asosiy bazis elementlari sanoat ishlab chiqarishiga mo‘ljallangan yer maydoni mavjudligi, boshqaruv kompaniyasi va infratuzulmaning (muhandislik, transport, moliya va ijtimoiy) mavjudligi, maxsus iqtisodiy sharoitlar, yagona rivojlanish konsepsiyasi, resurslar va sotish bozorlariga chiqish imkoniyatlari mavjudligi hisoblanadi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, industrial parklarni barpo etish va rivojlantirish bir qator vazifalar va muammolarni hal etishga olib keladi.

Bularni to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin: Rossiya Federatsiyasi darajasida, Rossiya Federatsiyasi sub’ekti darajasida: viloyat, o‘lka, respublika, munitsipalitet darajasi va tadbirkorlik tarkibi darajasida.

Rossiya Federatsiyasi darajasida:

– sanoat ishlab chiqarishini rivojlantiradi;

– innovatsion jarayonlarni rivojlantiradi;

– innovatsion muhitni yaxshilaydi;

– investitsiyalarni jalb etadi;

– hududning balanslashgan, mutanosib va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Rossiya Federatsiyasi sub’ekti darajasida:

– shahar markazidagi sanoat korxonalarini shahardan chetga chiqarish orqali jadal rivojlanuvchi hudud barpo etish;

– byudjetga pul tushumi tushishini oshirish va byudjet mablag‘lari samarali sarflanishini oshirish;

– bir qator mintaqalar iqtisodiyotini diversifikatsiyalash;

– tadbirkorlik rivojlanishi uchun sharoit yaratish va ish o‘rinlarini barpo etish.

•Munitsipalitet darajasida:

– samarali texnologik zanjirni barpo etish;

– foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarini qayta tashkil etish;

– kichik ta’minotchilar yo‘qligi muammosini hal etish;

– tadbirkorlik tarkibi darajasida hudud imkoniyatidan samarali foydalanish.

Xorijiy mamlakatlarda industrial zonalarni barpo etish va rivojlantirish O‘zbekistonda barpo etilayotgan kichik sanoat zonalaridan tubdan farq qiladi. Lekin ularni barpo etish va rivojlantirish tajribasining ayrim jihatlarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirgan holda foydalanish maqsadga muvofiq. Industrial zonalarni barpo etish va rivojlantirish mavzusi bo‘yicha O.A.Axmadeeva, O.V.Lyubova, O.N.Belenov, T.Yu.Smolyaninova, Yu.V.Shurchkova, M.I.Berkovich, N.I.Antipina, A.M.Fridman, V.M.Semenov, N.V.Vasilenkova, O.A.Yegorova, S.N.Kuznesova, V.P.Kuznesov, Ye.B.Lenchuk kabi xorijiy olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Yo.Abdullaev, I.A.Bakieva, S.S.G‘ulomov, Sh.X.Baeva, U.V.Gafurov, B.Yu.Xodiev, G.K.Yaxshiboev, R.Yuldashev, A.U.Burxanov, T.Z.Teshaboev ham mazkur muammoga bog‘liq mavzularda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Hozirgi vaqtda Eko-industrial parklar Kanada, Indiya, Indoneziya, Xitoy, AQSh va Yaponiya davlatlarida ko‘p tarqalgan. Umuman, ayni paytda 90 dan ortiq davlatlarda 20000 dan ortiq industrial parklar faoliyat yuritmoqda. Industrial park tushunchasiga ko‘pgina ishlarda ta’rif berilgan. Bu ta’riflarga to‘xtalmay, industrial parkning o‘ziga xos asosiy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz:

- mahalliy hokimiyat organlari tomonidan industrial park qurish to‘g‘risida qaror mavjudligi;
- yer maydoni mavjudligi, yerning egasi davlat yoki xususiy investor bo‘lishi mumkin;
- muhandislik infratuzilmasi mavjudligi (elektr ta’minoti, kanalizatsiya, gaz va suv ta’minoti, telefon aloqasi va

kommunikatsiya);

- transport infratuzulmasi (temir va avtomobil yo‘li mavjudligi yoki unga yaqin bo‘lishi, mashina turar joyi, yoqilg‘i quyish shoxobchasi);
- boshqaruv kompaniyasi mavjudligi;
- moliya infratuzilmasi (bank, kredit tashkilotlarining yaqin bo‘lishi);
- ijtimoiy infratuzilma (do‘kon, tibbiyot punktlari, ovqatlanish ob’ektlari, hordiq chiqarish zonasi).

Bulardan tashqari, industrial parkning infratuzilmasi tarkibida tayyor ofis, laboratoriya, omborxonalar, zona ishchilari uchun turar joy kompleksining mavjudligi normal holat deb qaraladi.

- imtiyozlar: soliq imtiyozlari, investorlarni davlat tomonidan moddiy qo‘llab-quvvatlash, eng muhim muhandislik infratuzilma ob’ektlarlarini qurishni hamkorlikda moliyalashtirish, foiz stavkalarini subsidiyalash;
- industrial park ixtisoslashuvini e’tiborga olgan holda uning hududini rivojlantirishning yagona konsepsiyasi, park hududida quriladigan ob’ektlarinng joylashuv rejasi, marketing strategiyasi;
- bozorga chiqish imkoniyati;
- tabiiy va mehnat resurslarini olish imkoniyati.

Industrial parkka qo‘yiladigan talablardan biri o‘zaro yaqin joylashgan ishlab chiqarishlarni atrof-muhitga integral ta’sir va ularni yonma-yon qurish mumkinligi. Industrial parkning asosiy xususiyatlaridan biri, ularni davlatga, munitsipal hokimiyat va yuridik shaxslarga qarashli yer uchastkalarida barpo etish mumkinligi. Rossiya Federatsiyasida Industrial parkmi yoki sanoat zonasimi, ularni boshqaruv kompaniyasi boshqaradi.

Boshqaruv kompaniyasi konkurs asosida tanlanadi. Boshqaruv kompaniyasining xizmat turlari ko‘p bo‘lib, o‘z ichiga quyidagilarni oladi: yer maydonini industrial parkka moslashtirish uchun rejalashtirish bilan bog‘liq hujjatlarni tayyorlash; infratuzilma ob’ektlarini rejalashtirish va qurish; park infratuzilmasi ob’ektlarini qurish va undan foydalanishni tashkil etish; hududni geologik tadqiq

etish; yer maydonlari, binolar va infratuzilma ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish; iqtisodiy parkni barpo etish va uning faoliyat yuritishini ta’minlash bilan bog‘liq barcha ishlarni bajarish uchun moliya mablag‘larini topish va jalb etish; muhandislik tarmoqlariga, iqtisodiy park ob’ektlari kompleksi va rezidentlarga xizmat ko‘rsatish; korxonalarni park hududida joylashtirish uchun rezidentlarga yordam berish, kerakli mehnat, energetik, tabiiy va boshqa resurslar bilan ta’minlash; rezidentlarning buxgalteriya hisobi, moliyaviy, yuridik, iqtisodiy masalalari, logistika va bojxona bo‘yicha ish faoliyatini amalga oshirishda autsorsing xizmatini taklif qilish; industrial zonani qo‘riqlash, hududning tozaligini ta’minlash, yong‘inga qarshi xizmatni yo‘lga qo‘yish va hokazo. Industrial parklar, rezidentlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar turi bo‘yicha xalqaro tasnifga ko‘ra, ikki turga bo‘linadi:

- Greenfild – industrial park ishlab chiqarish binolari va inshootlarini qurish uchun yer maydoni taklif qiladi va talabga ko‘ra qurilish xizmatlari ko‘rsatadi. Ustun tomoni, tadbirkor o‘z xohishiga ko‘ra ishlab chiqarish ob’ektlarini quradi. Kamchiligi: qurilishni noldan boshlash katta mablag‘ talab etadi va qurilish vaqt bo‘yicha cho‘zilib ketishi mumkin.
- Brownfield – industrial parkda ishlab chiqarish binolari mavjud, oldindan qurilgan va ular rezidentlarga sotish uchun yoki ijaraga berish uchun tayyor. Ustun tomoni: tayyor ishlab chiqarish binolari, kamchiligi: ishlab chiqarish uchun mos bo‘lmagan binolarni buzib, qayta qurish uchun qo‘shimcha kapital sarflash.

Kichik sanoat zonasining potensial rezidentlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlari.
2. Respublika yoki xorijiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish kompaniyalarining vakolatlari yoki filiallari.
3. Ta’minotchi kompaniyalar vakolatxonalari (shu bilan birga xorijiy).
4. Bank, bojxona, marketing, sug‘urta va birja filiallari.

Industrial parkning rezidenti – boshqaruv kompaniyasi bilan

shartnoma asosida industrial park hududida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxs. Fikrimizcha, kichik sanoat zonalar rezidentlarini aniq belgilash muhim tashkiliy masalalardan biri hisoblanadi.

Kichik sanoat zonasining asosiy xususiyatlari va vazifalari yoritib berilgan. Kichik sanoat zonasining asosiy xusussiyatlari quyidagilardan iborat:

- zona infratuzilma ob’ektlari bilan ta’minlangan, gaz, elektr energiyasi, ishlab chiqarish binolari, asosiy magistral yo‘llarga chiqish yo‘llari;
- zonaning yer maydoni, ishlab chiqarish binolari davlat mulki hisoblanadi va ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga ijaraga beriladi;
- kichik sanoat zonasi davlat unitar korxonasi sifatida tashkil etilgan, direksiya tomonidan boshqariladi.

Kichik sanoat zonasining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni o‘rganish mumkin:

- hududlarda bo‘sh yotgan yer va binolardan sanoat ishlab chiqarishida foydalanish;
- sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish;
- yangi qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish;
- hudud hokimiyatining sanoat bo‘yicha siyosatini amalga oshirish, sanoat mahsulotlarining ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;
- kichik sanoat zonalarining investitsion jozibadorligini oshirish, ilg‘or texnologiyaga asoslangan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini zonaga jalb etish;
- xorijiy investitsiya ishtirokidagi kichik korxonalarni zonaga jalb qilish;
- zona ichida va hududddagi boshqa korxonalar bilan kooperatsiyalarni rivojlantirish.

Kichik sanoat zonalarini samarali tashkil etish yo‘llaridan biri

ularni klaster asosida tashkil etish.

Istiqbolli bo‘lgan, innovatsion, eksportbop va import o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarni, muhim loyiha va muhim kichik sanoat zonalarini belgilab, ularni xorijiy tajribadan kelib chiqib qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini belgilash muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi.

1.2. Kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasining iqtisodiy mohiyati

Hozirgi vaqtda kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali yo‘llaridan biri bo‘lib kichik sanoat zonalari hisoblanadi (KSZ). Kichik sanoat zonalari – bu tadbirkorlik sub’ektlarini joylashtirishga mo‘ljallangan, muhandislik-kommunikatsiya va infratuzilma ob’ektlarini, ma’lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o‘z ichiga oluvchi xudud.

Kichik sanoat zonalari ular joylashgan xududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Xususan, sanoat ishlab chiqarishni jadallashtiradi, hududlarni tadbirkorlik uchun investitsion jozibadorligini oshiradi, yangi investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb qilishga, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga va ularni rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib beradi, jamiyat uchun o‘lik yuk bo‘lib yotgan bo‘sh maydonlardan real iqtisodiy sektorni rivojlantirish orqali ulardan samarali foydalanishga, aholi uchun ish joylarini yaratishga, hamda yangi raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi.

Sanoat ishlab chiqarishi infratuzilmasi ishlab chiqarish mablag‘lari hamda ularning uzoq muddat ishlashini ta’minlaydigan tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga bevosita sanoat korxonasiga xizmat qiluvchi tarmoqlar kiradi: ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan transport, ta’mirlash ustaxonalari, ombor xo‘jaliklari, kommunikatsiya tizimi va telegraf, aloqa, elektr energiya uzatish liniyalari, texnik xizmat stansiyalari, ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyalari, hisob markazlari. Bunday xizmatlarga texnik ta’mir,

yuridik va boshqa xizmatlar kiradi.

Sanoat ishlab chiqarishi infratuzilmasining shakllanishiga ko‘pgina omillar ta’sir etadi. Ularning ichida suv bilan ta’minlanishi, yo‘l holati, korxonaning joylashishi, ishlab chiqarish ob’ektlarining joylashishi, qo‘llanilayotgan texnologiyalar, ishlab chiqarshning ixtisoslashishi va konsentrasiyalashuv darajasiga alohida e’tibor beriladi.

Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida aloqaning o‘rni va ahamiyati juda muhimdir. Chunki, korxonalarning aksariyat qismi o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarning davlat buyurtmasidan tashqari qismini xohlagan tashkilot, firmaga yoki bozorda sotishi mumkin. Shu bois ularning bozor kon’yunkturasini o'rganishi yoki baho tizimi o‘zgarib turishidan xabardor bo‘lishida, aloqa tizimining eng zamonaviy uskunalaridan foydalanish mahsulotlarnn sotish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni imkon darajasida hal qilishga ko‘maklashadi.

Aloqa tizimining yana bir muhim xususiyati shundaki, bunda korxonaning ichki tizimida bo‘layotgan barcha jarayonlardan xabardorlik hamda ularning muammolarinn hal etish imkoni yaratiladi. Korxonaning ichida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha uskunalar va mexanizmlarga zarur holatda texnik yoki boshqa xizmatlarni ko‘rsatishda, aloqa tizimining qanchalik darajada ahamiyatli ekanligini ko‘rish mumkin.

Sanoat korxonalarining sifatli mahsulot ishlab chiqarishi va iste’molchilarni sanoat mahsulotlari bilan ta’minlanishida bozordagi holatni o‘rganish va boshqa jarayonlarda – ilmiy va axborot ta’minotni o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu ta’minot orqali yangiliklar qancha tez tarqatilsa, ishlab chiqaruvchilar bu yangiliklarni shuncha tez o‘zlashtirishi va joriy etishlari, ikkinchidan, ulardan foydalanib, ishlab chiqarshi samaradorligini oshirishlari mumkin.

Sanoat ishlab chiqarishiga xizmat ko‘rsatuvchi asosiy yirik tarmoqlardan biri – yo‘l xo‘jaligidir. Sanoatda eng keng tarqalgan va asosiy tarmoq avtomobil yo‘llari hisoblanadi. Tarmoqlararo tavsifga ega bo‘lgai yo‘llar sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’molchilargacha yetkazish kabi keng ko‘lamli va

salmoqli vazifalarni bajarishadi, ichki yo‘llar esa korxona ichidagi barcha ichki muammolarni hal etishda o‘zigi xos o‘rin tutadi. Korxona ichidagi yo‘llar mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha faoliyatlarga xizmat qiladi. Sanoat ishlab chiqarishida yo‘llarnnng joylashishi, asosiy ob’ektlarga qo‘lay turishi, asfaltlanganlik darajasi va tekisliligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, infratuzilmaning eng yirik tarmoqlaridan biri transport xo‘jaligi hisoblanadi. Ishlab chiqarish harakati jarayonini transportsiz tasavvur kilish qiyin. Bu borada sanoatga xizmat ko‘rsatayotgan transportlar faoliyati uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Dastavval sanoatda transport vazifasini o‘tab kelgan ishchi hayvonlardan foydalanilgan.

Sanoat korxonalarnda xizmat ko‘rsatuvchi texnikalarning holati ishlab chiqarish samaradorligini ko‘p jihatdan belgilab beradi. Xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan va ishga yaroqsiz holga kelib kolgan texnikalar, ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta’sir etadi,

Sanoat mahsulotlarini iste’molchilargacha bo‘lgan uzluksizligini ta’minlashga ishlab chiqarish infratuzilmasining ikkinchi yirik tarmog‘i xizmat qiladi. Bu tarmoqqa mahsulotlarni saralash, tayyorlash, saqlash va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar knradi.

Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarilgandan so‘ng uni saralash va tayyorlash ishlari olib boriladi. Saralashda mahsulotlar ko‘rinishiga qarab ikki guruhga bo‘linadi. Bu esa, o‘z navbatida mahsulotlarni saqlash uchun tayyorgarlikni ko‘rishga imkon yaratadi. Chunki saralash jarayonida mahsulotning navi va turiga qarab saqlash dasturi ishlab chiqiladi. Mahsulotning bir qismini sotish, ikknichi bir qismini esa saqlash masalasi hal etiladi.

Mahsulotlarni saralash ishlari olib borilmasa, saralash jarayonidagi e’tiborsizlik va kamchiliklar tufayli isrofgarchlikka yo‘l qo‘yilishi mumkin. Saralangan sanoat mahsulotlarini tayyorlash ishlari ularning sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar orasida asosiy pul tushumi – sifatli mahsulotlar hisobiga bo‘ladi.

Sanoat mahsulotlarini saqlash omborxonalarn 2 turga bo‘linadi:

- muvaqqat (vaqtinchalik omborlar);
- doimiy omborlar.

Muvaqqat omborlar aholi punktlariga yaqin joyga quriladi. Unda tez buziladigan mahsulotlar (sut-qaymoq va boshqalar)ni saqlash mumkin. Doimiy omborlar sig‘imn 100 tonnadan 30000 tonnagacha bo‘lishi mumkin. Bunday omborlarda faol ventilyatsiya bo‘lganda mahsulot yaxshi saqlanadi.

Hozirgi paytda oziq-ovqat mahsulotlarini gaz muhitni boshqarib saqlash – Angliya, Fransiya, Gollandiya, AQSh, Germaniya va boshqa mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. Bunda mahsulotlar snfatn 7-8 oygacha buzilmasdan saqlanishi mumkin.

Ma’lumki, respublikamnz sanoatida oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yildan-yilga oshnb bormoqda. Hozirgi kunda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda 10- 15 foizgacha nobudgarchilnkka yo‘l qo‘yilmoqda. Bu, tabiiyki, korxona uchun zarardir, Dunyo miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari 3 tartibda saqlanadi:

- quruq holda saqlash:
- sovugnlgan holda saqlash;
- xavosiz joyda saqlash.

Umuman, oziq-ovqat mahsulotlarini turiga karab, ularni saqlash uchun zamonaviy omborxonalar va sovutgichlar qurilishini tashkil etish kerak.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish, ya’ni iste’molchiga yetkazish juda muhim ahamiyatga ega. Bu borada hozirgi paytda respublikamizda tajriba yo‘qligi hamda korxonalarning bozor holatini bilmasliklari sababli ko‘p hollarda kasodga uchramoqda.

Korxonalarda mahsulotni sotishdan avval bozor kon’yunkturasini bilishi lozim. Bunda o‘tgan yil yakunlaring hisobga olib, kelgusi yilda qaysi mahsulotlarga talabning oshishi yoki kamayishi hamda qaysi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarganda korxona yil yakunida yuqori rentabelli ko‘rsatkich bilan chiqishi mumkinligini bozor konyunkturasi oydinlashtiradi.

Sanoatda ishlab chiqarish infratuzilmasining har bir tarmog‘idagi

nuqsonlar bartaraf etilishi uchun zaruriy holatlarda kapital qo‘yilmalarni jalb etish kerak. Mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarnni rivojlantirish davr talabidir. Infratuzilmaning har bir tarmog‘ida, u sanoat tarmoqlari bo‘ladimi yoki tayyor mahsulotni iste’molchiga yetkazib berishdagi xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar, har bir soha obektlarini eng samarali va jahon talablariga javob beradigan texnik jihozlar bnlan ta’minlash hozirgi kunning dolzarb muammolaridandir. Bu muammolarni o‘z vaqtida yechish, birinchidan, sanoat tarmog‘i korxonalari ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirsa, ikkinchidan, aholining oziq-ovqat va boshka mahsulotlarga bo‘lgan talabini to‘la qondirish imkoni yaratiladi.

Sanoat korxonalarining samarali ishlab chiqarish faoliyati ishchi-xodimlarga mehnat jarayonida bo‘lgani kabi, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda ham zarur shart-sharontlar yaratishni talab etadi. Sotsial infratuzilma bo‘limlari va xizmat sohalari bu vazifani bajarishga yo‘naltirilgan.

Sotsial infratuzilma – mehnat jarayonida ishchilarni samarali faoliyat yuritishni uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining bir qismini aks ettiradi. Sotsial infratuzilmaning asosiy vazifasi korxona xodimlarining sotsial-maishiy sharoitlarini kelgusnda yaxshilash hisoblanadi. Sotsial infratuzilma sohalari yakuniy mahsulot yaratishda bevosita ishtirok etmaydi, lekin ular ishlab chiqarish jarayonining normal rivojlanishi uchun shart-sharontlarni ta’minlaydilar.

Sotsial infratuzilmaning ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarishning zarur malakadagi kadrlarga bo‘lgan talabini qondirishni tartibga soladi kadrlarni takror ishlab chiqarish va sanoatga bog‘lanib qolishiga ko‘maklashadi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini ta’minlaydi. Sotsial infratuzilma bo‘limlari nafaqat korxona ishchilari, balki ularning oila a’zolari kommunal-maishiy talablarini qondirishi uchun ham shart-sharoitlarni yaratishda katnashadi.

Sotsial infratuzilma sanoat ishlab chiqarishining xususiyatlarini aks ettiradigan o‘ziga xos jihatlarga ega. Sotsial infratuzilma ob’ektlari sanoat korxonalari resurslari va aholining pul mablag‘lari hisobiga yoki

davlat investitsiyalarini yashash joylari, bolalar bog‘chalari, maktablar, poliklinikalar, aloqa tarmoqlari va bosh qalar qurilishiga samarali sarflash orqali barpo etiladi.

Sotsial infratuzilma bo‘limlari nafakat sanoat ishlab chiqarishida band ishchilarga, balki uning atrofida yashovchi aholiga xam xizmat qiladi.

Odatda, sanoat ishlab chiqarishidagi sotsial infratuzilma ob’ektlarn korxona hududi bo‘yicha bo‘lib joylashtirilgan bo‘ladi, bu esa ulardan samarali foydalanishni qiyinlashtiradi. Ayrim oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarining mavsumiylik xususiyati – sotsial infratuzilma bo‘limlari va xizmat sohalari ishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Sotsial infratuzilma ob’ektlarini tashkil etish va maqsadga muvofiq ishlab turishi, ular joylashgan sanoat korxonasining iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Korxonalar sotsial infratuzilma bo‘limlarini shakllantirishga zarur moddiy-pul va mehnat resurslarini ajratadilar.

Sanoat ishlab chiqarishi sotsial infratuzilma ob’ektlarnga – kommunal yy-joy xo‘jaliklari, meditsina va maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ovqatlanish korxonalari, o‘quv-ishlab chiqarish kombinatlari, mehnat muxofazasi bo‘yicha xizmat sohalar, sport-sog‘lomlashtirish tashkilotlari, ishchi-xizmatchilarga xizmat ko‘rsatuvchi transport, aloqa va axborot xizmati bo‘limlari kiradi. Maqsadli yo‘nalishi, shakllanish manbai, hududiy joylashuvi va ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko‘ra, sotsial infratuzilma ob’ektlarn va xizmat sohalarini 2 guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga korxonalar hisobidan barpo etilgan, korxonaga tegishli hududlarda joylashgan va mehnat sharoitlari, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish jarayonida ishchilarning xordiq olishi, shart-sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ob’ektlar tegishlidir. Bu guruh tarkibiga maishiy inshoatlar, umumiy ovqatlanish puiktlari (bufetlar, oshxonalar, tamaddixonalar), sog‘liqni saqlash, madaniyat va hordiq ob’ektlari (profilaktoriyalar, vrach kabinetlari, o‘quv zallari va boshqalar), yong‘inga qarshi punktlar kiradi.

Ikkinchi guruhga sanoat korxonalarining aholi punktlarida joylashgan, aholining kommunal uy-joy talablarini qondirish uchun mo‘ljallangan va qoida bo‘yicha davlat resurslari, katta korxonalarning mablag‘lari hisobiga tashkil etilgan sotsial infratuzilma ob’ektlari, maishiy xizmat korxonalari, sog‘liqni saqlash, sport, maktab va maktabgacha tarbiya muassasalari, madaniyat uylari va klublar, savdo korxonalari taalluqlidir.

Sotsial infratuzilmaning ushbu ob’yektlar sanoat korxonalari xodimlari va aholiga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan.

1.3. Kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasini rivojlantirishda davlat siyosati

O‘zbekistonda barqaror o‘sish sur’atlari va aholining yuqori farovonligini ta’minlash, respublikaning xalqaro maydondagi o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lishi uchun real shart-sharoitlarni yaratuvchi zamonaviy iqtisodiyotni barpo etish borasida keng miqyosdagi muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jumladan:

- iqtisodiyotni tubdan tarkibiy o‘zgartirish;
- yetakchi tarmoqlarni jadal modernizatsiyalash;
- mamlakat raqobatdoshligini oshirish;
- sanoat hamda boshqa muhim tarmoqlardagi ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash;
- mahalliylashtirish dasturi va uning vazifalarini ishlab chiqish;
- milliy iqtisodiyotni zamon talablariga moslashtirish.

Sanoat ishlab chiqarishi infratuzilmasini rivojlantirishda mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati alohida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash aksariyat hollarda davlat tomonidan amalga oshiriladi. Iqtisodiyoti liberallashtirilgan mamlakatlarda ham ishlab chiqarish infratuilimasini tartibga solishda maksimal ravishda davlat dastaklaridan foydalaniladi.

Sanoat ishlab chiqarishi infratuzilmasining elementlari mamlakat

hududlari bo‘yicha ularning salohiyatini inobatga olgan holda teng taqsimlash maqsadga muvofiq.

Infratuzilmaning rivojlanishi mamlakat yoki hududning turli xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Infratuzilma ishlab chiqarishning bir qismi sifatida hududiy tavsifga egadir. Infratuzilma bo‘g‘inlarining rivojlanishi mamlakat va hududiy boshqaruv organlariga ham bevosita tegishli jarayon hisoblanadi. Infratuzilma ishlab chiqarishni, mamlakatning ijtimoiy kompleksini, uning sotsial-iqtisodiy darajasini ta’minlaydigan tashqi omillarga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Infratuzilmaning qoloqligi esa, mamlakatda ishlab chiqarish, sotsial, moliyaviy sohalarning samarasizligiga olib keladi.

Moddiy, axborot, moliyaviy oqimlarning mamlakatga kirib kelishida muammolar yuzaga keladi. Infratuzilmaning davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan rag‘batlantirilishi mamlakatning infratuzilma tizimini rivojlantirishda davlat iqtisodiyotining rivojlanishidagi bilvosita ishtirokining samarasi bo‘lishi mumkin.

Dunyoda ro‘y berayotgan global iqtisodiy inqiloblar boshqaruv hokimiyatlar oldiga iqtisodiy rivojlanish siyosatini ishlab chiqishlari uchun quyidagi to‘rt muammoni qo‘yadi:

Birinchisi. So‘nggi yillarda ko‘pgina boshqaruv hokimiyatlarining yetakchi rahbarlari iqtisodiy o‘sish mamlakat iqtisodiyoti bilan kuchli bog‘langanligini his etib, uni shu tarzda olib borish kerakligini e’tirof etmoqdalar.

Haqiqatdan ham, iqtisodiyotda va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda tadbirkorlik va xususiy sektorning o‘rni yuqori bo‘lib, ularning faoliyati boshqaruv hokimiyat organlarining maqsadlariga ham mos keladi. Ma’lum bir hududning rivojlanishini rejalashtirishga bunday yangicha yondashish boshqaruv hokimiyat organlarining maqsadlari o‘zgartirilishini hamda qayta ko‘rib chiqilishini talab etadi. Bu, ular o‘z hokimliklaridagi har qanday xususiy korxonani yangi ishchi o‘rinlari tashkil etish uchun jalb qilish yetarli emasligi bilan izohlanadi.

Boshqaruv hokimliklar bunday yangi ishchi o‘rinlari yuqori ish haqi to‘lanadigan ish o‘rinlari bo‘lishiga, ular yuqori malakani talab

qilishiga hamda xususiy korxonalar raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishlariga, shu orqali hududlar aholisi turmush darajasi va sifatini ko‘tarish kerakligiga e’tibor qaratishlari lozim. Bunda hududning raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat beriladi.

Ikkinchisi. Iqtisodiyotning rivojlanish poydevori – infratuzilmalarni mustahkamlash. Buning uchun mahalliy hokimiyat xususiy sektor rag‘batlantirilishini qo‘llab-quvvatlash strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Xususiy sektor iqtisodiy poydevorini aniqlovchi davlat tadbirlarining keng doirasiga kiruvchi ishchi kuchi, bilim va texnologiya, moliyaviy kapital, ishlab chiqarish va sotsial infratuzilma aniqlanishi lozim.

Uchinchisi. Iqtisodiyotning rivojlanish siyosatini mavjud geografik holatlarga moslashtirish. Hududlar uchun yangi iqtisodiyot global bo‘lishi, ammo hududlar ahamiyatli iqtisodiy funksiyalarni bajarishni davom ettirishlari mumkin. Hudud tarmog‘ining iqtisodiy hayot baxshligi butun hudud umumiy farovonligi va geografik joylashishi xususiyatlariga bog‘liq.

To‘rtinchisi. Iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonidagi muammolarni strategik rejalashtirish asosida hal qilish uchun yangi tashkiliy va institutsional yondashishlar tartibini ishlab chiqish. Iqtisodiyot rivojlanishini rejalashtirish va amalga oshirish iqtisodiy o‘sish mutaxassislariningina emas, balki boshqaruv hokimiyat siyosatshunoslari va rahbarlari, boshqaruvchilar hamda tadbirkorlarning ham asosiy ishi bo‘lishi kerak.

Samarali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun ko‘pdan ko‘p davlat va xususiy tashkilotlarning hukumat agentliklari, firmalar, birlashmalar ishchilari, ta’lim tashkilotlari, foydani ko‘zlamay ishlaydigan tashkilotlar va alohida fuqarolarning birgalikdagi o‘zaro uyg‘un harakatlari yanada natijaliroq bo‘lishi zarur.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi hududga “biznesni jalb qilish” g‘oyasidan rivojlanib, yanada yirikroq va kengroq g‘oyalarni o‘z ichiga oluvchi modellarni taklif qiladi. Iqtisodiyoti jadallik bilan rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘tgan asrning 60-70

yillarida hali uncha ko‘p bo‘lmagan mamlakatlar faqat o‘z hududlarining iqtisodiy o‘sishiga aloqador muammolar haqida qayg‘urishardi. Bunday holat asosan mamlakatning umumiy rivojlanish oqimidan tushib qolgan soha va tarmoqlarga xos edi.

Ularni hududlari iqtisodiy rivojlanishi qandaydir sababga ko‘ra, ikkinchi darajali masalalar qatoriga kirib qolgan bo‘lishi mumkinligi tashvishlantiradi.

Asosiy maqsad esa, mamlakat miqyosida iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdir. Buning uchun hukumat ixtiyoridagi makroiqtisodiy siyosat vositalaridan foydalaniladi. Bunday hollarda mamlakat darajasida “iqtisodiy rivojlanish” deganda, milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasidan ortda qolmasligiga yordam berish siyosati tushuniladi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ishlab chiqarishga bevosita bog‘liqligi sababli uni qo‘llab-quvvatlash zarur hisoblanadi. Shu o‘rinda eslatish lozimki, mamlakatni rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi asosiy siyosatning yo‘nalishi boylik ortishini ta’minlovchi barqaror rivojlanishga sharoitlar yaratish emas, balki ko‘proq sanoat korxonalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Sanoat korxonalarini qo‘llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy modeli hisoblanishi lozim.

Mamlakatning global iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiyotni qayta qurish natijalari boshqaruv organlariga ta’sir o‘tkazib, ularni iqtisodiy o‘sishga bo‘lgan yondashishlarida va munosabatlarida ishlab chiqarish sektorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Milliy iqtisodiyot tarkibidagi ishlab chiqarish infratuzilmasi uning barqaror o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydi. Mamlakatda ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari qanchalik yuqori darajada hamda zamonaviy talablar asosida rivojlangan bo‘lsa, unga nafaqat milliy, balki xorijiy investitsiyalar ham shunchalik jadal va ishonchli asosda kirib keladi. Milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanishi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqliklarni ifodalovchi ob’ektiv qonuniyatlar ham mavjud.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Chunki, bugungi kunda ishlab chiqarish infratuzilmasi unsurlarining yetarli darajadagi faoliyatini yo‘lga qo‘ymasdan turib zamon talablariga muvofiq keluvchi ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishni tasavvur ham qilib bo‘lmaydi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining holati, rivojlanganlik darajasi mahsulot va xizmatlar sifati va tannarxiga, demakki, ularning raqobatdoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi mamlakatdagi sotsial muhit holatiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi (avtomobil va temir yo‘llari, ko‘priklar, aeroportlar, omborlar qurilishi, transport, elektr va aloqa tarmoqlari, suv, gaz ta’minoti va boshqalar)ning tashkil etilishi, eng avvalo, yangi ish o‘rinlarining barpo etilishi hamda tegishli soha mutaxassislari, muhandis-texnik xodimlari, ishchi va xizmatchilariga bo‘lgan talabning oshishiga olib keladi. Bu esa, iqtisodiyotdagi konyunkturaviy o‘zgarishlar, davriy tebranishlar paytida ishchi kuchi bozoridagi muvozanatni ta’minlashda muhim dastak sifatida foydalanishga imkon yaratadi.

Mamlakatimiz hududida sanoatni rivojlantirishning asosiy omillari, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, mahalliylashtirish dasturi qabul qilingan bo‘lib, uning maqsadi – eksportga mo‘ljallangan va import o‘rnini bosadigan raqobatbardosh zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni yanada rag‘batlantirish, ichki tarmoq va tarmoqlararo, jumladan, respublikaning kichik biznes va yirik korxonalari o‘rtasidagi sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, aholi bandligiga ko‘maklashish.

Mamlakat uchun ishlab chiqarishni rivojlantirish – bu, birmuncha kengroq siyosatning bir qismi bo‘lib, o‘z ichiga xususiy kapitalni jalb etish, yangi xususiy korxonalarni yaratish va modernizatsiya qilishlarni oladi. Iqtisodiyotga xususiy kapitalni jalb etish – mamlakatga iqtisodiy resurslar oqib kelishiga ko‘maklashib, mamlakat afzalliklaridan

foydalanishga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022 yil 20 dekabrda Oliy majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida iqtisodiyotga xususiy kapitalni jalb etishning zaruriyati to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidladi: “Yangi yildan boshlab har bir hokim o‘z tumaniga 40-50 million dollar xususiy investitsiyalarni olib kelishi kerak bo‘ladi.

Vazirlar faqat davlat mablag‘ini sarf qilmasdan, o‘zlari ham tashabbus ko‘rsatib, xususiy investitsiyalarni jalb qilishlari lozim. Masalan, davlat-xususiy sheriklik orqali qishloq, suv, o‘rmon xo‘jaliklari, transport sohalariga bemalol yiliga 1 milliard dollargacha sarmoya olib kelish mumkin.

Kelgusi yili 70 ta yangi maktab quriladi, 460 ta maktab kengaytiriladi. Xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlanadi, kelgusi besh yilda ularning sonini 1 mingtaga yetkazamiz.

Iqtisodiyotimiz barqaror rivojlanishi uchun energetika sohasiga 25-30 milliard dollar investitsiya kerak. Bunga faqatgina xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali erishish mumkin.

Kelgusi yili qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalb qilinadi, shundan 25 milliard dollar xususiy investitsiyalar bo‘ladi. Jumladan, umumiy qiymati 8 milliard dollarlik 300 dan ziyod loyihani ishga tushiramiz va yana 40 ta yangi yirik loyiha boshlanadi.

Shu bilan birga, faol investitsiyalarni jalb qilishda xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanish zarur.

Kelgusi yili katta xususiylashtirishni boshlaymiz, 1 mingga yaqin korxona savdoga chiqariladi”[10].

Hukumatimiz tomonidan eng muhim ustuvor vazifa – bu mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish infratuzilmani yanada

[10] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.//Халқ сўзи, 2022 йил 21 декабрь.

rivojlantirishdan iborat ekanligi belgilab berildi.

Mazkur ustuvor vazifaga alohida e’tibor qaratishning bir qator sabablari mavjud. Jumladan:

- infratuzilmani rivojlantirish yangi korxonalarni joylashtirish va butun iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun zarur qulay shart-sharoitlar yaratadi, mamlakatimizning boy mineral-xom ashyo resurslarini o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi, avvalambor, avtomobil va temir yo‘llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarni kamaytirishning muhim sharti va omilidir. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va butun iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshiradi;
- infratuzilmani rivojlantirish ko‘p mehnat talab qiladigan keng ko‘lamli soha hisoblanadi. Bu yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirish imkonini beradi.

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, iqtisodiyotning real sektorini yanada rivojlantirish ko‘p jihatdan xo‘jalik yurituvchi subektlarning ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq.

Zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmani jadal rivojlantirishni ta’minlash, shu asosda iqtisodiyotni izchil va barqaror yuksaltirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida “2009 yilda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” maxsus dastur qabul qilindi va uning bajarilishi davom etmoqda.

Davlat tomonidan ishlab chiqarishni rivojlantirish va ishchi o‘rinlarini yaratishni rag‘batlantirish, xususiy sektor orqali iqtisodiyotni rivojlantirish va kengaytirish jarayonlarini mamlakat imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘llab-quvvatlashiga qaraliladi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash bilan birga iqtisodiyotning rivojlanishiga ham ta’sir o‘tkazadi.

Eksportchilar uchun rag‘batlantiruvchi omillar va imtiyozlar:

- eksport bojxona bojni bekor qilingan;
- tovarni chetga chiqarishda QQS nolga teng;
- eksportyorlar uchun foyda solig‘i, mulk solig‘i va kichik biznes uchun eksportning o‘lchamiga bog‘liq holda yagona soliq pasaytiriladi;
- tekstil korxonalari 1 yanvar 2016 yilga qadar mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etilganlar.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar – bir tomondan korxonalar daromadining barqarorligini ta’minlashdan, ikkinchi tomondan – korxonalarni respublika uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga rag‘batlantirish hamda xorijiy investitsiya ishtirokidagi eksport qiluvchi korxonalar soni ko‘payishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga davlat xizmat ko‘rsatish sohasidagi va oilaviy tadbirkorlik subektlarini rag‘batlantirish yo‘nalishlarida ham bir qancha vazifalarni amalga oshirdi.

Respublika sanoatining tez rivojlanib borayotgan tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan, eksport salohiyatini kengaytirish, savdo va to‘lov balansini maqbullashtirish imkonini beradigan butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, sarflanadigan materiallar va qayta ishlangan xom ashyo zaxiralari ishlab chiqaradigan mahalliy korxonalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, valyuta mablag‘larini birinchi navbatda ilg‘or texnologiyalar va mashina-uskunalarni import qilishga yo‘naltirish uzoq muddatli istiqbolni ko‘zlab sanoatni yanada rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishida innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi va axborot texnologiyalarining sanoat tarmoqlarida keng yoyilishi iqtisodiyotni sanoatlashtirish jarayoniga ta’sir etadi. Sanoatlashgan jamiyatda sanoatining o‘zi axborot texnologiyalari yordamida yuqori darajada takomillashtiriladi.

Iqtisodiyotni sanoatlashtirishda kichik sanoat zonalari va sanoat klasterlarining barpo etilishi muhim o‘rin tutadi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, tashkil etilayotgan kichik sanoat zonalari

qatnashchilari ikki yil muddatga yagona soliq to‘lovidan ozod etiladi. Agar imtiyozlarning amal qilish muddati davomida korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot umumiy hajmining kamida 30 foizi eksport qilinsa, mazkur imtiyozlar yana ikki yilga uzaytiriladi. Shuningdek, ularga davlat binolari imtiyozli uzoq muddatli ijaraga yoki “nol” qiymatda beriladi.

Bugungi kunda, yangi ishchi o‘rinlarini yaratishga, aholi daromadlarining oshishiga va mamlakatning iqtisodiy o‘sishga kichik sanoat korxonalari va mikrofirmalarining hissasi ortib bormoqda (1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval ma’lumotlarining guvohlik berishicha, O‘zbekiston 2018-2021 yillarda ishlab chiqaralgan sanoat mahsulotlari (oziq-ovqat, ichimliklar, to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari, mebel va boshqalar)ning 96,0 va undan yuqori foizi kichik sanoat korxonalari va mikrofirmalarining hissasi to‘g‘ri kelgan. Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mamlakat iqtisodiy o‘sishidagi ulushi 2019-2020 yillarda pasaygan bo‘lsada, bu ko‘rsatkich 2021 yilda biroz yuqorilagan. Tarmoqning boshqa shaxobchalarining umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi ham sekin bo‘lsada oshmoqda.

1.3.1-jadval

Kichik korxona va mikrofirmalarning O‘zbekiston Respublikasi sanoati rivojining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi ulushi[11]

Ko‘rsatkichlar	Y i l l a r			
	2018	2019	2020	2021
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	3,0	2,1	1,9	2,3
Ishlab chiqaradigan sanoat	96,5	96,0	96,0	96,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	0,1	1,5	1,7	1,0

[11] O' zbekiston sanoati. − T:. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, 2022, 33 bet.

				1.3.1-jadval davomi
Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	0,4	0,4	0,4	0,4

Kelgusida kichik sanoat korxonalari va mikrofirmalari negizida yirik xususiy korporatsiyalar shakllanishi mumkin va bu O‘zbekistonning sanoatlashgan jamiyatga aylanganligining asosiy belgisi bo‘ladi.

II BOB. KICHIK SANOAT ZONALARI INFRATUZILMASINING TARKIBI VA HUQUQIY ASOSLARI

2.1. Kichik sanoat zonalari infratuzilmasining tarkibi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirishda infratuzilmani rivojlantirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, bunday xususiyatlardan biri bo‘lib infratuzilmaning samarali amal qilishini ta’minlashda davlatning o‘rni bo‘lishi zaruriyat hisoblanadi. Chunki, bunday zaruriyat quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

- infratuzilma sohasidagi talab va taklifni tartibga solib turuvchi bozor mexanizmining samarali amal qilmasligi;
- infratuzilma ob’ektlari xizmatiga bo‘lgan narxlar bo‘yicha talabning elastik emasligi;
- infratuzilma xizmatlari bozorining notekis tarkibiy tuzilishi natijasida bozordagi muvozanatga erishishda davlat tomonidan aralashuvning zarurligi;
- infratuzilma sohasi faoliyatining rivojlanishi asosiy tarmoqning rivojlanish darajasiga bog‘liqligi va boshqalar.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi subektlari milliy masshtabda – respublika va mahalliy infratuzilmalarga, hududlar bo‘yicha – ichki va tashqi ishlab chiqarish infratuzilmalariga bo‘linadi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq infratuzilmani shakllantirish borasida davlat tomonidan quyidagi chora-tadbirlarga alohida e’tibor qaratildi:

- infratuzilmaning barcha subektlari majmuasini shakllantirish;
- infratuzilma subektlari o‘rtasidagi bevosita xo‘jalik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish;
- infratuzilmaning barcha subektlari faoliyatini atroflicha tashkil etish;
- infratuzilma unsurlarini rivojlantirib, yangilarini vujudga keltirish;
- iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga

ko‘maklashuvchi idoralarni barpo etish;

- yangi bozor munosabatlari sharoitida ishlay oladigan malakali kadrlarni tayyorlash.

Mamlakatimizda infratuzilma rivojlanishining xususiyatlaridan yana biri – bu uning alohida emas, balki iqtisodiyotda olib borilayotgan o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq holda olib borilishidir. Jumladan, mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirishda davlat mulkini baholash, uni sotishga tayyorlash va sotish, yangi mulk egasiga berish, mulk egalari o‘rtasidagi bitimlarni ro‘yxatga olish, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishda salohiyatli mulk egalarini aniqlash, ularni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajarish maqsadida ko‘plab infratuzilma unsurlari barpo etildi. Shuningdek, iqtisodiyotning barcha sohalari, ayniqsa infratuzilma tarkibiga kiruvchi bank, kredit, sug‘urta tizimlari faoliyatining erkinlashtirilishi ham yangi tashkiliy tuzilmalarning shakllantirilishiga imkon yaratdi. Kichik va xususiy biznesni jadal sur’atlar bilan rivojlantirish, o‘rta mulkdorlar sinfini qaror toptirishga bo‘lgan e’tibor tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga, ularning ish samarasini oshirishga ixtisoslashgan ko‘plab tizimlarning vujudga kelishiga olib keldi.

Har qanday ishlab chiqarish infratuzilmasining asosi – boshqariladigan ob’ekt va boshqaruvchi subektlardan tashkil topadi.

Boshqariladigan va boshqaruvchi tizimlar o‘rtasidagi aloqa ishlab chiqarish korxonalari bilan infratuzilmaning o‘zaro munosabatlaridan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini boshqarish 2 turda amalga oshiriladi:

- ob’ektlarni boshqarish orqali;
- sub’ektlarni boshqarish orqali.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi ob’ektlariga temir yo‘l liniyalari, avtomobil yo‘llari, ko‘prik va tonellar, elektr uzatish liniyalari, ichimlik suvi tarmoqlari, telekommunikatsiya tarmoqlari, telekommunikatsiya inshootlari, logistika markazlari, sug‘urta kompaniyalari, fond birjalari, tijorat banklari, lizing kompaniyalari, kasaba uyushmalarini misol

keltirishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi subektlari (boshqaruvchilar)ga (O‘zbekiston havo yo‘llari, MAK, “O‘zkommunxizmat” agentligi, “O‘zbekenergo” DAK, “O‘zavtoyo‘l” DAK, “O‘ztransgaz” AK; “O‘zneftmahsulot” AK, Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi va boshqa)larni kiritishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi vazifalariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- ishlab chiqarish tarmoqlarini yoqilg‘i, energiya va moddiy resurslar bilan ta’minlash;
- ishlab chiqarish komplekslarini mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar bilan ta’minlash;
- barcha turdagi informatsion oqimlardan foydalanishni ta’minlash.

Iqtisodiyotni liberallashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish ko‘p bo‘g‘inli infratuzilmani yaratishni talab qiladi. Infratuzilma turli xil vazifalarni bajaruvchi tarkibiy qismlar, unsurlardan iborat tizimini o‘zida namoyon etadi. Shunga mos holda, infratuzilmaning tarkibiy qismlarini belgilab olish, ularning har birining ahamiyatini o‘rganish, iqtisodiy tabiatini ochib berish muhim hisoblanadi.

Infratuzilma majmuiga kiruvchi sohalar iqtisodiy jarayonlarga turlicha ta’sir ko‘rsatadi va ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shu nuqtayi nazardan ham ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish ob’ektiv zaruriyat hisoblanadi.

Chunki ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkiban moddiy ne’matlar ishlab chiqaruvchi tarmoq va korxonalarga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’molchiga yetkazish, tayyorlash, saqlash, o‘rash, qadoqlash yoki joylashtirish, tovar joylanadigan yoki o‘raladigan idishlar bilan ta’minlash, tashish, ta’mirlash hamda sotish kabi xizmatlar ko‘rsatuvchi, ularning to‘xtovsiz va samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi tashkilot va korxonalar majmuini tashkil etadi.

Milliy doiradagi ishlab chiqarish infratuzilmasining elementlariga

yagona energetik, temir yo‘l, avtomobil, truba o‘tkazma yo‘llar, suv va havo, aloqa tizimlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlangan va regressiv infratuzilmaga bo‘lish mumkin. Bunday metodologik bo‘linish rejalashtirish va bashorat qilish uchun zarur hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish infratuzilmasi turli xil bo‘g‘inlardan tashkil topgan. Unga infratuzilmaning subektlari, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlovchi moddiy mahsulotlar, ya’ni elektr energiya, gaz, suv bilan ta’minlash, aloqa va transport, moddiy ta’mirlash korxonalari nazarda tutiladi. Lekin moliyaviy mablag‘larning yetishmasligi sababli ishlab chiqarish infratuzilmasi subektlarining sekin rivojlanishiga olib kelmoqda.

Bunga misol qilib, ishlab chiqarish konsaltingi, axborot xizmatlari, boshqacha qilib aytganda ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishda axborotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarish infratuzilmasining regressiv subektlariga hozirgi davrda o‘z faoliyati natijasida iqtisodiy samaradorlikka erishaolmayotgan korxonalarni kiritish mumkin.

Bunga misol qilib, transport xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va hokazolarni keltirish mumkin.

O‘zbekiston davlatining xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga maqsadli kirib borishi va unda mustahkam o‘rin egallashi ko‘p jihatdan chet el sarmoyalarini samarali jalb etishga hamda jahon andozalari talablariga mos keluvchi infratuzilma muassasalarini rivojlantirishga bog‘liqdir.

Zamonaviy bozor sharoitida asosiy maqsad – katta foyda olish yo‘li bilan ishchi va xizmatchilarning moddiy va ma’naviy turmush darajasini ko‘tarish maqsadida faoliyat ko‘rsatadigan har bir xo‘jalik yuritish subekti, u yoki bu muammoni hal etishda infratuzilmaning qaysi muassasasi yoki tashkiloti bilan munosabatda bo‘lishini aniq belgilashlari uning asosiy, vakolat va vazifalarini bilishlari muhim rol o‘ynaydi.

Infratuzilmani rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ana shunda infratuzilma tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashib boradi va jamiyatdagi muammolarni hal qilib

turadi. Masalan, bir vaqtning o‘zida infratuzilma ishga qobiliyatli odamlarni ham, voyaga yetayotgan mehnatga yaroqli yoshlarni ham ish bilan ta’minlab boradi.

Infratuzilma ko‘p variantli hisoblanadi, u qotib qolgan shaklda emas, balki harakatchan bo‘ladi. Shuning uchun ham, bizning fikrimizcha, investitsiyalashning xohlagan usuli, mulkning xohlagan shakli asosida uni rivojlantirish bo‘yicha turli usullarni yaratish mumkin.

Shu nuqtai nazardan ham, ishlab chiqarish infratuzilmasi majmuasini, uning turlari va shakllarining muhim belgilari hamda xususiyatlarini tasniflash, alohida unsur va yo‘nalishlarini o‘rganish ishlab chiqarish jarayoni rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Shunga ko‘ra, ilmiy manbalarda hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tiladi:

- transport;
- aloqa va kommunikatsiya;
- yoqilg‘i-energetika;
- moliyaviy infratuzilma;
- kommunal xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi.

Tovarlar, ishchi kuchi hamda moliyaviy vositalarning milliy chegaralar orqali to‘xtovsiz o‘sib boruvchi harakati hozirgi davrga kelib jahon infratuzilmasining rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtirishga zamin yaratdi. Natijada iqtisodiyotning globallashuvi yuzaga keldi.

Bu esa milliy iqtisodiyot rivojlanishida ishlab chiqarish infratuzilmalarini tashkil etish va rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantirdi. Natijada quyidagi infratuzilmalarni rivojlantirish davlatning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Sotsial infratuzilma – funksional jihatdan aholining farovon yashashini ta’minlaydigan sohalar va korxonalar majmuasi.

Transport infratuzilmasi – transportning sohalar va korxonalar majmuasi.

Muhandislik infratuzilmasi – binolar va inshootlarning

muhandislik-texnik ta’minoti tizimi.

Iqtisodiy infratuzilma – ishlab chiqarishga va umuman xo‘jalik faoliyatga xizmat ko‘rsatadigan sohalar va faoliyat turlari majmuasi.

Axborot infratuzilmasi-sohalarning faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan axborot tashkiliy tuzilmalar tizimi.

Moliyaviy infratuzilma – ob’ektlar va alohida inshootlarning tizimi.

Transport infratuzilmasi tizimning sohalar va korxonalar majmuasi bo‘lib, yuk va yo‘lovchilar tashishni va ularning amalga oshirilishini hamda ularga xizmat ko‘rsatilishini ta’minlaydi.

Jamiyat rivojlanishining muhim jihati – insonlarning kommunikatsiyalarga va aloqa bog‘lashga intilishi bilan ifodalanadi. Shuning uchun harakatlanish imkoniyatlari insoniyat rivojlanishi uchun o‘ta muhim ahamiyatga egadir.

Odamlar va tovarlar harakatlanishi – transport xizmatini taqdim etuvchi korxonalarning o‘z funksiyalarini bajarishi etish orqali amalga oshadi. Uning rivojlanishi har bir hududning rivojlanish darajasini ifodalaydi. Ushbu qoida kichik qishloqlardan tortib, ulkan hududlarga ham taalluqlidir.

Muhandislik-texnik ta’minoti tarmoqlari (kommunikatsiyalari) iste’molchi-larni (aholi, kommunal-maishiy va sanoat korxonalari) me’yoriy faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan tizimlar va kommunikatsiyalar majmuidir.

Muhandislik infratuzilmasi tizimi quyidagilardan iborat:

- elektr ta’minotining tashqi tarmoqlari (elektr uzatish tarmoqlari, transformator va tortish pastki stansiyalari va hokazolar);
- elektr ta’minotining ichki tarmoqlari (kuchlanishi 380 V gacha bo‘lgan uy-joylar tizimi);
- issiqlik ta’minotining tashqi tarmoqlari (shaharlar va tumanlar issiqlik tizimlari, issiqlik punktlari);
- issiqlik ta’minotining ichki tarmoqlari (bino va inshootlarning issiq suv va issiqlik ta’minoti tarmoqlari);
- suv ta’minoti va suvni qochirishning tashqi tarmoqlari (suv ta’minoti manbalari, gidrotexnik inshootlar, suv va oqova suvlarini

tozalash stansiyalari, kollektorlar, nasos stansiyalari, mavzelarning ichki tarmoqlari);

- suv ta’minoti va suvni qochirishning ichki tarmoqlari (bino va inshootlarning suv ta’minoti va suvni qochirishning tarmoqlari);
- shamollatish va havoni konditsionerlash tizimlari (jamoat va turar-joy binolari hamda inshootlarini, muhandislik ta’minoti ob’ektlarini shamollatish va havoni konditsionerlash tizimlari);
- tashqi yoritish tarmoqlari (ko‘chalarni, yo‘llarni, vitrinalarni, stendlarni yoritish va ularga aloqador 10 kv va undan past kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari);
- gaz ta’minoti tarmoqlari (gaz taqsimlash punktlari, bosimni maromlash moslamalari, filtrlar, saqlash klapanlari, hisoblagichlar, gaz uzatgichlar va hokazolar);
- tashqi aloqa tarmoqlari;
- ichki aloqa tarmoqlari (telefon tarmoqlari, kabellar tizimi, avtomatik dispetcherlik boshqaruvi tizimi va hokazo).

Ishlab chiqarish infratuzilma tizimi faoliyatini tahlil etish, baholash hamda istiqbollarini belgilab borish bevosita milliy korxonalarni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Shuning uchun har yili mamlakat miqyosida mavjud infratuzilma faoliyati taqqoslama o‘rganilib, mavjud muammolar hal etilib boriladi.

2.2. Kichik sanoat zonalari infratuzilmasining huquqiy asoslari

O‘zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida tadbirkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, bu sohadagi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Tadbirkorlik faoliyatlari ichida sanoat ishlab chiqarishi − markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Chunki, u orqali jamiyatning iqtisodiy boyliklari harakatlanadi. Shu bois, mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish borasida talay ishlar qilindi. Bularning bari mamlakatimiz iqtisodiyotini yuqori darajaga olib chiqishga qaratilgan.

Sanoat – iqtisodiyotning moddiy ne’matlar ishlab chiqaruvchi asosiy tarmog‘i hisoblanib, u bir tomondan ishlab chiqaruvchilarga

(ishlab chiqarish qurollarini yaratish orqali) xizmat qiladi, ikkinchi tomondan aholi uchun iste'mol tovarlari ishlab chiqaradi, uchinchi tomondan davlatga xizmat qiladi.

Sanoat ishlab chiqarishi insoniyatning tadbirkorlik faoliyatlari ichida markaziy o'rinni egallashi tarixdan ma'lum bo'lib, hozirgi zamonda mazkur soha yangi ilmiy-amaliy yo'nalishlarning misli ko'rilmagan darajada rivojlanishiga asos bo'lmoqda.

Davlat zimmasidagi asosiy funksiyalardan biri - bu tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini yaratishdir. Chunki, huquqiy asoslanmagan iqtisodiyot va xatto butun jamiyat normal rivojlana olmaydi.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, ular faoliyatiga ma'muriyatning aralashuvini cheklash hamda sog'lom raqobatchilik muhitini yaratishga qaratilgan qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilingan

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish hamda sog'lom raqobatchilik muhitini yaratishga qaratilgan qonunlar: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992 yil 8 dekabr), Mulkchilik to'g'risida (1990 yil 31 oktyabr), Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida (1991 yil 19 noyabr), Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida (1993 yil 28 dekabr), Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (1996 yil 26 aprel), Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida (1997 yil 30 avgust), Reklama to'g'risida (1998 yil 25 dekabr), Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida (2000 yil 25 may), Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida (2001 yil 30 avgust), Xususiy korxonalar to'g'risida (2003 yil 11 dekabr), Raqobat to'g'risida (2012 yil 6 yanvar), O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi to'g'risida , 2018 yil 3 dekabr), Standartlashtirish to'g'risida, 2022 yil 3 noyabr va boshqalar

O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi to'g'risida

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari” to‘g‘risidagi qonunida: “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat”[12], deb qayd etilgan.

Tadbirkorlik, ko‘pchilik iqtisodiyotchi olimlar fikricha, har qanday sohada ham eskicha yondashish chegarasini buzib o‘tish, ya’ni imkoniyatlarni izlash, sarmoya (kapital) sarflashni yangi yo‘nalishlarini topish, yangi texnika-texnologiyani qo‘llash jarayonini ifodalaydi. Ana shu fikrga asosan, tadbirkorlikni faqat foyda olishga qaratilgan faoliyat emas, balki kengroq ma’nodagi jamiyatning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining bo‘g‘inlarida uzluksiz yangilanib turadigan shaxsiy, sotsial guruh va jamiyat ehtiyojlaridagi o‘zgarishlarni anglash va ular talabini qondirishga yo‘naltirilgan inson faoliyati deb tushunish mumkin. Shuning uchun tadbirkorlik insonlar faoliyatining barcha sohalariga mansub jarayon bo‘lib, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Sanoat ishlab chiqarishidagi tadbirkorlikga sotsial-ijtimoiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi inson faoliyati deb qaralsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki sanoat ishlab chiqarishidagi tadbirkorlik faoliyati orqali jamiyat iqtisodiy boyliklari harakatlanadi, ishlab chiqarishdagi yangiliklar rag‘batlantiriladi, iste’molchilarning yangi didi va dunyoqarashi shakllanadi, moddiy va ma’naviy ehtiyojlari qondiriladi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga kuch-quvvat bag‘ishlanadi.

Faqat sanoat ishlab chiqarishidagi tadbirkorlik yuqori darajaga erishsagina, mamlakat iqtisodiyoti barqarorlashadi, mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan sarf-xarajatlar to‘la qoplanadi, korxonalar foyda oladi, soliqlar vaqtida to‘lanadi, berilgan ish haqqi va transfert to‘lovlar banklarga qaytib tushadi, yangi investitsiyalarga imkoniyat yaratiladi.

Ma’lumki, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi munosabati bilan

[12] Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари” тўғрисидаги қонуни, 2000 йил 25 май, 3 модда.

tadbirkorlik sohasida raqobat muhitini shakllantirish borasida amaliy ishlar qilindi va davom ettirilmoqda. Tabiiyki, mamlakatimizda ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish va ular faoliyatini tartibga solish davlat zimmasida.

Umumiy ko‘rinishda davlat tomonidan tartibga solish vazifalari qatoriga tadbirkorlar faoliyatini tashkil etishning huquqiy asosi va ularning huquqlarini himoya qilish, korxona faoliyatiga hokimiyat organlarining aralashuvini cheklash, sog‘lom raqobatchilik muhitini yaratish, ishbilarmonlikni rag‘batlantirish, moliyaviy, soliq va investitsiya siyosati yordamida tovar-pul va byudjet muvozanatini ta’minlash, monopoliyaga qarshi kurash, mehnat qonunchiligiga rioya qilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni kiritish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning huquqlarini belgilab beradi va mamlakat hududida mulkchilik munosabatlarini tartibga soladi.

“Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi”[13].

“Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas”[14].

Mulk iqtisodiy kategoriya sifatida har qanday jamiyatda ishlab chiqarish munosabatlarining asosini tashkil etadi va ularning

[13] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси(янги таҳрирда), 41 модда.
[14] Ўша манба, 65 модда.

xususiyatlarini belgilab beradi.

“O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o‘sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo‘lishiga ruxsat beriladi”[15].

Hozirgi kunda “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish” qonunini qabul qilish yo‘li bilan iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish, sertifikatsiya, metrologiya va standartlashtirish sohasida sanoat ishlab chiqarishini davlat tomonidan nazorat qilish qoidalari belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 7 iyuldagi Farmoni asosida tashkil etilgan O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, biznes muhitini takomillashtirishga, mamlakatimiz tadbirkorlarining xorijiy hamkorlar bilan ishbilarmonlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishga, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahulotlar va xizmatlarni tashqi bozorlarga faol siljitishga, raqobatbardosh tayyor mahsulotni ishlab chiqarishni ta’minlovchi ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirishga va zamonaviylashtirishga ko‘maklashishi kerak. Shu sababli Savdo-sanoat palatasining salohiyatidan unumli foydalanish mamlakatimizda tadbirkorlikni, birinchi navbatda, kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan kichik va xususiy biznesni jadal rivojlantirishga ko‘maklashadi, haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantiradi.

2011 yilning 7 yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida"gi qarori qabul qilindi va unda xususiy tadbirkorlar (yakka tartibdagi tadbirkorlar) yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati tasdiqlandi. Ushbu Qarorga muvofiq, 2011 yilning 1 aprelidan boshlab jismoniy shaxslar mazkur ro‘yxatga kiritilmagan faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin emas.

[15] Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги қонуни, 1990 йил 31 октябрь.

Mamlakatimizda kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan kichik va xususiy biznesni yanada rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulki ob’ektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga sotish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2014 yil 3 iyuldagi PQ-2200 sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zarar ko‘rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan hududlarini hamda ortiqcha ishlab chiqarish maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2014 yil 15 iyundagi 192-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 31 dekabrdagi “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 378-sonli qarori kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishga huquqiy zamin yaratdi.

Ularda quyidagi chora-tadbirlar belgilangan edi:

- kichik sanoat zonalarida kichik va xususiy biznes sub’ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari, shuningdek, tijorat banklari va boshqa moliya tashkilotlarining kreditlari asosida amalga oshiriladi;
- kichik sanoat zonalaridagi ob’ektlar tadbirkorlarga tanlov asosida berilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrda “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” Farmoni qabul qilindi.

Bu Farmon eng avvalo, xususiy mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yo‘naltirilgan va ushbu sohada davlat siyosatining sifat jihatidan yangi darajaga o‘tishidan dalolat beradi. Xususan, Farmon kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga aralashuvni tubdan qisqartish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi

olinishini ta’minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilmaslikni eng muhim ustuvor yo‘nalish va davlat organlarining birinchi darajali vazifasi sifatida mustahkamlaydi.

Ushbu maqsadlarda davlat organlariga, eng avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi tuzilmalarga:

- o‘z faoliyatida belgilangan talablarning hamda tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi tamoyilining so‘zsiz amalga oshirilishini ta’minlash, shu munosabat bilan o‘z vazifalarini va vakolatlarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish;
- tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik va to‘sqinlik qilganlik, ularning faoliyatini asossiz to‘xtatib qo‘yganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalari talablari qat’iy bajarilishini, shuningdek, tadbirkorlik sub’ektlariga yetkazilgan zararning bevosita aybdorlardan undirilishini ta’minlash topshirildi.

Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida qonunlar ijrosi ustidan Parlament nazorati shakllarini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida “Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil instituti” tashkil etilgan.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu institut tadbirkorlik sub’ektlarini huquqiy himoya qilishni ta’minlashda, davlat tuzilmalari bilan munosabatlarda ularning manfaatlarini ifodalashda muhim o‘rin tutadi.

Farmon qoidalarini amalda ro‘yobga chiqarish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash borasida beshta eng ustuvor soha bo‘yicha 42 ta aniq chora-tadbir amalga oshirilishini nazarda tutuvchi Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

So‘ngi ikki yil maboynida mamlakatimizda xususiy mulkni ishonchli himoya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ta’minlash borasida qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Tadbirkorlik tuzilmalariga davlat xizmatlari ko‘rsatish sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini tubdan oshirishga doir kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar ko‘rildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 fevraldagi “Tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2750-son qaroriga binoan tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlari ko‘rsatishning sifati va oshkoraligini, ulardan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish, tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish hamda joylarda xalq bilan bevosita muloqotning samaradorligini ta’minlash maqsadida tuzilgan “Yagona darcha” markazi kabi institutlar davlat xizmatlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda hamda davlat organlarining tadbirkorlik tuzilmalariga o‘z vaqtida ko‘maklashishga doir faoliyati samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda.

Qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlar davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida sansalorlik, byurokratik to‘siqlar va rasmiyatchilik holatlari vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslikka, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash orqali ularning sifati va samaradorligini tubdan oshirishga qaratilgan.

Banklar va kredit byurolari, ularning filiallari va vakolatxonalaridan tashqari barcha tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish “Yagona darcha” markazlari zimmasiga yuklatildi. Bunday chora tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning mavjud tarqoq tizimi o‘rniga yangi, yaxlit tizimni yaratishga qaratilgan.

“Yagona darcha” markazlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 16 turdagi ruxsatnomalarni boshqa idoralarga bormasdan rasmiylashtirish amaliyoti sansalorliklarning oldini olishga, tadbirkorlik sub’ektlarining vaqti va moddiy sarf-xarajatlarini tejashga ko‘maklashdi.

Ana shunday ijobiy amaliyotni yanada kengaytirish maqsadida qarorda talab eng yuqori bo‘lgan qo‘shimcha 86 turdagi litsenziya va

ruxsatnomalarni “Yagona darcha” markazlari orqali rasmiylashtirish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutilmoqda.

Endilikda tadbirkorlik sub’ektlari yuqoridagi litsenziya va ruxsatnomalarni olish uchun boshqa idoralarga bormasdan, ularni aniq muddatlarda beradigan “Yagona darcha” markazlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bugungi kunda “Yagona darcha” markazlari barcha zarur kelishish tartib-taomillarini tadbirkorlik sub’ekti ishtirokisiz mustaqil amalga oshirishmoqda.

Mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar va qonun osti hujjatlarning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkamhuquqiy asos, balki amalga oshiralayotgan bozor isloxotlarning ortga qaytmasligining kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim istiqbollari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab olinar ekan, ichki ehtiyojning o‘sishiga alohida e’tibor qaratish kerak. Iste’mol talabini kengaytirish maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to‘lashni yanada oshirish, xizmat ko‘rsatish sektorini, infratuzilma ob’ektlarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e’tibor berish lozim.

Iqtisodiyotning kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan kichik va xususiy biznesni rivojlantirishni rag‘batlantirish, iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalar bilan savdo korxonalari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash va shu asosda ichki iste’mol bozorini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan to‘ldirishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 yanvardagi 29-son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 oktyabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3356-son qarorini bajarish yuzasidan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida Nizom”ni, shuningdek, 2020 yil 9 martadagi 134- son qarori bilan

“Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” qarori tasdiqladi.

Farmonda belgilangan chora-tadbirlar tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatining samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Davr talabidan kelib chiqgan holda qonunlar va qonun osti hujjatlarni takomillashtirib borishga zaruriyat tug‘iladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek: “Iqtisodiyotmizni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish ... bo‘yicha qator qonunlar, farmon va qarorlar, puxta o‘ylangan dasturlar qabul qilindi va ular izchil amalga oshirilmoqda”[16].

2.3. Kichik sanoat zonalarining elektr energiya va transport xizmatlaridan foydalanishini tashkil etish

Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida iqtisodiy islohotlar davom etmoqda. Ko‘pgina tarmoqlar davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiy mulk shakliga o‘tmoqda.Ammo, sanoat korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish infratuzilmalari obektlaridan bir qancha yirik tarmoqlar davlat tasarrufida qolgan bo‘lib, bular qatoriga elektr uzatish, yo‘l xo‘jaligi, asosiy transport xo‘jaligi va boshqa shu kabi tarmoqlar kiradi.

Bu tarmoqlar rivojlangan davlatlardagi kabi davlat tasarrufida bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolishi kerak. Chunki bozor munosabatlari sharoitida bunday yirik tarmoqlar sanoqligina bo‘lgani uchun ular xususiylashtirilsa, yirik monopolistlar paydo bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi kabi sanoat ishlab chiqarishida ham elektr energiyasi bilan ta’minlanganlik va undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, Sanoat ishlab chiqarishida

[16]Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.- Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018, 8 бет.

elektr energiyasi asosan yoritish, texnik vositalarni harakatlantirishga va boshqalar uchun ishlatiladi.

2.3.1-jadval ma’lumotlarining guvohlik berishicha, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi hajmi yildan-yilga ortib bormoqda: 2021 yili 2018 yilga nisbatan 1,1 barobar ko‘p elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. O‘rganilayotgan davrda elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi manbalarda hosil bo‘lgan resurslar hajmida ham o‘zgarishlar ro‘y bermoqda: issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi hajmi 4,1 foizga o‘sgan bir paytda, gidro elektr stansiyalarida ishlab chiqarish hajmi 15,3 foizga pasaygan, boshqa manbalar (qo‘yosh, shamol elektr stansiyalari)da ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi 2020 va 2021 yillarda keskin oshgan.

2.3.1-jadval

Elektr energiya ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlarning asosiy ko‘rsatkichlari[17]

Ko‘rsatkichlar	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2021 yilning 2018 yilga nisbati, foizda
Elektr energiya ishlab chiqarish, mlrd.kVt-soat	62,9	63,5	66,5	71,4	113,5
Shu jumladan ishlab chiqarilgan:					
-issiqlik elektr stan-siyalarida	55,5	55,1	54,4	57,8	104,1
-gidro elektr stansiya-larida	5,9	6,5	5,0	5,0	84,7
-boshqalarda	1,5	1,9	7,1	8,6	573,3

“Ayrim manbalarda keltirilishicha O‘zbekiston uglevodorod yonilg‘isi resurslarining salmog‘i 2,2-5,1 mlrd.tn.e. bo‘lib, shu

[17] O'zbekiston raqamlarda − T:. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, 2020,152 bet. O'zbekiston raqamlarda 2020-2021. − T:. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, 2022,142 bet.

jumladan 82-245 mln.tn.e. neft, 1476-1979 mln.tn.e. tabiiy gaz va 639-2851 mln.tn.e. ko‘mirni tashkil etadi.

Iqtisodiyotning taraqiyoti natijasida, ushbu zahiralar, ekspertlar fikricha o‘rtacha neft 10-12, tabiiy gaz – 28-30, ko‘mir esa – 50 yildan ko‘proq muddatga yetishi mumkin[18].

Demak, kelajakda mamlkatimiz elektr energiya ishlab chiqarishda muammolarga duch kelishi tayin. Shu sababdan, an’anaviy uglevodorod yoqilg‘isi o‘rnini bosa oladigan muqobil energiya manbailarini ishga tushirish zarur bo‘ladi. Har qanday energiya manbai muqobil energiya vositasi bo‘lishi mumkin”[19].

“Kelajakda energiya taqchilligi tufayli energiya masalasida O‘zbekistonning qaysidir davlatga bog‘liq bo‘lmaslikning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- energiya resurlaridan (asosan uglevodorod yonilg‘ilar qo‘llaniladigan tizimlarda ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, issiqlik mashinalari termik foydali ish koeffitsienti oshirish, zamonaviy vositalar va texnologik qurilmalardan) samarali foydalanish;
- ikkilamchi energiya resurlaridan – ishlatilgan gazlar issiqligidan, bug‘ turbinalari sovutish tizimida qo‘llaniladigan sovutish agentlaridan va boshqalardan foydalanish;
- qayta tiklanuvchi va muqobil energiya resurlaridan samarali foydalanish.

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi va muqobil energiya resurlari asosan noan’anaviy energiya resurslari turkumiga kiradi:

- kichik gidroenergetik resurslar (10 MVt);
- geotermal manbalar;
- quyosh energiyasi;
- shamol energiyasi;
- sanoat va xo‘jalik chiqindilari;

[18] Ёқилғи ва èниш назарияси асослари. Иссиклик энергиясининг манбалари. https://staff.tiiame.uz › users › presentations

[19] Шавқиев Э. “Саноат иқтисодиёти”: Ўқув қўлланма. – Самарқанд: – “STAP-SEL” MChJ. nashriyot-матбаа бўлими, 2022, 177 бет.

- biomassalar va boshqalar”[20].

Sanoat ishlab chiqarishini elektrlashtirishning samaradorligini aniqlash uchun boshlang‘ich ko‘rsatkichlar kuyidagilar hisoblanadi:

- natural va pul hisobida mahsulotlar ishlab chiqarish;
- stanoklar va dvigatellar, elektr apparatlari, qurilmalar soni va quvvati, elektrlashtirish vositalari (podstansiyalar, elektr uzatish tarmoqlari, mexanizmlar)ning qiymati, butun xo‘jalik sohalari bo‘yicha yillik iste’mol qilinadigan energiya, 1 kVt kuvvatining qiymati, xizmat ko‘rsatuvchp xodimlar soni, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun elektrlashtirshigacha va elektrlashtirilgandan keyingi mehnat sarfi, xo‘jaliklarining elektr bilan ta’minlanganligi ishlab chiqarish jarayonlarini elektrlashtirish imkoniyatlarini xarakterlaydi.

Elektr uzatish tarmoqlari va tarqatuvchi hamda ishlab chiqaruvchi ob’ektlar qurilishi qanchalik mustahkam va kafolatli darajada bo‘lsa, nafaqat kichik sanoat zonalari, balki, iqtisodiyotning barcha sohalari samarali faoliyat ko‘rsatishi ta’minlanadi. Bu tarmoqning sanoatdagi o‘rni juda muhimligi shundaki, u birinchidan, ishlab chiqarish vositalarining uzluksiz ishlashi, ikkinchidan, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini omborxonalar va sovutgichlarda buzilmasdan saqlanishini ta’minlaydi. Demak, elektr uzatish tarmog‘i sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda ular hajmi va sifatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Energetika resurslari tarknbida elektr energiyasi asosiy o‘rinnii egallaydi. Sanoat ishlab chiqarish jarayonini elektrlashtirish korxonalarning xo‘jalik faoliyatini keskin rivojlanishiga olib keladi.

Sanoat ishlab chiqarishini to‘la elektrlashtirish mehnat unumdorligini oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytiradi.

Elektr stansiyalarini qurish elektr energiyasi bilan ta’minlash xarajatlarini qoplash muddatini qisqartiradi, aholining turmush sharoitini yaxshilaydi. Sanoat zonalarini elektr energiyasi bilan to‘la ta’minlash ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilaydi va ishchi kuchiga bo‘lgan talabni kamaytiradi.

[20] Шавқиев Э. “Саноат иқтисодиёти”: Ўқув қўлланма. – Самарқанд: – “STAP-SEL” MChJ. nashriyot-матбаа бўлими, 2022, 179-180 бетлар.

Elektr energiyasidan foydalanish aholining moddiy va madaniy farovonligini oshirishda, qishloq madaniyatini shahar madaniyatiga yaqinlashtirishda katta rol o‘ynaydi.

Sanoatda elektr energiyasidan samarali foydalannsh quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, 1 kishi-soatga to‘g‘ri keladigan sof daromad, 1 so‘mlik ishlab chiqarish sarfiga olingan daromad, rentabellik darajasi, qo‘shimcha sarflangan kapital mablag‘ning qaytish muddati.

Elektr energiyasidan foydalannsh nafakat mehnat unumdorlignni oshirib, mahsulot tannarxini kamaytiribgina qolmay, balki sotsial-iqtisodiy va ishlab chiqarish sharoitlarining ham yaxshilanishiga olib keladi.

Sanoat ishlab chiqarshida va aholi punktlarida elektr energiyasidan tejab foydalanish har bir sanoat korxonasi va butun mamlakat katta iqtisodiy samara beradi. Chunki hozirgi vaqtda ko‘pchilik sanoat korxonalari markazlashtirilgan davlat energiya tizimiga ulangan.

Sanoat korxonalarida elektr energiyasidan tejab foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgai ishlar hajmini aniqlash uchun yil bo‘yi elektr energiyasidan foydalanish joriy reja tuziladi. Buning uchun butun sanoat va uning ayrim tarmoqlari bo‘yicha elektr energiyasiga bo‘lgan yillik talab aniqlanadi. Bunday ishlab chiqarish jarayonlaridan tashqari, kommunal-maishiy, madaniy-oqartuv muassasalari, aholi sarflaydigan elektr energiyasini ham hisobga olish kerak. Agar kichik sanoat zonalar territoriyasiga yaqin yashaydigan xonadonlar, madaniy-maishiy muassasalar, hammom, meditsina tashknlotlari va boshqalar elektr ensrgiyasidan davlat elektr tarmog‘idan olsalar schetlik orqaln korxonaning elektr eiergiyasiga bo‘lgan yillik talabni aniqlashda hisobga olinmaydi.

Sanoat korxonalarining elektr energiyaga bo‘lgan yillik talabini aniqlash uchun avval har bir sex va bo‘limlar bo‘yicha talab aniklanadi. Yoki bo‘lmasa elektr energiyaga bo‘lgan talab, energiya iste’molchilari bo‘yicha (elektr bnlan ishlaydigan jami mashina va mexanizmlar, qurilmalar, ishlab chiqarish va jamoat binolari) aniqlanadi.

Hisoblash ikki yo‘l bilan:

Har bir kvadrat metrni yoritishga, har bir elektr dvigateliga, har bir isitkich pribor yoki elektr quvvatini hisoblab, bir-biriga qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi. Bunday hisoblash ancha murakkab bo‘lib, ko‘p vaqt ketadi, lekin hisob ancha aniq bo‘ladi.

Umumlashtirilgan holda: bir xonodonga, birlik mahsulot ishlab chiqarish yoki qayta ishlashga, sexlarda bitta stanok, bir kub taxtani ishlashga va xokazolar bir yilda o‘rtacha qaicha elektr energiya talab qilinishi aniqlanadi.

Hisoblanish formulasi quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

$$R= R1+ R2 + R3 +$$

R – korxona bo‘yicha elektr energiyasiga talab (kVt);

R,' – sex,

R., – sex va hokazolar bo‘yicha talab.

Bu yerda shuni hnsobga olish kerakki, korxonadagi barcha chiroqlar, elektr uskunalari va dvigatellar bir vaqtda ishlaydi. Shuning uchup Rm ni talab koeffitsientiga (Kt) ko‘paytnrilib haqiqiy talab annqlanadn.

$$R = Rm * Kt$$

Haqiqiy talabga korxona ichidagi elektr tokining yo‘qotilishini ham qo‘shsak, korxona bo‘yicha qanday quvvatga ega bo‘lgan transformator o‘rnatish kerakligini aniqlaymiz.

Korxona bo‘yicha yoki korxonaning biron uchastkasiga qandaydir transformator o‘rnatish kerakligi quyidagi formula shaklida aniqlaiadi:

$$R = (Rn * Ry) * KtKkvt$$

R – transformator quvvati;

Rn – belgilangan norma bo‘yicha talab;

Ry – tarmoqda tokning yo‘qotilishi;

Kt – talab koeffitsienti.

Ma’lumki, moddiy ishlab chiqarish to‘rt sohadan: qazib oluvchi; ishlab beruvchi; sanoat; qishloq xo‘jaligi va transportdan tashkil topgan. Transportning boshqa ishlab chiqaruvchi sohalardan farqi shundaki, u yangi mahsulot yaratmaydi, balki ishlab chiqarilgan

moddiy boylikni iste’molga yetkazadi.

Transport yordamida sohalar, soha ichidagi tarmoqlar, tarmoq ichidagi korxonalar bir-biri bilan bog‘lanib, ishlab chiqarish jarayoni maromida borishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Transport ishlab chiqarish bilan iste’mol o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi. Ish kuchi, mehnat qurollari va mehnat buyumlarini bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib, jami ists’mol mahsuloti ko‘lamiga ta’sir ko‘rsatadi.

Transport vositalarn yordamida moddiy boyliklar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilishi natijasida iste’molgacha yaqinlashadi, iste’mol qiymatining tashkil topishi tezlashadi. Transport vositalarining o‘ziga xos xususiyatlari, ulardan moddiy boylik ishlab chiqarishning hamma sohalarida keng ko‘lamda foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Transport vositalaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun sarflanadigan vaqtni qisqartiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, mahsulot tannarxini kamaytiradi.

Transport vositalaridan unumli foydalanish sanot korxonalari atrofida yo‘llar qurish, ularning yuk tashish qobiliyatini oshirish, ta’mnr ishlarini muntazam ravishda olib borish, yo‘l xo‘jaligi ixtiyoridagi texnikani takomillashtirish va ulardan unumli foydalanish demakdir. Kuzatishlar avtomobilning yuk ko‘tarish qobiliyati qattiq qoplamali yo‘llarda qattiq qoplamasiz yo‘llardagiga nisbatan 25-80 foizga, tezligi 2-3 marta oshishini, yonilg‘i sarfini esa 2 marta kamayishini ko‘rsatadi. Shuning uchun kichik sanoat zonalari aro va sanoat zonalari ichidagi yo‘llarni rekonstruksiyalash va o‘z muddatida ta’mirlash, yo‘l qurilishini kengaytirish va sanoat korxonalarini yanada intensiv rivojlantirish uchun real sharoitlar yaratadi.

Sanoat ishlab chiqarishida transport vositalaridan foydalanish iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- turli xil transport vositalari talab etiladi;
- mavsumiy sanoat ishlab chiqarish korxonalarida yuk tashishi yil mobaynida bir me’yorda amalga oshirib bo‘lmaydi. Ayrim hollarda katta miqdordagi yuklarni qisqa vaqt ichida tashish zarurati paydo bo‘ladi;

- tashiladigan yuklar turli, hajmi, xususiyatiga ko‘ra har xildir;
- yuk tashish masofasi har xil bo‘ladi.

Sanoat korxonalarida transport vositalaridan foydalanishning bu xususiyatlari sanoat mahsulotlari tannarxida transport xarajatlari miqdorining oshishiga olib keladi. Hnsob-kitoblarga ko‘ra, mahsulot tannarxida transport xarajatlari 30-40 foizini tashkil etadi. Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida tashiladigan yuklarning aksariyati avtomobil transportiga to‘g‘ri keladi. Korxonalar ichida tashiladigan yuklarning ko‘p qismi esa traktor transportlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Sanoat ishlab chiqarishida havo va suv, temir yo‘l transportidan ham foydalanilmoqda.

2.3.2-jadval

O‘zbekistonda transport turlari bo‘yicha yuk tashish va yuk aylanmasi[21]

Ko‘rsatkichlar	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2021 yilning 2018 yilga nisbati, foizda
Tashilgan yuklar, mln.t.	1243,5	1319,8	1366,7	1420,2	114,2
Shu jumladan transport-larda:					
Temir yo‘l	68,4	70,1	70,6	72,0	105,3
Avtomobil	1102,2	1177,7	1238,2	1282,0	116,3
Quvur yo‘li	72,4	71,9	57,9	66,2	91,4
Havo yo‘li, ming	13,1	10,4	5,3	9,1	69,5
Yuk aylanmasi, mlrd.t-km	71,3	72,6	66,9	74,8	104,9
Temir yo‘l	22,9	23,4	23,6	24,6	107,4
Avtomobil	14,6	15,9	16,2	19,1	130,8
Quvur yo‘li	33,6	33,2	26,8	30,8	91,7
Havo yo‘li, ming	123,5	119,0	219,0	303,5	245,7

[21] O'zbekiston raqamlarda − T:. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, 2020,197 bet.
O'zbekiston raqamlarda 2020-2021. − T:. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, 2022,187 bet.

2.3.2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2018-2021 yillarda yuk tashish va yuk aylanmasi hajmlari, mos ravishda, 14,2 va 4,9 foizga oshgan. Transport turlari orasida avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi doimiy o‘sish tendensiyasiga ega. Havo yo‘li transportida esa yuk tashish hajmi 2021 yili 2018 yilga nisbatan 30,5 foizga pasaygan, ammo yuk aylanmasi esa qariyb 2,5 barobar ko‘paygan.

O‘rganilayotgan davrda quvur yo‘li bilan yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi, gaz eksportining qisqarishi tufayli, pasayib bormoqda. Temir yo‘l transporti vositasida yuk tashish va yuk aylanmasi jamining doimiy ravishda o‘sib borishi kuzatilmoqda.

Raqobat muhitida sanoat korxonalariga xizmat qiluvchi avtotransport korxonalari o‘z mijozlari, ya’ni yuk egalari yuklarini o‘z vaqtida, sifatli tashilganligi va albatta, tashishlar va boshqa ishlar hamda xizmatlarga belgilangan narxlardan qoniqishlarini ta’minlashga intilishlari lozim.

Hoznrgi kunda har bir korxona o‘zining narx-navo (tarif) siyosatini ishlab chiqadi, chunki tariflar doimo nazorat ostida bo‘lishi, tahlil qilinishi kerak. Zero avtotransport korxonasi tomonidan shunday narx-navo siyosati qo‘llanilishi lozimki, u mijozlarni ham qoniqtirishi, shu bilan birga, korxona foyda bilan ishlashini ham ta’minlashi lozim.

Korxonalar konsepsiyasi nazariyasida narx-navo shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu konsepsiyaning asosiy ma’nosi – korxona faoliyat ko‘rsatishi va eng yuqori foyda olishga intilishidan iboratdir, Binobarin, xar bir korxonada mahsulot bahosini aniqlashga qaratilgan ma’lum ishlar amalga oshirilishi lozim,

Yuk tashuvchi avtokorxonalarda ushbu ishlar, ya’ni yuk tashish, boshqa ishlar va xizmatlarga tariflarni belgilash mutaxassis-menejerlar tomonidan amalga oshirilishi loznm. Narx-navo (tarif)lar yuzasidan uzil-kesil qaror qabul qilishdan oldin menejerlar kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lishlari zarur. Menejerlarni yetarli, haqiqiy va dolzarb ma’lumotlar bilan ta’minlash avtotransport korxonasida boshqaruv hisobi qay darajada yo‘lga qo‘yilganligi bilan belgilanadi.

Avtomobil tashuvlari, boshqa ishlar va xizmatlarga tariflari

belgilash ko‘p omillarni hisobga oluvchi murakkab jarayondir. Narx-navo shakllanishiga ta’sir etuvchi barcha omillarni ikki guruhga tashqi va ichki omillar ajratish mumkin.

Avtotransport korxonalarida tariflarni ishlab chiqish va belgilashda bozor haqidagi ma’lumotlardan (tashqi omil) tashqari xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham hisobga olinishi lozim, Bu borada iqtisodchi-olimlar turli fikrlarni bildirishgan. Jumladan, T.V,Shishkova “„. narx-navoni belgilash to‘g‘risida yakuniy qarorni qabul qilish uchun bozor ahvolni, iste’molchi talablarini yaxshi bilish kerak”, deb e’tirof etadi, Shuningdek, u ta’kidlaganki, “... raqobat mahsulot tannarxini hisoblashni deyarli ma’nosiz qilib qo‘yadi, chunki bu holda narx talab va taklif ta’sirida shakllanadi, haqiqiy tannarx esa, o‘zicha sotish narxiga ta’sir etmaydi. Tannarx asosida ishlab chiqarishni boshqarish, ayniqsa ichki imkoniyatlarni aniqlash mumkin emas”,

Narx-navo shakllanishiga ham tashqi, ham ichki omillar katta ta’sir ko‘rsatadi, Tannarx asosiy ichki omillardan biridir. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharontida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning kalkulyatsiyasi to‘g‘ri tashkil qilinmasa va yo‘lga qo‘yilmasa, korxona muqarrar ravishda inqirozga uchraydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, aksariyat avtokorxonalar avtotransport xizmati bozorini o‘rganmaydilar, nafaqat narx-navoni belgilashga, yakuniy natijalarn bo‘yicha korxona daromadiga ham ta’sir etuvchi boshqaruv qarorlarini qabul qilishga aloqador bo‘lgan marketing izlanishlari bilan ham shug‘ullanmaydilar.

Daromadlarni hisobga olish barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning asosiy vazifalardan biri bo‘lib, xo‘jalik faoliyati (tushum)dan olingan daromadlarni tan olish hisoblanadi.

Transport vositalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi, chunonchi:

- bir tonna kilometr yuk tannarxi ko‘rsatkichi: qilingan xarajatlarni tashilgan tonna, kilometrga bo‘lish yo‘li bilan;
- transport vositlarining soatlik yoki smenalik ish unumi

ko‘rsatkichi: tashilgan tonna kilometr yukning sarflangan vaqtga nisbati bilan;

- mashinaning ishda bo‘lish koeffitsient ko‘rsatkichi: ishda bo‘lgan mashina-kunlari sonini mashnnaning xo‘jalikda bo‘lgan mashina kunlari soniga bo‘lish bilan aniqlanadi.
- mashinaning yuk ko‘tarish koeffitsienti ko‘rsatkichi: umumiy tashilgan yukning yuk bilan bosilgan yo‘lga nisbati bilan aniqlanadi.

Bunda avtomobilning texnik jihatdan tayyorgarlik koeffitsienti, mashinalarni ishga chiqarish koeffitsienti, o‘rtacha ishda bo‘lgan vaqti, sutkalik o‘rtacha yurgan yo‘li, o‘rtacha texnik tezlig‘i, yukni o‘rtacha tashish masofasi, yuk tashnsh mavsumiylik koeffitsienti kabi ko‘rsatkichlardan xam foydalaniladi.

Transport vositalaridan unumli foydalanish va ularning xarajatlarini kamaytirish avtomashina va uni boshqaruvchilarning mehnat unumdorligini oshirish, moylash va yoqilg‘i materiallarini tejab-tergash, joriy ta’mir va joriy qarovlar uchun qilinadigan xarajatlarni tejashga bog‘lik.

III BOB. SAMARQAND VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

3.1. Viloyatda kichik sanoat zonalari infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar va ularning ahamiyati

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – hudud iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hudud sotsial-iqtisodiy muhitining yashovchanligi ko‘p jihatdan hudud infratuzilmasining rivojlanish darajasiga bog‘liqdir.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatdan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo‘yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi – infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur’atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog‘liq.

1. Hudud infratuzilmasi (hududiy infratuzilma) – bu hududda moddiy ishlab chiqarishning samarali faoliyat yuritishi, barcha turdagi tovar va resurslarning erkin harakatlanishi va aholining normal muhitda yashashi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishni ta’minlab beradigan inshootlar va faoliyat turlari kompleksi.

Hududning sotsial-iqtisodiy samaradorligi va uning raqobatdoshligi unda ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajasiga bog‘liqdir.

Hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasining hozirgi zamon bozor munosabatlari tizimidan o‘rni, uning quyidagi uch eng muhim funksiyalari bilan belgilanadi:

- taqsimlash funksiyasi – infratuzilmaning tovar-moddiy zaxiralarni, moliyaviy va mehnat resurslarini tarmoqlar va hudud hududlari bo‘ylab taqsimlanishini ta’minlashdagi qobiliyati;
- kommunikatsion funksiya – mehnat mahsulotlarini (tovar, xizmatlar, axborot va hokazolarni) teng qiymatli ayirboshlashini tashkil etish;
- tartibga solish funksiyasi – turli-tuman hududiy bozorda muvozanatlashgan talab va taklifni tiklash hamda ta’minlash.

Ushbu funksiyalarning rivojlanmaganligi ishlab chiqarish

faoliyatining to‘xtab qolishiga va iqtisodiyotda salbiy holatlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- xizmat ko‘rsatishdagi ahamiyati. Infratuzilmani tashkil etuvchi tarmoqlar yangi moddiy boyliklarni yaratmaydi. Infratuzilmani yaratishga ketgan xarajatlar, u xizmat ko‘rsatayotgan ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning mahsulotlari hisobidan qoplanadi (sanoat, qishloq tarmog‘i va hokazolarning);
- ob’ektlarni joylashtirish zichligining notekisligi. Hudud infratuzilmasi butun hudud bo‘yicha tekis taqsimlanishi mumkin emas. Shu bilan birga, infratuzilma ob’ektlarini joylashtirish darajasi bo‘yicha ko‘proq va kamroq rivojlangan hududlar o‘rtasidagi tafovut umumiy iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha ko‘rsatkichi singari unchalik kuchli emas;
- hududning infratuzilma sig‘imi. Hudud infratuzilmasi muhim darajada hududning iqtisodiy salohiyatini va uning xo‘jalik sig‘imini (qo‘shicha xarajatlarni amalga oshirmasdan yangi korxona va tarmoqlarni qabul qilish qobiliyati) belgilaydi;
- miqdor jihatdan baholashning muhimligi. Infratuzilma ob’ektlarining ko‘pgina qismi miqdor jihatdan baholanadi (quvvati, uzunligi, qiymati, o‘tkazish qobiliyati, hajmi, kuchlanishi va hokazo);
- rivojlanishning kompleksligi. Hudud infratuzilmasi hududlardagi alohida tarmoqlarga emas, balki asosan xo‘jalik komilekslariga butunlicha xizmat ko‘rsatadi, shuning uchun uni rivojlantirishda kompleks yondashuv tarmoqli yondashuvga nisbatan ko‘proq samarali hisoblanadi;
- inersiyaga asoslanganligi. Hudud infratuzilmasida ob’ektlar uzoq muddatni ko‘zlab ishlatiladi, shuning uchun uni rivojlantirish asosan mavjud ob’ektlarni to‘liq saqlagan holda ularda yangi elementlarni barpo etish bilan bog‘liqdir. Bunday inersiyaga asoslanganligi qulay hisoblanadi, chunki infratuzilmani tubdan rekonstruksiya qilish juda katta xarajatlarni amalga oshirishga olib keladi. Shuning uchun hudud infratuzilmasining mavjud tizimlari

istiqbolli infratuzilma tizimlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish infratuzilmasi alohida o‘rin egallaydi hamda uning rivojlanish darajasidan milliy iqtisodiyotning barcha tuzulmaviy elementlari faoliyati samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning majburiy sharti – davlat va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasidagi funksional-moliyaviy vakolatlarni oqilona taqsimlash hisoblanadi.

Davlat hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga ikki yo‘l bilan ta’sir etishi mumkin:

- to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir;
- bilvosita ta’sir.

Davlatning hududlar ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etishda uning asosiy funksiyasi – mahalliy hokimiyat organlariga zaruriy funksional – moliyaviy vakolatlarni topshirish hisoblanadi. Davlatning hududlar ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda bilvosita ta’siri maxsus qonunlar va me’yoriy hujjatlarni qabul qilish, davlat buyurtmalari, davlat imtiyozlarini berish, subsidiyalar va boshqa preferensiyalarni berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Davlat va mahalliy hokimiyat organlarining hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishdagi roli hududiy siyosatni amalga oshirish bilan belgilanadi. Bunday siyosatning asosiy vazifalari – ustuvorli yo‘nalishlarda resurslarning jamlanishini ta’minlash, davlat va mahalliy hokimiyat organlari, fan, tadbirkorlik tuzilmalari va boshqa subektlarning o‘zaro kooperatsiyasi va strategik sherikligi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish hisoblanadi.

Hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni natijadorligi, nafaqat infratuzilmaning hududdagi tabiiy, tarixiy, iqtisodiy, sotsial va boshqa sharoitlarga mosligiga, balki uniboshqarish samaradorligiga ham bog’liq.

Hudud ishlab chiqarish infratuzilmasi davlatning tartibga solish harakatlari ta’siri ostida shakllanadi. U mulkchilik shakliga ko‘ra ikki

qismdan iborat: davlat va xususiy. Ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy qismi davlatga tegishli bo‘ladi va byudjet tomonidan moliyalashtiriladi. Shunday bo‘lsada, ishlab chiqarish infratuzilmasidagi davlat va xususiy sektorlarining nisbati bir tomondan davlat siyosati bilan shakllantirilsa, ikkinchi tomondan bozor subektlarining tadbirkorlik faolligi bilan shakllanadi.

Hudud ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlat siyosatining maqsadi – hudud ishlab chiqarish infratuzilmasi sohasida xususiy biznesni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish, xo‘jalik subektlarning manfaatlarini tartibga solish va kam xarajatli ishlab chiqarishni ta’minlash. Xususiy tadbirkorlar infratuzilma ob’ektlarini rivojlantirishdan bepul va arzon xizmatlar ko‘rinishida foyda olishadi. Bularning barchasi biznesning foydaliligini muhim darajada oshirishga va mamlakatda kapitalning jamg‘arilish sur’atlarini tezlashtirishga imkon beradi.

Mamlakatda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, uni modernizatsiya qilish va yangilash chora-tadbirlarini amalga oshirishning muhim sharti va manbai sifatida faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish zarur. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotganini quyidagi diagrammadan ko‘rish mumkin.

“Iqtisodiyotimizga shu yilning o‘zida 8 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetdi.

Iqtisodiyotimiz barqaror rivojlanishi uchun energetika sohasiga 25-30 milliard dollar investitsiya kerak. Bunga faqatgina xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali erishish mumkin.

Shu bois, so‘nggi uch yilda sohaga 8 milliard dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jalb qilindi. Jumladan, o‘tgan haftada Buxoro, Namangan va Xorazmda quvvati 500 megavattli yana 3 ta quyosh stansiyasini qurish bo‘yicha tanlov yakunlandi. Deputat va senatorlar tomonidan qabul qilingan yangi qonunlar buning uchun huquqiy asos bo‘ldi.

Biz so‘nggi olti yilda investitsiyalar hajmini yalpi ichki

mahsulotning 30 foizidan oshirishga erishdik.

Kelgusi yili qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalb qilinadi, shundan 25 milliard dollar xususiy investitsiyalar bo‘ladi. Jumladan, umumiy qiymati 8 milliard dollarlik 300 dan ziyod loyihani ishga tushiramiz va yana 40 ta yangi yirik loyiha boshlanadi.

Bugun ko‘nglimdagi bir niyatimni sizlarga ochiq aytmoqchiman. Mening katta niyatim – yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlar paydo bo‘lsin. Odamlarimiz o‘z omonatlarini investitsiya qilib, yuqori daromadlarga ega bo‘lsin”[22].

Shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, ularni o‘z mablag‘larini mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi va tartibga solinishi uchun 50 dan ziyod tegishli me’yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lmoqda.

2017-2022 yillarda mamlakatimizda 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonasi tashkil etildi. Ularda 10 trillion so‘mlik mingdan ortiq loyiha ishga tushirilgan, 100 mingdan ortiq ish o‘rni yaratilib, yiliga qo‘shimcha 45 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarila boshlangan. Sanoat zonalaridagi korxonalar yiliga 750 million dollarlik eksport va 1 trillion so‘mdan ziyod soliq tushumlarini ta’minlamoqda.

Keyingi davrda har bir tumanga sanoat kirib bormoqda, olis va chekka hududlarda yangi ishlab chiqarishlar paydo bo‘lmoqda. Samarqand viloyatining shu paytgacha umuman sanoat ishlab chiqarishi bo‘lmagan tumanlarida ham yangi sanoat loyihalari amalga

[22] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.//Халқ сўзи, 2022 йил 21 декабрь

oshirilmoqda.

So‘ngi yillarda Samarqand viloyatida 26 ta kichik sanoat zonasida 5228 ish o‘rniga mo‘ljallangan qiymati 100,8 million dollarlik 208 ta loyiha joylashtirildi. Ularga 330,7 gektar, shundan, 42,6 gektar yer maydonida kommunikatsiya tarmoqlari, 26,4 gektarda muhofaza zonasi, 81,1 gektarda investitsiya loyihalari tatbiq etilyapti hamda loyiha joylashtirish mumkin bo‘lgan 200,5 gektari bo‘sh yer maydoni tashkil etadi. Xususan, Jomboy tumanining Dehqonobod MFYda 5,5 gektar, Toyloq tumani Bog‘izog‘on MFYda 7,30 gektar, Urgut tumani Sariqtepa MFYda 21,50 gektar hamda Payariq tumani “Xalqobod” MTPda 15,50 gektar bo‘sh yer maydonlari yangi sanoat zonalarining faoliyati yo‘lga qo‘yilyapti. Ularda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan, uzluksiz elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi va oqova tarmoqlari, yo‘l infratuzilmalari bilan ta’minlangan.

Kichik sanoat zonalar ishlab chiqarish maydonlarida 2021 yilda 51,8 million dollarlik 96 ta loyiha ishga tushirildi, 2040 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Yaqingacha xorijdan import qilinayotgan mahsulotlar bugun kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilib, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlariga eksport ham qilinmoqda. Misol uchun, 2021 yilda 100 ga yaqin turdagi yengil sanoat, elektrotexnika, mashinasozlik, kimyo, oziq-ovqat, charm-poyabzal, farmetsevtika, qurilish materiallari sanoatiga doir 84,7 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi hamda 8,2 million dollar eksport qilindi. Yana 49 million dollarlik 112 ta loyiha amalga oshirilishi hamda 3 188 nafar yangi ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Viloyatda 5 ta ixtisoslashtirilgan kichik sanoat zonasi tashkil etilgan. Jumladan, Samarqand va Urgut tumanlarida charm-poyabzal, Paxtachi va Nurobodda qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda Past Darg‘om tumanida mebelsozlik sohasida kichik sanoat zonalari faoliyat yuritmoqda.

Ma’lumki, Prezidentimiz raisligidagi yig‘ilishda Samarqand viloyatida 300 gektar maydonda yangi maxsus sanoat zonasi tashkil

etilishi belgilandi. Hozir ana shu maydonlarda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taklif etilayotgan loyihalarni tatbiq etish bo‘yicha ishlar boshlab yuborilgan. Bunda investitsiya majburiyatlari to‘liq bajarilganidan keyin kichik sanoat zonalaridagi ob'ektlarni xususiylashtirishga ruxsat berilganligi qo‘l kelyapti.

Bularning hisobiga sanoat zonalariga loyihalarni joylashtirish jarayonidagi bosqichlar amaldagi 5 tadan 2 taga kamayadi, sarf qilinadigan vaqt 3 oydan 1 oygacha qisqaradi.

Shuningdek, endilikda sanoat zonalaridagi yerlar auksionga direksiyalar tomonidan chiqarilishi belgilanyapti. Bu ham ishlarni jadallatirishga, yangi shaffof tizim yaratilishiga imkon yaratadi. Binobarin, erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshiriladigan loyihalarni ekspertiza qilish, sanoat zonalari bo‘yicha ma'muriy kengashlar vakolatlari Tashqi savdo va nvestitsiyalar vazirligiga o‘tkaziladi. Ana shunday hududlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga imtiyozlarni qo‘llash uchun Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazining xulosasini olish tartibi bekor qilinishi ham belgilandi.

Davlatimiz rahbarining 2021 yil aprel oyida Samarqandga tashrifi chog‘ida viloyat faollari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda bergan topshiriqqa ko‘ra, joriy yilda qo‘shimcha 64 ta yangi kichik sanoat zonasi tashkil etilishi belgilangan. Ularda qiymati 111,3 million AQSh dollarlik bo‘lgan 742 ta loyihani joylashtirish natijasida 978,1 milliard so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarish va qariyb 9 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi[23].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, Samarqand viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning “o‘sish nuqtalari”ni belgilash, sotsial sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada

[23] Юсупов Анвар. Кичик зоналар 90 тага етади (21 июнь 2022 йил). yuz.uz https://yuz.uz › news › kichi...

yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 apreldagi “2022 – 2026 yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 222-sonli Qarorni qabul qildi. Qarorda qayd etilishicha Samarqand viloyatida 2022-2026 yillarda yalpi hududiy mahsulotning hajmi 1,4 barobar o‘sishi va aholi jon boshiga YaHM 23,0 mln. so‘mni tashkil etishi, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 1,5 barobarga ko‘payishi va uning aholi jon boshiga 10,8 mln.so‘mga tenglashishi nazarda tutilgan. Tabiiyki, sanoat mahsulotlari hajmining o‘sishi, amaldagi ishlab chiqarish kuchlari faoliyatining kengayishi va yangi kichik sanoat zonalarida tashkil etilayotgan korxonalar evaziga ta’minlanadi. 3.1.1-jadval ma’lumotlarining guvohlik berishicha, 2022-2026 yillarda viloyatda yangi 88 ta kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi rejalashtirilgan.

3.1.1-jadval

Samarqand viloyatining 2022-2026 yillarda iqtisodiy rivojlanishining ko‘rsatkichlari[24]

		O‘lchov birligi	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2026 yil	**Jami**
1	Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	hajmi, trln. so‘m	58,5	67,2	77,0	88,1	100,1	1,4 baravar
		o‘sish, %	107,1	107,1	107,4	107,8	108,0	
2	Aholi jon boshiga YaHM ishlab chiqarish	mln. so‘m	14,5	16,3	18,3	20,6	23,0	-
3	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	hajmi trln. so‘m	25,3	29,4	34,1	40,1	47,1	1,5 baravar
		o‘sish, %	106,9	106,9	107,8	109,3	108,8	
4	Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	mln. so‘m	6,2	7,1	8,1	9,4	10,8	-
5	Kichik sanoat zonalarini tashkil etish	Dona	17	17	18	18	18	88

[24] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 28 апрелдаги “2022 – 2026 йилларда Самарқанд вилояти ҳудудларини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва аҳоли турмуш даражасини янада яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 222-сонли Қарори (1-илова)

Qarorda mavjud va yangitdan tashkil etilayotgan ishlab chiqarish kuchlarining tegishli infratuzilmalar xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirish maqsadida 6275,2 km. elektr uzatish tarmoqlarini yangidan qurish va rekonstruksiya qilish, 1 691 dona transformator punkt (podstansiya)larini yangidan o‘rnatish (qurish) va rekonstruksiya qilish, 14 dona podstansiyalarni yangilash, 8080,9 km. avtomobil yo‘llarini qurish va ta’mirlash, 270 ta ko‘priklarni qurish va ta’mirlash ishlarini, shuningdek, 3 ta transport-logistika markazlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

3.1.2- jadval

2022-2026 yillarda Samarqand viloyatida ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmani rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar[25]

t/r		O‘lchov birligi	Jami	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2026 yil
1.	Elektr ta’minotini yaxshilash:	-	-	-	-	-	-	-
1.1.	elektr uzatish tarmoqlarini yangidan qurish va rekonstruksiya qilish	km	6275,2	1229,9	1236,2	1248,8	1273,9	1286,4
1.2.	transformator punkt (podstansiya)larini yangidan o‘rnatish (qurish) va rekonstruksiya qilish	dona	1 691	337	338	339	339	338
1.3.	podstansiyalarni yangilash	dona	14	3	3	4	2	2
2.	Avtomobil yo‘llarini qurish va ta’mirlash	km	8080,9	1745,5	1612,7	1640,0	1599,3	1483,4
3.	Ko‘priklarni qurish va ta’mirlash	dona	270	49	49	50	54	68
4.	Transport xizmatlarini rivojlantirish:	dona	617	323	196	35	32	31
4.4.	transport-logistika markazlarini tashkil etish	dona	3	1	1	-	1	-

[25] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 28 апрелдаги “2022 – 2026 йилларда Самарқанд вилояти ҳудудларини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва аҳоли турмуш даражасини янада яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 222-сонли Қарори (1-илова).

Hududlarning sotsial-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog‘liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bir butun tizimni tashkil etgani sababli, uning har bir hududidagi rivojlanishni ta’minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi.

3.2. Kichik sanoat zonalari infratuzilmasidan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – tarmoqlarining rivojlanish darajasi ishlab chiqarish salohiyatini, ya’ni tarmoqlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha muayyan ish hajmini bajarish imkoniyatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarish salohiyati – bu ishlab chiqarish tizimlarining mavjud resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi bilan shartlangan moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish va jamiyat ehtiyojlarini qondirishdagi umumiy qobiliyati.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi salohiyati – bu ishlab chiqarish infratuzilmasining mavjud resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi asosida sanoatni rivojlantirishni ta’minlashdagi umumiy qobiliyati.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanishining umumiy salohiyati bir qancha xususiy salohiyatlardan tarkib topgan:

- moliyaviy salohiyat;
- axborot salohiyati;
- energetika salohiyati;
- transport salohiyati;
- kommunal tarmog‘i salohiyati;
- tadbirkorlik xizmatlari sohasi salohiyati.

Moliyaviy salohiyat - bu davlatning jami moliyaviy imkoniyatlari bo‘lib, ular davlatning ma’muriy ta’siri ostida moliyaviy resurslarga aylantiriladi va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Axborot salohiyatining tashkil etuvchilariga korxonalar

tomonidan korporativ axborot tizimlari, internet va telefoniya xizmatlaridan foydalanish salohiyatlari kiradi.

Energetika salohiyati elektr energetikasi, gaz va neft ta’minoti ko‘rsatkichlari orqali baholanadi.

Transport salohiyatini baholash ko‘rsatkichlariga avtomobil va temir yo‘llari, quvur transporti, shuningdek, havo aloqasi va dengiz yo‘llarining uzunligi va yuk tashish quvvatlari kiradi.

Kommunal tarmog‘i salohiyati – sanoatning issiq va sovuq suv, kanalizatsiya, siqiq havo va mavsumiy isitish bilan ta’minlanganligi orqali aniqlanadi.

Tadbirkorlik xizmatlari sohasi salohiyati, deyilganda ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish xizmatlarining buyurtmachilari va ijrochilari o‘rtasidagi talab va taklifning muvozanatlashgani tushuniladi.

Har qanday jamiyatda ham ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi. Samara – bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman yo‘q qilish bilan bog‘liq bo‘lgan korxona faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda ishlab chiqarish samarasini, pul shaklida esa iqtisodiy samarani tavsiflaydi.

Iqtisodiy samaradorlik cheklangan resurslardan unumli foydalanib, tovar va xizmatlarga bo‘lgan jamiyatning cheksiz talabini maksimal qondirishdir. Iqtisodiy samaradorlik – samaradorlikka qaraganda birmuncha tor ma’noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo‘jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo‘lsa (mahsulot sifatiga ta’sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Sotsial-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va

jismoniy mehnat o‘rtasidagi farqni yo‘qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Sotsial-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o‘zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita sotsial samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o‘sishi, aholi sog‘lig‘ining yaxshilanishi va umr ko‘rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligi – ishlab chiqarish infratuzilmasi faoliyatining natijaliligi bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlarining erishgan pog‘onasini va ulardan foydalanish darajasini ifoda qiluvchi xo‘jalik faoliyat natijalari va jonli hamda moddiylashtirilgan mehnat xarajatlari o‘rtasidagi nisbatdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshirish omillari:

- fan va texnika taraqqiyoti;
- tejamkorlik rejimi;
- iqtisodiyotning strukturasini o‘zgartirish;
- tashkiliy-iqtisodiy omillar.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri – bu fan va texnika taraqqiyotidir. Oxirgi vaqtlargacha fan-texnika taraqqiyoti evolyusion tarzda rivojlanib keldi. Natijada amaldagi texnologiyalar takomillashib, mashina va uskunalar qisman zamonaviylashdi. Bunday natija sezilarli, lekin kutilganidek emas edi. Holbuki, raqobat sharoitida fan va texnikaning oxirgi yutuqlari asosida ishlab chiqarish infratuzilmasining barcha tarmoqlarida yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan inqilobiy va sifatiy o‘zgarishlarni amalga oshirish lozimdir.

Fan va texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- ilg‘or texnologiyalarni keng o‘zlashtirish: yuqori bosim va ta’sirchan kuchlar qo‘llaniladigan membranali, lazerli, plazmali texnologiyalar va boshqalar;
- ishlab chiqarishni avtomatlashtirish – yuqori mehnat unumdorligini ta’minlovchi robot texnikalar, rotorli va rotor-konveer liniyalar, moslanuvchan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni

rivojlantirish;

- metall mahsulotlar, plastik qorishma, kompozitlar, metall kukunlar, keramik va boshqa progressiv tuzilishli materiallarning yangi shakllarini yaratish va undan foydalanish.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshiruvchi yana bir muhim omil – tejamkorlik rejimi hisoblanadi. Resurslarni tejash yonilg‘i, energiya, xom ashyo va materiallarga bo‘lgan o‘sib boruvchi talabni qondirishining asosiy manbaiga aylanadi. Bu muammolarni yechishda ishlab chiqarish infratuzilmasi muhim o‘rin egallaydi. Bu tarmoqda xom ashyo va yonilg‘i-energetik resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydigan mashina va uskunalarni joriy qilishni nazarda tutadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshiruvchi omillardan biri – iqtisodiyotning tuzilishini takomillashtirish. Fan-texnika taraqqiyotini ta’minlaydigan va sotsial muammolarni samarali hal qiladigan tarmoqlarni nisbatan yuqori darajada rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Investitsion siyosat – kapital qo‘yilmalar samaradorligini oshirishni ta’minlashga qaratilgan. Bunda, mablag‘lar fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirishni ta’minlovchi tarmoqlar foydasiga qayta taqsimlanadi. Mablag‘larning katta qismi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga va rekonstruksiya qilishga yo‘naltiriladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini oshirishda asosiy o‘rinlardan birini (boshqaruvni o‘z ichiga oluvchi) tashkiliy-iqtisodiy omillar egallaydi. Ijtimoiy ishlab chiqarish masshtabining o‘sishi va xo‘jalik aloqalarining murakkablashishi bilan uning roli ortib boradi. Eng avvalo, bu ishlab chiqarish infratuzilmasining oqilona shakllarini rivojlantirish va takomillashtirish demakdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajasini baholash uchun quyidagi talablarga javob beradigan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish:

- ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarining bazisli tarmoqlar faoliyatiga ta’sirini aks ettirishi;

- ko‘rsatkichlar tizimi ierarxik pog‘onaga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarish infratuzil asini rivojlanish darajasi baholovchi umumiy ko‘rsatkichlar tizimi alohida tarmoqlar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini xarakterlaydigan xususiy ko‘rsatkichlar tizimi bilan to‘ldirilishi;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanish darajasini baholash komileks xarakterga ega bo‘lishi kerak.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining ishlab chiqarish salohiyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar:

- tarmoqda band bo‘lgan sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining soni (kishi);
- tarmoqdagi asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati (ming so‘m);
- tarmoqning ishlab chiqarish quvvati.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining ishlab chiqarish salohiyati sifat darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar:

- ilg‘or jihozlar guruhining solishtirma og‘irligi (%);
- jihozlarning yosh tarkibi (yil);
- jihozlarning eskirish darajasi (%);
- sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining malaka darajasi;
- mehnatning fond, energiya, elektr bilan qurollanganligi darajasi (%);
- mehnatning mexanizatsiyalashuv darajasi (%).

Ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar:

- ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti;
- sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining mehnat unumdorligi;
- fond qaytimi;
- fond sig‘imi;
- xizmat ko‘rsatishning to‘liqlik koeffitsienti.

Mehnat va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari quyidagilar:

- mehnat unumdorligi;

- mehnat sarfi;
- fond qaytimi;
- fond sig‘imi.

Mehnat unumdorligi – bu bir xodim tomonidan ish vaqti birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarishga ish vaqtining miqdori bilan o‘lchangan jonli mehnat sarfining samaradorligidir.

$$MU = Q / Ch$$

Bu yerda:

MU – mehnat unumdorligi;

Q – mahsulot hajmi qiymat ko‘rinishida;

Ch – ishlovchilar (ishchilar) soni.

Mehnat sarfi mahsulot birligiga sarflangan vaqtni aniqlaydi.

$$MS = T / Q$$

Bu yerda:

MS – mehnat sarfi;

T – ishlangan vaqt;

Q – mahsulot hajmi qiymat ko‘rinishida.

Mehnat unumdorligining quyidagi ko‘rsatkichlari mavjud:

- bir ishchining o‘rtacha yillik ishlab chiqarishi (mahsulot hajmini ishlovchilarning o‘rtacha ro‘yxat soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi);
- bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ishlab chiqarish (mahsulot hajmini ishchilarning o‘rtacha ro‘yxat soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi);
- bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha kunlik ishlab chiqarish (bir kunlik mahsulot hajmini barcha ishchilar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi);
- bitta ishchiga bir soatga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarish (bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini barcha ishchilar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi).

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi mahsulotning fond sig‘imi va fond qaytimi ko‘rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Bunda fond qaytimi korxona asosiy fondlarining bir birligiga to‘g‘ri keluvchi

ishlab chiqarilgan mahsulotni anglatadi, fond sig‘imi esa fond qaytimiga teskari kattalik bo‘lib, yangi asosiy fondlarni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan kapital qo‘yilmalarni aniqlash vazifasini bajaradi.

Fond qaytimi asosiy fondlarning bir so‘miga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (summasi)ni ko‘rsatadi.

$$Fq = Q / F$$

Bu yerda:

Q – mahsulot hajmi, qiymat pul ko‘rinishida;

F – asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati.

Fondning sig‘imi – bu fond qaytimining teskari miqdori bo‘lib, mahsulot birligiga asosiy fondlarning qanday summasi to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi:

$$Fs = F / Q$$

Bu yerda:

F – asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

Q – mahsulot hajmi, qiymat pul ko‘rinishida.

Korxonaning xo‘jalik faoliyati va uni rivojlantirish ham o‘zining mablag‘lari, ham qarzga olingan mablag‘lar hisobiga amalga oshirilgan hollarda korxonaning tashqi qarz mablag‘lariga moliyaviy qaram emasligi va korxonaning to‘lov qobiliyati muhim tahliliy sifatga ega bo‘ladi, bu esa ko‘p jihatdan korxonani moliyalashtirish manbalari tarkibiga bog‘liq bo‘ladi.

Korxona moliyaviy faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari quyidagilar:

Rentabellik ko‘rsatkichlari:

- aktivlar rentabelligi;
- xususiy kapital rentabelligi;
- aylanma kapital rentabelligi;
- asosiy vositalar rentabelligi;
- umumiy faoliyat rentabelligi.

Likvidlik va to‘lovga qobillik ko‘rsatkichlari:

- tez likvidlik koeffitsienti;
- joriy likvidlik (qoplash) koeffitsienti;
- mutlaq likvidlik koeffitsienti.

Moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlari:

- xususiy kapital konsentratsiyasi (avtonomiya) koeffitsienti;
- moliyaviy bogliqlik koeffitsienti;
- xususiy kapitalning manyovrligi koeffitsienti.

Rentabellik koʻrsatkichlari:

- aktivlar rentabelligi = Sof foyda / Aktivlarning oʻrtacha yillik qiymati.
- xususiy kapital rentabelligi = Sof foyda / Xususiy kapitalning oʻrtacha yillik qiymati.
- aylanma kapital rentabelligi = Sof soyda / Joriy aktivlarning oʻrtacha yillik qiymati.
- asosiy vositalar rentabelligi = Sof foyda / Asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati.
- umumiy faoliyat rentabelligi = Sof foyda / Sotishdan tushgan tushum.

Likvidlik va toʻlovga qobillik koʻrsatkichlari:

- tez likvidlik koeffitsienti = (pul mablagʻlari + qisqa muddatli moliyaviy qoʻyilmalar + debitorlar) / joriy majburiyatlar
- joriy likvidlik (qoplash) koeffitsienti = joriy aktivlar / joriy majburiyatlar.
- mutlaq likvidlik koeffitsienti = Pul mablagʻlari / joriy majburiyatlar.

Moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlari:

- xususiy kapital konsentratsiyasi (avtonomiya) koeffitsienti = Xususiy kapital / Aktivlarning jami qiymati.
- moliyaviy bogʻliqlik koeffitsienti = Aktivlarning jami qiymati / Xususiy kapital
- xususiy kapitalning manyovrligi koeffitsienti = Xususiy aylanma mablagʻlar (ya’ni: joriy aktivlar – joriy majburiyatlar) / Xususiy kapital.

Moliyaviy mustaqillikni ta’minlash uchun korxona yetarli darajada oʻz kapitaliga ega boʻlishi lozim. Buning uchun korxonaning rentabelli ishlashi talab qilinadi. Bu maqsadni ta’minlash uchun pul

mablag‘lari oqimining kirib kelishi va chiqishini samarali boshqarish, belgilangan faoliyat yo‘nalishidan chetga chiqishga tezkorlik bilan javob qaytarish muhim ahamiyat kasb etadi.

3.3. Kichik sanoat zonalarining moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash yo‘llari

Sanoat korxonalarining moddiy-texnika bazasi deyilganda, moddiy boylik ishlab chikarish sharoitida bevosita band bo‘lgan mehnat vositalarn va mexnat buyumlari yng‘indisi tushuniladn. Sanoatning moddiy-texnika bazasi – fan-texnika yangiliklaridan keng ko‘lamdan foydalaniladigan, elektrlashgan yirik mashina ishlab chikarishdir, Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonaning moddiy-texnika bazasini tavsiflasak, uni moddiy asosda, texnika asosida, mashina va mexanizmlarni ishlab chiqarishda ko‘plab ishlatish, elektrlashtirish ommaviy miqyosda amalga oshirilishi asosidagina hal qilish mumkin.

Sanoat korxonalari moddny bazasi tarkibiga:

- yer resurslari;
- mashinalar;
- mehnat qurollari va buyumlari;
- elektr jihozlari;
- yonilg‘i va moylash materiallar;
- ta’mir texnikasi;
- ishlab chiqarish binolari;
- yo‘l inshootlari;
- aloqa vositalari;
- ko‘p yillik daraxtlar va xokazolar kiradi.

Sanoat korxonalari moddiy-texnika bazas iqtisodiyotning boshqa sohalari moddiy-texnika bazasiga nisbatan o‘znga xos bir qator xususiyatlarga ega. Sanoat korxonalari moddiy-texnika bazasida energetika resurslari katta rol o‘ynaydi.

Sanoat korxonalari ixtiyoridagi barcha kuch beruvchi mexanizmlar quvvati yig‘indisi ularning energetika resurslarini tashkil etadi.

Sanoatning energetika resurslariga korxona ixtiyoridagi mashinalar, statsionar dvigatellar, elektr generatorlar, pasaytiruvchi transformatorlar va boshqa turdagi mexanizmlar kiradi.

Sanoatning energetika resurslari doimo rivojlanib, takomillashib bormoqda. Kam quvvatli va tezligi kam texnikalar kuchli, tezyurar va iqtisodiy jihatdan qo‘lay texnikalar bilan almashtirilmoqda.

Sanoat moddiy-tsxnika bazasnning o‘sishi tarmoq korxonalari ishlab chiqarish fondlarining o‘sishiga olib keladi.

Texnika sonini ehtiyoj darajasiga yetkazish, amortizatsiya muddatlarini o‘tab bo‘lganlarini yilma-yil yangilari bilan almashtirib borish mahsulot ishlab chiqarish uchun ham, ularga texnika xizmati ko‘rsatuvchp servis korxonalari (mashinasozlnk zavodlari) uchun ham muhim vazifa hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini yukori samarali zamonaviy texnika vositalari bilan butlanishini rag‘batlantirnsh, mashinasozlik zavodlari va qo‘shma korxonalarni yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish, sanoat korxonalariga yetkazib berilayotgan texnikalar hajmini oshirish xamda ishlab chiqarish texnikalarni lizingga berishni jonlantirish bugungi kunning talabidir.

Bugungi kunga qadar to‘plangan amaliy tajribalarning natijalari mijozlarga texnika vositalarini lizing orqali yetkazib berish tizimi muayyan afzalliklarga ega ekanligini ko‘rsatmoqda:

- mashinasozlar, lizing kompapiyasi na texnika ijarachilarining yaxlit lizing tizimi tashkil etuvchilari sifatida faoliyat ko‘rsatishlari ularning manfaatlari o‘zaro mos tushishini ta’minlamoqda;
- lizing tizimi mijozlarning ikki muhim muammosini, ya’ni, texnikani sotib olish va uni moliyalashtirishni baravariga yechib bermoqda. Bu, mablag‘ resurslari taqchil bo‘lgan mijozlar uchun ayniqsa, ahamiyatlidir;
- lizingga oluvchilar birdaniga katta mablag‘ sarflamasdan o‘zlarining texnika parklarini yangi zamonaviy mashina va mexanizmlar bilan butlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Sanoat korxonalarining moddiy-texnika ta’minotida iqtisodiy

omillar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarini elektrlashtirish korxona xo‘jalik faolnyatini keskin ravishda rivojlantiradi.

Sanoat korxonalarining moddiy-texnika ta’minotini rivojlanitirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

- har bir kichik sanoat zonasiga mos keladigan va iqtisodiy jihatdan qo‘llay bo‘lgan texnika ishlab chiqarish va shu asosda ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish;
- ishlab chiqarnshni avtomatlashtirish vositalaridan keng ko‘lamda foydalanish;
- ishlab chiqarish binolari va inshootlari qurishni keng ko‘lamda avj oldirish va qurilishni takomillashtirish;
- sanoat korxonalariga xizmat qiluvchi korxonalarning (ta’mir, qurilish, ilmiy-tekshirish institutlari va hokazo) moddiy – texnika bazasini mustahkamlash.

Hozirgi sharoitda servis tizimini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Sanoat korxonalariga texservis xizmati ko‘rsatish korxonalarini tuzish muhim o‘rin tutadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, iqtisodiyot sohasini erkinlashtirish, ya’ni davlat boshqaruv rolini chegaralash, iqtisodiy erkinliklarning va xo‘jalik yuritish sub’ektlari sonining ortishi – texnika servis tizimida xam raqobat muhiti shakllantirilishini taqozo etadi.

Bunday sharoitda, turli mulk shaklidagi texnik xizmat ko‘rsatuvchi muqobnl korxonalarni yaratish zarur. Bularga texnik markazlar, dilerlik markazlari, lizing kompaniyalari, shaxsiy va boshqa turdagi korxonalar kiradi.

Texnika markazlari u yoki bu hududda mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchining vakili sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Shu sababli ularning vazifalariga: mashinalar, uskunalar, ehtiyot qismlar sotish, ularni sotishga tayyorlash, montaj qilish va ishlatish, kafolat muddatida va undan keyingi davrda texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mir kabilar knradi.

Sanoat majmuidagi munosabatlarga mos ravishda ko‘p korxonalar ko‘rsatilgan xizmatlar uchun o‘z vaqtida pul to’lay

olmasligi, shuning uchun ham markazlar iste’molchilar bnlan hisob-kntobda asosan kompensatsion lizing shaklidan foydalanishi ko‘zda tutiladi.

Texnik markazga texnika yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar esa ikki variantda tashkil etnlishi mumkii: shartnomaniy va korporativ.

Birinchi variantda texnika va uskunalar yetkazib beruvchilar bilan lizing kelishuvi yoki birgalikda faoliyat yuritish haqida shartnoma tuziladi.

Ikkinchisida esa, texnik markaz ikkilamchi bo‘ysunuvchi jamiyat bo‘lib qoladi. Uning faolnyatn aksionerlik jamiyati tomonidan tayinlangan ijrochi direktor va direktorlar kengashiga saylangan vakillar tomonidan kuchli nazorat ostida bo‘ladi. Bunday holda texnika va boshqa moddiy resurslar texnik markazlarga saqlash uchun berilgan hisoblanadi.

Bir qator hollarda texnik markazlar bilan birga dilerlik markazlarini tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir. Bular texnika ishlab chiqaruvchi. texnik markazlar va iste’molchilar o‘rtasida vaknl sifatida namoyon bo‘ladi. Texnik markaz tomonidan ish va xizmat turlari aynan dilerlik markazlari zimmasiga yuklatiladi, chunki texnik markazlardan farqdi o‘laroq, dilerlar birgina texnika va resurslar yetkazib beruvchilar bilan emas, balki birdaniga turli xil mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari mumkin.

Mohiyati jihatidan dilerlik markazlarini tashkil etish va rivojlantirish servis xizmatini yaxshilash, mahsulot tannarxini arzonlashtirish, texnika ta’minoti va ehtiyot qismlar bahosini kamaytirishi kerak, chunki bunda dallollarga ehtiyoj qolmaydi.

Hozirgi kunda ko‘p kichik sanoat zonalardagi ishlab chiqarish korxonalarida texnik xizmat ko‘rsatish servis markazlarini tashkil etish uchun kerakln pul mablag‘lariga ega emas. Shuning uchun korxonalararo texnik xizmat ko‘rsatish servis markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir, ya’ni moddiy-texnika va servis punktlari ustaxonalarining mutaxassislari, bir necha xo‘jaliklarning xizmat ko‘rsatish korxonalarini birlashtirish zarur.

Kichik sanoat zonalari o‘rtasida muqobillik asosnda tashkil

etiladigan servis korxonalari sanoat ishlab chiqarish infratuzilmalarining yangi xo‘jalik sub’ektida mulkchilik shakllaridan qati nazar (sanoat korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar va aholiga) texnik servis xizmat ko‘rsatadi.

Texnik xizmat ko‘rsatish servis markazlari o‘z tasarrufidagi hamda uning xizmatidan foydalanuvchi o‘zga sub’ektlar texnika va boshqa asosiy vositalari bazasida kafolatli servis xizmatini tashkil qiladi va u quyidagi afzalliklarga ega:

- boshqa turdosh texnik xizmat ko‘rsatish servis markazlari bilan birgalikda texnik servis xizmati ko‘rsatish sohasida raqobatni vujudga keltiradi va kuchaytiradi;
- bularni tashkil etishda bino va inshootlar qurish, malakali kadrlarni jalb qilish zarurati hisobiga kapital mablag‘larni tejash nmkoniyati tug‘iladi;
- servis xizmati tizimi bevosita kichik sanoat zonalari tarkibidagi texnik xizmat ko‘rsatish servis markazlari faoliyatiga asoslanganligi, shuningdek, servis xizmatidan foydalanuvchi boshqa xo‘jalik sub’ektlari mutaxassislaridan tashkil topganligi va qo‘shimcha boshqaruv apparatiga ehtiyoj yo‘qligi hisobiga xizmat ko‘rsatuvchilarning umumny sonini kamaytirish imkonini beradi;
- servis xizmati ko‘rsatish bilan bir qatorda kichik sanoat korxonalaridagi mavjud ilg‘or tajribalarni servis xpzmatidan foydalanuvchi boshqa xo‘jaliklarga joriy qilish imkoni yaratnladi;
- texnik xizmat ko‘rsatish servis markazlari xizmatidan foydalanuvchi boshqa korxonalardagi texnika vositalaridan ynl mobaynida to‘liq va samarali foydalanish uchun imkoniyatlar yaratiladn;
- texnik xizmat ko‘rsatish servis markazlari xizmatidan kichik sanoat zonalar korxonalarinnng o‘zlari ham foydalanganligi uchun xizmat xaki tariflari oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi va taraflar o‘zaro kelishuviga asosan manfaatli darajada belgilanadi;
- kichik sanoat zonalari o‘rtasida tashkil etilgan texnik xizmat ko‘rsatish servis markazlari faoliyati natijasida olingan foyda

servis markazi moddiy-texnika bazasnni, shu bilan birga uning moliyavny ahvolini mustahkamlashga xizmat qiladi;

- xizmat ko‘rsatish narxlari nisbatan arzonligi ular xizmatndan foydalanuvchi sub’ektlar sonining ortishiga olib keladi;
- faoliyat turlarining kengayishi, ya’ni, ehtiyot qism, yoqilg‘i-moylash materiallari va boshqa sanoat mahsulotlari bilan ularni olib kelib ta’minlash hisobiga foyda ko‘rish imkoniyatini yaratadi;
- kichik sanoat zonalari korxonalarining texnika vositalari va extiyot qismlarini bevosita ishlab chiqaruvchi zavodlardan sotib olish xamda vositachi tashkilotlarga to‘lanadigan to‘lovlar miqdorining qisqarishi hisobiga ularning narxlarini arzonlashtirishga erishiladi;
- texnik xizmat ko‘rsatish servis markazlari xizmatidan foydalanuvchi boshqa sub’ektlarning mablag‘larini ular bilan kelishuv asosida birlashtirish hamda bankdan uzoq muddatli kredit olish hisobiga servis markazining moddiy-texnika bazasini muntazam ravishda yangilab borish imkoniyati yaratiladi va hokazo.

Demak, hozirgi paytda texnik servis tizimida raqobat muhitini vujudga keltiruvchi, uni tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishda kam kapital mablag‘lar talab qiluvchi, qolaversa, bugungi kunda kichik sanoat zonalarida yuzaga kelgan sharoitga mos keluvchi va sanoat korxonalarida texnikalardan foydalanishshshg asosiy maqsadi mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishning eng muhim yo‘llaridan biri — bu, texnik xizmat ko‘rsatish servis markazlarini tashkil etishdir.

Prezident va hukumat qarorlariga asosan viloyatimizning 14 hududida 19 ta kichik sanoat zonalari tashkil etilib, 115,8 gektar yer maydoni ajratilgan. Ularga soliq, bojxona va boshqa imtiyozlar berilgan, tadbirkorlarning ishlab chiqargan mahsulotini eksport qilishi uchun yetarlicha sharoit yaratilgan. Biroq, viloyatimizda kichik sanoat zonalari salohiyatidan samarali foydalanilmayapti. Kichik sanoat zonalari ma’muriy kengashi tomonidan 71,2 million AQSh dollarilik 103 ta loyiha ma’qullanib, 46,8 gektar maydonga joylashtirilgan, ammo ajratilgan maydonlarning 69 gektar qismi uchun takliflar kiritilmagan. Ma’qullangan 103 ta loyihaning 48 tasi joriy yil birinchi choragi

davomida ishga tushirilishi rejalashtirilgandi, ammo ularning 21 tasi amalga oshirildi, xolos. Belgilangan loyihalar bo‘yicha Samarqand, Payariq, Oqdaryo, Past Darg‘om tumanlarida 1 tadan, Paxtachi va Nurobodda 2 tadan, Kattaqo‘rg‘on shahrida 3 ta, Narpay va Qo‘shrabotda 5 tadan, umumiy hisobda 3,9 million dollarlik loyihalar ishga tushirilgan. Umumiy hisobda rejalashtirilgan 62 ta loyihada muammolar aniqlangan. Jumladan, 30 ta loyihada qurilish ishlari kech boshlangan, 13 tasida bu ishlar to‘xtab qolgan, 10 ta loyiha uchun hali qurilish ishlari umuman boshlanmagan, 9 ta sub’ektda bank krediti bilan bog‘liq muammo yuzaga kelgan.Loyihalarning o‘z vaqtida ishga tushirilmayotganiga bir qancha omillar sabab bo‘lmoqda, - deydi viloyat kichik sanoat zonasi direksiyasi direktori vazifasini bajaruvchi Ulug‘bek Suyunov. – Rejaga asosan ishlab chiqarish maydonlarida elektr ta’minotini yaxshilash uchun 17 dona transformator o‘rnatildi, 5,35 kilometr elektr tarmog‘i tortildi, biroq hali foydalanish uchun ruxsatnoma berilmadi. Gaz tarmoqlari tortish ishlari to‘liq amalga oshirilgan bo‘lsa-da, belgilangan 10,7 kilometr yo‘lning 5,4 kilometri ta’mirlandi, 17 ta hududda 5,9 milliard so‘mlik 6 ta suv inshooti qurish ishlari viloyat injiniring kompaniyasi tomonidan olib borilyapti. Kichik sanoat zonalarida import o‘rnini bosadigan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish loyihalarini joylashtirish, har bir investitsiya loyihasining qiymati eng kam ish haqining 2000 barobaridan kam bo‘lmasligi belgilangan bo‘lsa-da, joylarda bu masalaga jiddiy e’tibor qaratilmayapti. Oqdaryo tuman Boshdarxon kichik sanoat zonasi uchun 46,3 gektar yer maydoni ajratilgan, ammo uning 34,9 gektarida zona ishtirokchisi bo‘lmagan 13 korxona oldindan faoliyat yuritib kelmoqda. Qo‘shrabot tumanida esa ajratilgan maydonda ikkita aholi xonadoni joylashgan, shuningdek, tuman hokimining 2019 yil 20 martdagi ogohlantirish xatiga qaramasdan “Naqshband qurilish savdo” xususiy korxonasi noqonuniy faoliyat yuritmoqda. Kichik sanoat zonalarida olib borilayotgan ishlarni ko‘zdan kechirish maqsadida Paxtachi tumanida bo‘ldik. Tumanning Fay mahallasida joylashgan ishlab chiqaruvchilar maskanida 3 ta loyiha amalga oshirilib, 38 ta ish o‘rinlari yaratilgan. Manzilga borish uchun

mo‘ljallangan yo‘lni, ochig‘i, shudgordan farqlay olmadik, elektr ta’minotida uzilishlar kuzatildi. 15 sotix maydonda 150 ming AQSh dollari miqdoridagi o‘z mablag‘imiz va “Mikrokreditbank” tuman filialining 90 million so‘m krediti hisobidan 10 xil diametrdagi polietilen quvurlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydik, - deydi “Daler Plast” xususiy korxonasi rahbari Javlon Ortiqov. – 8 nafar ishchimiz bor. Mahsulotni Qashqadaryo, Surxondaryo va Navoiy viloyatlariga buyurtma asosida yetkazib beryapmiz. Zamon talabidan kelib chiqib, paxta maydonlarini tomchilatib sug‘orish uchun quvurlar ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish harakatidamiz. Ammo elektr ta’minotidagi uzilishlar katta zarar keltirayotgan bo‘lsa, ichimlik suvini 8 kilometrdan tashib kelish ancha vaqt talab qilmoqda. Aslida, kichik sanoat zonalari tadbirkorlarga qo‘shimcha qulaylik va imkoniyat yaratish, ularni qo‘llab-quvvatlash va shu orqali hudud sanoat salohiyatini oshirish, iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida tashkil etilmoqda. Bu tizim mamlakat iqtisodiyoti rivojiga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

IV BOB. O'ZBEKISTONDA KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING HOZIRGI HOLATI

4.1. Iqtisodiyotning sanoat tarmog'ini rivojlanishi tendensiyalari va uning hozirgi holati tahlilini o`rganish borasida xulosalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"26gi Qaroriga muvoffiq O'zbekistonda 2013 yildan boshlab MHT-2008 ni amaliyotga joriy qilish choralari ko'rilmoqda. Strategiya doirasida 2020 yildan boshlab MHT-2008 ni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilish rejalashtirilgan. MHT-2008 da nomoliyaviy sektorga quyidagicha ta'rif berilgan: "Nomoliyaviy korporasiyalar bu asosan bozor tovarlari va nomoliyaviy xizmatlarini ishlab chiqaruvchi iqtisodiy birliklar"27. Demak, iqtisodiyotning sanoat sektori deganda, aynan tovar va nomoliyaviy xizmatlar ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot subyektlarini tushunish lozim.

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda jahon hamjamiyatidagi o'rni va roli aynan sanoat sektor holatiga bog'liq. Sanoat sektor holatini umumlashgan tarzda YaIM hajmi va o'sish sur'atlaridan aniqlash mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, respublikada YaIMning o'sish tendensiyalarida so'nggi yillarda barqarorlik kuzatildi (4.1-jadval).

4.1-jadval

O'zbekistonda nominal va sanoat YaIM va uning o'sish sur'ati[28]

Ko'rsatkich	Yillar												O'zgarishi (foiz)
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	
Nominal YaIM (mlrd. so'm)	78937	103233	127590	153311	186829	221351	255422	317476	424729	529391	602551	743588	942
Sanoat YaIM[2] (mlrd. so'm)	78937	84877	90905	97538	104243	111768	118398	123602	130221	137656	140016	142396	180,4

[26] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 августдаги ПҚ-4796-сон "Ўзбекистон Республикасининг миллий статистика тизимини янада такомиллаштириш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори. https://lex.uz/docs/4926736.

[27] Система национальных счетов 2008. Европейская комиссия, Международный валютный фонд, Организация экономического сотрудничества и развития, Организация Объединенных Наций, Всемирный банк. Нью-Йорк, 2012 г. 31 б. https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/docs/SNA2008RussianWC.pdf.

[28] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2.

[29] 2010 йилги нархларда, млрд. сўм.

4.1-jadval davomi													
YaIM o'sishi (foizda)	107,1	107,5	107,1	107,3	106,9	107,2	105,9	104,4	105,4	105,7	101,7	107,4	+0,3

4.1-jadval ma'lumotlari 2010-2021 yillar oralig'ida YaIMning o'sish sur'atlari beqarorligini, jumladan, 2010-2016 yillar davomida o'rtacha 7,2 foizni tashkil etganligini ko'rsatadi. Bu davrni biz mamlakatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilgan chuqur iqtisodiy o'zgarishlar natijasi deb ko'rishimiz mumkin. 2016-2019 yillar davomida YaIM o'sishi nisbatan past bo'lib, o'rtacha 5,3 foizni, 2020 yilda 1,7 foizni tashkil etdi. 2021 yilda YaIMning o'sish sur'ati 7,4 foizni tashkil etganligi optimistik prognoz ishlab chiqishga asos bo'lishi mumkin. Umuman o'rganilgan davrning dastlabki va so'nggi yillarida YaIMning o'sish sur'atlari deyarli o'zgarmadi. YaIMning o'sish sur'atlaridagi o'zgarish + 0,3 foizni, 2010 yilda YaIMning o'sishi 7,3 foizni 2022 yilda esa 7,4 foizni tashkil etdi. YaIMning yillik o'sish darajasi 4,4-7,5 foizni, o'rtacha 6,6 foizni tashkil qildi.

Fikrimizcha, 2016-2020 yillarda YaIM o'sish sur'atlarining pasayishi quyidagi omillar natijasida ro'y bergan:

statistik ko'rsatkichlar va ularni hisoblashda jahon amaliyotidagi tajriba qo'llanilganligi ularning aniqligini oshirgan;

XIX asrning 90 yillarida va XX asrning boshlarida O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy o'zgarishlar YaIM barqaror sur'atlar bilan o'sishiga sababchi bo'lgan, ammo 2010 yillarga kelib davr talablariga javob berishi kechika boshlagan. Bu holat yangi iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishga, diversifikasiya jarayonlarini chuqurlashtirishga sabab bo'ldi;

"valyuta bozorini liberallashtirish, shu jumladan, milliy valyutaning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kursini belgilashda faqat bozor mexanizmlaridan foydalanishga o'tish"[30];

davlat byudjet xarajatlarining oshishi, yangi pul birliklarining muomalaga kiritilishi hamda iqtisodiyotni yuqori sur'atda kreditlash

[30] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида"ги 2017 йил 2 сентябрьдаги ПФ-5177-сон Фармони.

hisobiga pul massasining keskin o'sishi. Shuningdek, sanoat ishlab chiqarish hajmining pasayishi natijasida talab inflyasiyasining kelib chiqishi;

YaIMning 2020 yildagi pasayishi Covid-19 pandemiyasi natijasida amalga kiritilgan karantin holatining iqtisodiyotning sanoat sektoriga salbiy ta'siri ostida kechdi.

Demak, mazkur kamchiliklar sodir bo'lishi iqtisodiyotda nafaqat iqtisodiy o'zgarishlarni amalda kechishini kuzatishni, balki ularning yanada tub mohiyatini qayta ko'rib chiqishni talab etdi.

Shuningdek, 1990-2018 yillar oralig'ida O'zbekistonda YaIM HQP bo'yicha 463 foizga oshib, MDH davlatlari ichida eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga erishdi. Taqqoslash uchun shu davrda Turkmaniston 467 foiz, dunyo YaIM 369 foiz, Ozarbayjon 339 foiz, Qozog'iston 267 foiz, Rossiya 253 foiz, Tojikiston 150 foiz, Qirg'iziston 147 foiz, Ukraina esa, 41 foiz o'sishga31 erishdi.

Sanoat sektordagi iqtisodiy o'sishni o'rganishda uning tarmoqlari va sohalaridagi ushbu ko'rsatkichni tahlil etish maqsadga muvofiq (4.2-jadval).

4.2-jadval

Sanoat sektor tarmoqlaridagi iqtisodiy o'sishi, foizda[32]

Tarmoqlar	Yillar												O'zga-rishi
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6,1	6,1	7,0	6,4	6,0	6,1	6,2	1,2	0,3	3,1	3,0	4,0	-2,1
Sanoat	5,9	4,4	5,7	7,5	4,5	5,3	5,4	5,2	10,8	5,0	0,7	8,7	+2,8
Qurilish	4,2	8,1	14,5	18,4	17,6	18,8	7,2	6,0	14,3	22,9	9,2	6,8	+2,6
Xizmatlar	9,6	10,0	7,8	6,8	7,4	7,6	5,9	6,0	5,2	6,0	0,5	9,2	-0,4

O'rganilayotgan davrda sanoat sektor tarmoqlarida o'sish sur'atlarida tafovutlar sezilarli bo'lib, uning diapazoni 100,3 foizdan 122,9 foizgacha tashkil etdi. Eng yuqori o'sish sur'atlari qurilish

[31]1990-2018 йилларда дунё мамлакатларининг ЯИМ (ҲҚП) нинг ўсиши. https://ru.wikipedia.org/wiki/Список_стран_по_ВВП_(ППС).

[32]Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2.

sektorida: yillik o’sish 2013 yil 18,4 foizga, 2015 yil 18,8 foizga, 2019 yil 22,9 foizga erishildi. Eng past sur’atlar qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligida: 2018 yil 0,3 foiz, 2017 yil 1,2 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan xolda aytish mumkinki, agrar sohada iqtisodiy o’zgarishlarni amalga oshirish murakkab va davomli jarayondir. Respublikamizda sanoat sektorning qishloq xo’jaligi tarmog’ida amalga oshirilgan bir necha bosqichli tub iqtisodiy o’zgarishlar natijasida zamon talablariga javob beradigan bozor institutlarining shakllanishiga erishildi. Ushbu jarayon bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. Amalga oshirilgan iqtisodiy o’zgarishlarning natijasida agrar sektorda yangi iqtisodiy tizim shakllandi. Jumladan, dunyo mamlakatlari tajribasi va bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida fermer xo’jaliklari, uy xo’jaliklarini ish joyi va daromad manbalari bilan ta’minlash maqsadida dehqon xo’jaliklari, sanoat bilan agrar sektorning integrasiyasi sifatida klasterlar vujudga keldi.

Avvalambor, iqtisodiyot sanoat sektorining boshqa tarmoqlari singari qishloq xo’jaligida ham me’yoriy-huquqiy asos takomillashtirildi va bozor iqtisodiyotining yangi talablariga moslashtirildi. Sinov va hatolar yo’li bilan bir necha bosqichda iqtisodiy o’zgarishlar amalga oshirildi. Institusional tizimdagi o’zgarishlar natijasida kolxoz va sovxozlar jamoa xo’jaligiga aylantirildi, sanasiya jarayoni amalga oshirildi, dehqon va fermer xo’jaliklari shakllantirildi, sanoat va qishloq xo’jaligining integrasiyasi natijasi klasterlar paydo bo’ldi. Asosiy maqsad esa, samaradorlikni oshirish bo’lib qoldi. Ushbu jarayonlarda yerga bo’lgan mulkchilik munosabatlari bir necha bor transformasiyalashishiga qaramay, uni tasarruf etish huquqi davlatda saqlanib qolindi. Shuni alohida ta’kidlab o’tish kerakki, ushbu tarmoqda FTTdan foydalanish samaradorligi yetarli emas, deb hisoblaymiz.

Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi tarmog’ining o’sish sur’ati shu davrdagi YaIM o’sish sur’atlaridan kam bo’lib, 2010-2016 yillarda 6,0-7,0 foizni tashkil etgan bo’lsa, so’nggi 3 yilda 2017-2019 yillarda 0,3-2,5 foiz oralig’ida tashkil etdi. Faqatgina 2020 yil sanoat sektorning

boshqa tarmoqlaridan farqli ravishda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida karantin choralari qo'llanilmaganligi sababli tarmoqda o'sish sur'ati YaIM o'sishidan yuqori natijaga, ya'ni 3,0 foizga erishildi.

2010-2021 yillarda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'atlari past bo'lganligini quyidagi omillar bilan tavsiflash mumkin:

qishloq xo'jaligi korxonalarining yer maydoni 2010 yilda 21453,2 ming gektarni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 10 yil davomida kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2019 yilga kelib 20236,3 ming gektarni tashkil qildi, ya'ni 5,7 foizga kamaydi;

qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligining pasayishi kuzatildi. Masalan, don maxsulotlarining umumiy hosildorligi gektariga 43,6 sentnerdan 38,1 sentnerga, paxtaniki 25,4 sentnerdan 20,9 sentnerga, sabzavotlar 252,5 sentnerdan 237,1 sentnerga kamaydi[33].

Shu bilan birga ta'kidlash kerakki, 2010-2021 yillar oralig'ida go'sht ishlab chiqarish 1461,4 ming tonnadan 2640,4 ming tonnaga, sut ishlab chiqarish 6169,0 ming tonnadan 11286,9 ming tonnaga, tuxum ishlab chiqarish 3061,2 million donadan 8053,1 million donaga yetdi[34].

2010-2020 yillar oralig'ida sanoat sohasida o'sish 0,7 foizdan 10,8 foizgacha tashkil etdi. Lekin, bu o'sish tendensiyasi to'lqinsimon xarakterga ega bo'ldi. Jumladan, 2010-2012 yillar 4,4-5,9 foiz, 2013 yil 7,5 foiz, 2014-2017 yillar 4,5-5,4 foiz, 2018-2019 yillar 6,6-10,8 foiz 2020 yili 0,7 foiz, 2021 yili 8,7 foizni tashkil etdi. Buning sabablari: yangi yirik loyihalarni amalga oshirilishi hamda ushbu soha tarkibining xilma-xilligidir. Fikrimizcha, sanoat sohasidagi iqtisodiy o'sish quyidagi omillar ta'sirida yuzaga kelgan:

davlat tomonidan iqtisodiy dasturlarning qabul qilinishi va amalga oshirilishi;

faol investisiya siyosatining qo'llab-quvvatlanishi;

[33] Давлат статистика Қўмитаси маълумотлари асосида тузилган.
[34] Давлат статистика Қўмитаси маълумотлари асосида тузилган.

to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investisiyalar oqimini oshirish maqsadida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etilishi va kengaytirilishi;

klaster tizimini joriy etilishi bilan sanoat sektor tarmoqlarining integrasiyasining kuchayishi;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo’llab-quvvatlanishi;

davlat sanoat boshqaruvi sohasidagi o’zgarishlar va boshqalar.

Shubhasiz, sanoat tarmog’i sanoat sektorning lokomotivi hisoblanadi. Ushbu tarmoqning tarkibi va FTT natijalaridan izchil foydalanishi uning o’sish darajasini belgilab beradi. O’rganilayotgan davrda sanoatning tarkibida ham katta o’zgarishlar sodir bo’ldi.

4.3-jadval

Sanoat sohalarining tarkibi, foizda[35]

Sohalar	Yillar												O’zga-rishi
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	
Sanoat jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	
Tog’-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	15,0	12,7	14,7	12,7	11,0	9,7	8,1	10,3	12,3	13,4	9,0	9,5	-5,5
Ishlab chiqaradigan sanoat	73,8	77,2	75,8	78,3	79,9	80,4	81,8	81,1	80,6	79,0	83,0	83,0	+9,2
Elektr, gaz, bug’ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash	10,7	9,5	9,0	8,4	8,5	9,2	9,4	7,8	6,2	6,8	7,4	6,8	-3,3
Suv bilan ta’minlash, kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig’ish va utilizasiya qilish	0,5	0,6	0,5	0,5	0,6	0,7	0,7	0,8	0,9	0,7	0,6	0,7	+0,2

2010-2021 yillar oralig’ida ishlab chiqarilgan sanoatning ulushi 73,8 foizdan 83,0 foizga o’sishi ro’y berdi. Ushbu o’sish metallurgiya

[35] Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси маълумотлари асосида тузилган.

sohasida 8,1 foizdan 26,0 foizga hamda mashina, uskunalar va avtotransport vositalarini ishlab chiqarish sohada 15,1 foizdan 19,4 foizga[36] o'sishi hisobiga erishildi. Bu o'zgarishlar ijobiy bo'lib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol investisiya siyosatining natijasi sifatida baholashimiz mumkin.

Alohida ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish hisobiga sanoatda yanada yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishish mumkin. Shu sababli ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq (4.4-jadval).

4.4-jadval

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, yirik korxonalar bo'yicha foizda[37]

Sohalar	Yillar												O'zgarishi
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	
Qo'mir	94,8	89,8	87,7	99,6	97,6	97,6	99,9	100	100	100	100	100	
Sovutgich va muzlatgichlar	34,4	34,8	35,7	12,1	11,4	27,7	48,4	51,1	82,7	74,3	28,1	28,4	- 6,0
Yengil avtomobillar	100	100	100	75,4	75,6	70,9	59,2	92,6	100	97,0	99,1	79,7	- 20,3
Traktorlar	20,9	14,4	16,3	40,8	27,6	24,0	16,7	33,7	70,0	38,7	25,2	24,6	+ 3,7
Tola va kimyoviy iplar	66,4	52,0	30,8	16,7	7,4	14,6	39,2	25,3	45,1	31,0	57,2	76,8	+ 20,4
Sement	100	100	97,1	98,4	92,3	97,2	96,3	95,6	91,6	92,5	83,6	92,6	- 7,4
Trikotaj buyumlari	63,1	70,6	61,8	81,6	99,0	56,5	79,3	64,3	78,7	66,2	75,8	70,3	+ 7,2
Gilam va gilam buyumlari	65,4	60,1	60,7	64,6	36,6	79,3	83,5	76,7	87,4	88,9	88,9	100	+ 34,6
Poyabzal	100	100	100	100	81,7	61,1	69,2	68,5	75,6	64,3	55,2	67,8	- 32,2
Paxta tolasi	77,2	76,6	69,4	63,6	76,1	75,7	87,2	82,9	97,2	90,0	91,0	95,0	+ 17,8
Qandolatchilik mahsulotlari	65,9	14,7	27,1	49,0	13,4	42,2	48,1	81,3	99,4	51,7	81,3	80,8	+ 14,9
Un	31,1	54,5	49,3	47,1	47,0	44,6	57,9	60,3	77,0	60,4	71,5	77,6	+ 46,5
Meva-sabzavot konservalari	57,2	24,3	39,7	27,5	66,5	69,4	55,7	59,3	52,1	37,8	67,3	97,5	+ 40,3
Margarin mahsulotlari	27,7	33,0	36,5	24,6	22,2	39,1	42,4	38,4	38,2	38,7	44,9	40,4	+ 12,7
Xo'jalik sovuni	45,2	44,6	38,2	39,4	36,8	37,6	47,0	52,9	21,1	19,5	47,6	41,1	- 4,1

[36] Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси йиллик статистик тўплами 2010-2018. Т.: 2019. 115-б.; Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати 2020 йил январь-декабрь 66-б. https://www.stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/5708-choraklik-natijalar-2020#yanvar-dekabr, Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси маълумотлари асосида ҳисобланди https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2.

[37] Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси йиллик статистик тўплами 2010-2018. Т.: 2019. 118 б., 2019-2021 йиллар Давлат Статистика Қўмитаси маълумотлари асосида.

4.4-jadvalda mamlakatimizda sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish 2014 yildagi 11,4 foizdan 2018 yilda 82,7 foizga ko'tarilganligi ijobiy holat. Lekin so'nggi 2019-2021 yillar kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2021 yil 28,4 foiz foydalanildi. Mamlakatimizda talab yuqori bo'lgan yengil avtomobillar ishlab chiqarishda quvvatlaridan to'liq foydalanmaslik (2021 yil 79,7 foiz) asosan tashqi omillar ta'sirida yuz berdi.

Iqtisodiyotning sanoat sektorida agrar sohaning ulushi salmoqli bo'lishi, ushbu sohani texnik ta'minlash vazifasini qo'yadi. Traktorlar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishda ijobiy siljiy bo'lishiga qaramay (2010 yilda 20,9 foizdan 2021 yilda 24,6 foizga) ushbu natijani salbiy baholashimiz mumkin. Traktorlar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining pastligini kompleks tahlil etish lozim. Tahlilni quyidagi yo'nalishlarda olib borish maqsadga muvoffiq:

asosiy vositalarning eskirish, yangilanish va tiklanish koeffisiyentlari tahlili;

bozor konyukturasi va talabini har tomonlama o'rganish;

qishloq xo'jaligi korxonalari-dehqon va fermer xo'jaliklari moliyaviy holati tahlili;

bozordagi sog'lom raqobatchiligi sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligi tahlili.

Tahlil qilingan sanoatning ko'pchilik sohalarida so'nggi yillarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishda ijobiy o'zgarishlar ro'y bergan bo'lsa-da, ba'zi sohalarda, masalan, yengil avtomobillar, poyabzal, sovutgich va muzlatgichlar, sement, xo'jalik sovuni ishlab chiqarish sohalarida salbiy ko'rsatkichlar qayd etildi. Shu bilan birga ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'rsatkichi past bo'lgan sohalar, jumladan, traktorlar 24,6 foiz, sovutgich va muzlatgichlar 28,4 foiz, xo'jalik sovuni 41,1 foiz, margarin mahsulotlari 40,4 foiz, poyabzal ishlab chiqarish 67,8 foiz[38] va boshqa sohalarda mavjud muammolarning sabablarini o'rganish va bartaraf etish yo'llarini topish dolzarb muammodir.

[38] Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси йиллик статистик тўплами 2010-2018. Т.: 2019. 118 б., 2019-2021 йиллар Давлат Статистика Қўмитаси маълумотлари асосида.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 dekabrdagi PQ-4077-son “Ishlab chiqarish quvvatlarini modernizasiya qilish, sanoat tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash jarayonini jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”[39]gi Qarori bilan yuqorida qayd etilgan muammoni hal qilish choralari ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi. Prezident Qarori bilan mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, asosiy vositalarni modernizasiya qilish, sanoat tarmoqlarini zamonaviy texnik va texnologik qayta jihozlash tadbirlari, ularning eksport salohiyatini yanada ko’tarish choralari amalga oshirilishi, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, respublikadagi sanoat tarmog’i korxonalarining xorijiy investorlar uchun investisiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida bir qator iqtisodiy o’zgarishlarni amalga oshirish, jumladan, davlatga tegishli bo’lgan korxonalar aksiyalar paketlarini tanlov asosida ishonchli investorlarga topshirish belgilandi, “Olmaliq KMK” AJ, “O’zmetkombinat” AJ va “O’zikkilamchiranglimetall” AJ faoliyatini yanada takomillashtirishga oid yo’l xaritasi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Sanoat sektorning qurilish tarmog’i to’lqinsimon o’sish tendensiyasiga ega. Tahlil etilayotgan davrda bu tarmoqning yillik o’sishi 2010-2011 va 2016-2017 yillarda 4,2-8,1 foizni, 2012-2015 va 2018-2019 yillarda 14,3-19,0 foizni tashkil etdi. Shu davrda qurilish tarmog’idagi jami ishlarning 72-80 foizi bino va inshootlar qurilishi, rekonstruksiya qilinishi, kengaytirilishi va korxonalarning texnik qayta qurollantirilishi ishlariga, 20-28 foizi atrofida fuqarolik qurilish obyektlarini qurish va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to’g’ri keladi. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi[40] va O’zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar

[39] Ўзбекистон Республика Президентининг 2018 йил 25 декабрдаги ПҚ-4077-сон “Ишлаб чиқариш қувватларини модернизация қилиш, саноат тармоқларини техник ва технологик жиҳатдан қайта жиҳозлаш жараёнини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарор.

[40] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февральдаги ПФ-4947 сон Фармони.

konsepsiyasiga[41] muvofiq respublikada arxitektura-qurilish sohasi va shaharsozlikka innovasion g'oyalar va ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi[42] tashkil etildi va "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi[43] yaratildi. Tizimning asosiy vazifalari bo'lib, obyektlarning manzilli dasturini ishlab chiqish va yuritish, ularning loyiha-smetasiga oid hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish, qurilishni moliyalashtirish, obyektlarda qurilish jarayonlarini nazorat qilish belgilandi.

Amalga oshirilgan iqtisodiy o'zgarishlar o'z natijasini ko'rsatib, tarmoqdagi iqtisodiy o'sish o'tgan yilga nisbatan 2018 yilda 14,3 foiz, 2019 yilda 19 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda 2021-2025 yillarda qurilish tarmog'ini rivojlantirish strategiyasi[44] qabul qilingan va amalga oshirilmoqda.

Respublikada sanoat sektorni rivojlanish tendensiyalarni o'rganish natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

sanoat sektorning o'sish darajasi YaIMda o'z aksini topadi, uning oshishi ichki bozorni tovarlar hamda xizmatlar bilan to'yinishiga ta'sir ko'rsatadi;

birlamchi sektor darajasini ko'tarish bilan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizasiya qilish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga erishiladi;

sanoat sektordagi iqtisodiy o'sish mamlakat moliyaviy sektorining ham rivojlanishiga olib keladi, shu o'rinda aytib o'tish lozimki, milliy iqtisodiyot moliyaviy sektorining sust rivojlanganligi sanoat sektordagi iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi;

---

[41] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасинида Маъмурий ислоҳотлар Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги 2017 йил 8 сентябрьги ПФ-5185 сон Фармони.

[42] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Қурилиш соҳасида давлат бошқарув тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2018 йил 2 апрельдаги ПФ-5392 сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги 2018 йил 2 апрельдаги ПҚ-3646 сон Қарори.

[43] Ўзбекистон Республикаси Қарори "Қурилиш соҳасига ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2019 йил 20 сентябрьдаги ПҚ-4464 сон Қарори.

[44] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси қурилиш тармоғини модернизация қилиш, жадал ва инновацион ривожлантиришнинг 2021-2025 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги 2020 йил 27 ноябрьдаги ПФ-6119 сон Фармони

FTT natijalarining amaliyotga keng qo'llanilishi sanoatni sanoat sektorning lokomotiv tarmog'iga aylanishiga olib keladi. Buning natijasida samaradorlik va daromad oshishi kuzatiladi;

elektron tizimlarning rivojlanishi sanoat sektor korxonalari uchun axborot olish shartlarini osonlashtiradi, hamkorlik istiqbollarini kengaytirishga ko'maklashadi va xarajatlarni kamaytirishga olib keladi;

innovasion g'oyalar va ishlanmalar sektorini rivojlantirish sanoat sektorni yanada yuqori pag'onaga olib chiqadi. Bunda ilmiy-texnik va tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) ajratmalar asosiy o'rin tutadi.

Respublikamizning barcha hududlarida, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yil 1 iyun holatiga ko'ra, 89 ta KSZ tashkil etilgan, ularga jami 1305,25 gektar yer maydoni ajratilgan. Loyihalar soni 1144 ta, kiritilgan investisiyalar 2594,9 mlrd.so'm va 84,15 mln. AQSh dollarini tashkil etadi. Ularda 32 mingga yaqin ish o'rinlari yaratilgan.

KSZ tushunchasi va undan amaliyotda foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2014 yil 31 dekabrdagi 378-sonli qarori qabul qilingandan keyin paydo bo'ldi. Hozircha KSZlar to'g'risida darslik yoki monografiya mavjud emas. Internet saytlarida juda ko'p maqolalar e'lon qilingan bo'lsa-da, ularning deyarli ko'pchiligi ommabop xarakterga ega bo'lib, ularda KSZlarni barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari nazariy jihatdan o'rganilmagan. Shu sababli, hozirgi kunda, KSZning ta'rifi ham aniq berilmagan desak, to'g'ri bo'ladi.

Faqat kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to'g'risidagi nizomda KSZga ta'rif sifatida quyidagilar keltirilgan: zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan, muhandislik kommunikasiyalari o'tkazilgan va zarur infratuzilmaga ega alohida hudud. Yana bir joyda KSZ – iqtisodiy va industrial rivojlanish bo'lib, mahalliy va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirish, aholining bandligini ta'minlash, uni sifatli tovar va xizmatlar bilan ta'minlashga

o’z hissasini qo’shadi deb yozilgan.

Birinchi ta’rif ko’proq amaliyotga yaqinlashtirilgan bo’lib, unda KBXT subyektlarini tanlov asosida joylashtirish e’tiborga olinmagan. Ma’lumki, KSZlar hududi davlat mulki hisoblanadi va u KBXT subyektlariga ijaraga beriladi. Bunday o’zgarmas o’ziga xos xususiyatlar ta’rifda o’z ifodasini topishi kerak deb o’ylaymiz.

Ikkinchi ta’rifda KSZning asosiy vazifalari ko’rsatib o’tilgan, xolos. KSZga ta’rif berishdan oldin xorijiy davlatlarda keng tarqalgan va sanoat ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning samarali shakllari bo’lgan “Sanoat zonasi”, “Industrial zona”, Industrial park, Sanoat kompleksi va klaster ta’riflarini o’rganamiz.

Industrial park deganda, alohida ishlab chiqarish kompleksi bo’lib, yagona rivojlanish konsepsiyasi va infratuzulmasiga ega yo’nalish bo’yicha xizmat ko’rsatish va samarali ishlab chiqarishni boshqaruv kompaniyasi tomonidan ta’minlanuvchi, faoliyati davlat tomonidan kafolatlanuvchi va imtiyoz olish imkoniyatiga ega mintaqa iqtisodiyotining hududiy tarkibi elementi tushuniladi. Industrial parkning asosiy bazis elementlari sanoat ishlab chiqarishiga mo’ljallangan yer maydoni mavjudligi, boshqaruv kompaniyasi va infratuzulmaning (muhandislik, transport, moliya va ijtimoiy) mavjudligi, maxsus iqtisodiy sharoitlar, yagona rivojlanish konsepsiyasi, resurslar va sotish bozorlariga chiqish imkoniyatlari mavjudligi hisoblanadi.

Mualliflarning fikriga ko’ra industrial parklarni barpo etish va rivojlantirish bir qator vazifalar va muammolarni hal etishga olib keladi. Bularni to’rt guruhga bo’lib o’rganish mumkin: Rossiya Federasiyasi darajasida, Rossiya Federasiyasi subyekti darajasida: viloyat, o’lka, respublika, munisipalitet darajasi va tadbirkorlik tarkibi darajasida.

Rossiya Federasiyasi darajasida:

– sanoat ishlab chiqarishini rivojlantiradi;

– innovasion jarayonlarni rivojlantiradi;

– innovasion muhitni yaxshilaydi;

– investisiyalarni jalb etadi;

– hududning balanslashgan, mutanosib va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Rossiya Federasiyasi subyekti darajasida:

– shahar markazidagi sanoat korxonalarini shahardan chetga chiqarish orqali jadal rivojlanuvchi hudud barpo etish;

– byudjetga pul tushumi tushishini oshirish va byudjet mablag’lari samarali sarflanishini oshirish;

– bir qator mintaqalar iqtisodiyotini diversifikasiyalash;

– tadbirkorlik rivojlanishi uchun sharoit yaratish va ish o’rinlarini barpo etish.

Munisipalitet darajasida:

– samarali texnologik zanjirni barpo etish;

– foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarini qayta tashkil etish;

– kichik ta’minotchilar yo’qligi muammosini hal etish;

– tadbirkorlik tarkibi darajasida hudud imkoniyatidan samarali foydalanish.

Tadbirkorlik tarkibi darajasida:

– park elementlarini o’zaro mos holda joylashtirish va aglomerasiya samarasi hisobidan mablag’larni tejash;

– soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalardan foydalanish.

– mavjud infratuzilmadan foydalanish va hokazo.

Industrial parklarning asosiy ustun tomonlaridan biri, ularda ilmiy tadqiqot, sanoat ishlab chiqarishga mo’ljallangan ishlab chiqarishning birgalikda joylashuvi.

Rossiya Federasiyasidagi industrial parklarni barpo etish boshlang’ich pog’onada ekanligi bilan ifodalanadi. Shu sababli, muallifning fikriga ko’ra Rossiya Industrial parklarida rezedentlar asosan mahsulot ishlab chiqarish bilan shug’ullanadi, ilmiy-texnik jarayonlar past darajada.

Rossiyada faoliyat yurituvchi industrial parklarning soni 50 tadan 100 tagacha, AQSh va Xitoyda ularning soni 400 ta, Germaniyada 200 ta, Turkiyada 262 ta. Rossiya Federasiyasida Industrial park maydoni o’rtacha 225 ga ni tashkil etadi. Ushbu ko’rsatkichlarni rivojlangan

G’arbiy Yevropa davlatlari ko’rsatkichlari bilan qiyoslasak, rivojlangan davlatlarda (AQSh, Xitoy, Germaniya) industrial park maydoni 100 ga. dan 30000 gektargacha, rezidentlar soni esa 100 dan 30 minggacha. G’arbiy Yevropa davlatlarida industrial parklar texnologiyani rivojlantirish markazi hisoblanadi va ularda yirik ilmiyishlab chiqarish kompaniyalari faoliyat yuritadi. Masalan, Germaniyada, Franfurkt-Xyoxst Industrial parkida 90 dan ortiq ilmiy-ishlab chiqarish kompaniyalari, biotexnologiya, ximiya va farmasevtika sanoati sohalarida ish olib boradi.

Rossiya Federasiyasida Industrial parklarga tushadigan talabnomalarni (zayavka) tahlil qilish uchun quyidagi cheklovlar belgilangan: bitta rezident uchun ajratiladigan yer maydoni 0,5-5,0 gektar; rezidentning bir gektar yer maydoni hisobidan oladigan daromadi 100-150 mln.rubl; bir gektar yer maydonida yaratiladigan ish o’rni 25-75 kishi: AQSh dollari ekvivalentida bir gektar yer maydoniga to’g’ri keluvchi yillik daromad 1,6 – 2 mln AQSh dollarini tashkil etadi, (dollar kursi: 64 rublga 1 dollar bo’lganda).

Sanoat zonasining industrial parkdan farqi shundaki, bu yerda ilgari sanoat va boshqa yordamchi ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritgan, keyinchalik qisman yoki butunlay faoliyatini to’xtatgan, lekin yer maydoni, ishlab chiqarish binolari va ma’lum darajada infratuzilma elementlari saqlanib qolgan. Bunday hududlarda ishlab chiqarish zonalarini tashkil etish ko’zda tutilgan.

Davlat Dumasi tomonidan qabul qilingan № 778655-6-sonli qonunda ham sanoat zonalarini kompleks rivojlantirish tartibi berilgan. Ushbu tartibda sanoat zonasini kompleks rivojlantirish to’g’risida qaror qabul qilish shartlari belgilab berilgan. Sanoat zonasini kompleks rivojlantirishdan oldin tayyorlash jarayoni davlat tomonidan tartibga solinadi. Zona holati o’rganiladi, keyin sanoat zonasini kompleks rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqiladi va uni amalga oshirish dasturi hamda sanoat zonasi hududining reja loyihasi (zona rezedentlarini joylashtirish) ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Sanoat zonasini rivojlantirish shartnoma asosida amalga oshiriladi. Zonani rivojlantirishda qatnashuvchi har bir mulk egasi mahalliy boshqaruv

organi bilan sanoat zonasini rivojlantirish bo'yicha, o'zaro huquq va majburiyatlarni belgilagan holda kelishuv tuzadi.

Hududni rivojlantirish shartnomasiga ko'ra, hududni rivojlantirishni ta'minlovchi shaxs asosiy quruvchi kompaniya hisoblanadi. Asosiy quruvchi zonani rivojlantirish bo'yicha shartnoma tuzish ya'ni ushbu huquqni egallash uchun kompaniya o'tkazilgan akelishuv savdosida g'olib chiqqan bo'lishi kerak.

Sanoat zonasini rivojlantirishda qatnashuvchi mulk egalari ham shartnoma asosida va tanlovga ko'ra aniqlanadi.

Munisipal tuzilma tarkibida sanoat zonalarini barpo etish va uni investisiyalash masalalariga bag'ishlangan R.V. Kalupayevning ishida sanoat zonasiga quyidagicha ta'rif berilgan: sanoat zonasi – munisipal mulki bo'lgan, yuqori hududiy organ tomonidan tasdiqlangan, asosiy qurilish rejasiga ko'ra, ishlab chiqarishni tashkil etish uchun, munisipalitet tomonidan sanoat qurilishiga ajratilgan yer maydoni. Munisipal tuzilmalarda sanoat zonasi quyidagicha shakllantiriladi: munisipal tuzilmaning ma'muriy organi yuqori ma'muriy organga (shahar, viloyat, o'lka), ishlab chiqarish va infratuzilma obyektlarini qurish uchun yer maydoni ajratib berishni so'raydi. Agar javob ijobiy bo'lsa, ushbu yer maydoni sanoat zonasi uchun ajratiladi, zonada ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy obyektlarni qurish bo'yicha loyiha ishlab chiqiladi, qurilishning asosiy rejasi tasdiqlanadi. Keyin yer ajratiladi va asosiy rejaga ko'ra qurilish amalga oshiriladi. Bu yerda sanoat ishlab chiqarish, infratuzilma va sanitar zona o'zaro mutanosib ravishda joylashadi.

4.2. Ochiq iqtisodiy zonalarni xorij tajribasi, rivojlanish tendensiyalari va uning O`zbekistindagi hozirgi holatini tahlili

Hozirgi davrda sanoati rivojlangan mamlakatlarda turli maqsadlarni ko'zlab erkin iqtisodiy zonalarni vujudga keltirmokdalar. Erkin iqtisodiy zonalar borasida iqtisodiy jihatdan turli tuman ta'riflar mavjud. BMTning shu muammoga bag'ishlangan ishida 20 dan ortiq ta'rif keltirilgan. Birinchi marta erkin iqtisodiy zonalarning yoki "franko zonasi" ning 1973 yilda Kioto konvensiyasida berilgan. Erkin

iqtisodiy zonalarni - davlat hududining muayyan natijalarga erishmoq maqsadida milliy va xorijiy tadbirkorlar uchun iqtisodiy faoliyatning preferensial shartlari, boshqaruvning alohida rejimi va boshqa tashkiliy ma'muriy tadbirlarni joriy etiladigan qismi sifatida ta'riflash mumkin. Hozir jahonda 4 mingdan ortiq erkin iqtisodiy zonalar mavjuddir. Ular turli vazifalarni bajarishi, o'z oldiga turli maqsadlarni umumlashtirgan. Masalan, - maxsus imtiyozlar, barqaror qonuniy baza va tashkiliy muolajalarni soddalashtirish tufayli xorijiy kapitalni va ilg'or texnologiyalarni jalb etish; - tayyor mahsulot eksportini kengaytirish uchun mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanish; - mamlakat va mintaqa byudjetiga valyuta tushumini o'stirish; - yangi ish joylarini yaratish; - tashkil qilish, boshqarish va moliyalash sohasida jahon tajribasini o'rganish va amaliyotga joriy etish hisobidan ishchi kuchi malakasini oshirish.

Rossiyalik iqtisodchilardan A.Kuznesov[45] hamda S.A.Rыbakov va N.A.Orlovalar[2]ning keltirishicha, -Erkin iqtisodiy zona- xorijiy tovarlar hyech qanday bojxona to'lovlarisiz saqlanishi, sotilishi yoki xarid qilinishi mumkin bo'lgan hudud.

Fzbekistonlik Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G.[46] va Rossiyalik Danko T.P., Okrut Z.M.[47] , Igoshin N.V.[48] kabi mualliflar bir ovozdan, - "Erkin iqtisodiy zona - bu mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozli iqtisodiyot amal qiladigan chegaralangan hudud"- degan xulosaga kelishgan.

Janubiy Koreyalik olim Kimning izlanishlariga ko'ra, "Erkin iqtisodiy zonalar – bu xorijiy davlatlar, korxona va firmalar uchun maxsus tashkil etilgan hududlar bo'lib, bu erda ularning korxonalari va ishchi xodimlari hukumat tomonidan berilgan imtiyozlar tufayli o'z

[45] Кузнецов А. Свободные зоны и национальная экономика // Мировая экономика и международные. отношения. - 1990. - N 12. - С. 24; [2] Рыбаков С.А., Орлова Н.А. Особые экономические зоны в России. – М.: Вершина, 2006. – С. 12.

[46] Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Фқув қўлланма. – Т.: Молия, 2010. – Б. 180;

[47] Данько Т.П., Окрут З.М. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве. – М.: ИНФРА-М, 1998. – С. 27

[48] Игошин Н.В. Инвестиции. Организация, управление и финансирование. Учебник для вузов. – М.: Финансы, ЮНИТИ, 2000. – С. 45.

navbatida mavjud qonun-qoidalarga bo'ysungan holda daromad olishi mumkin bo'lgan zonalardir. Davlat erkin iqtisodiy zonalarni yaratishdan maqsad bunday zonalarda boshqa erlarga qaraganda ko'proq iqtisodiy shaffof muhit mavjudligi va bu orqali investisiya oqimini va raqobatbardosh sanoat hamda savdo-sotiq xususiyatlarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi"[49].

V.Papovning tadqiqotlariga ko'ra, "Erkin iqtisodiy zonalar shunday hududlarki, bu boshqa hududlardan alohida ajratilgan davlat tomonidan maxsus imtiyozlar va qulayliklar berilgan bu afzalliklar davlatning biror boshqa erida yoki iqtisodiy tarmog'ida kuzatilmaydi"[50], deb ta'rif beradi.

Mamlakatimiz olimlaridan A.V.Vaxobov, S.S.Mirzalieva, M.A.Raimjonova va A.A.Ostonakulovlar tomonidan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlarida erkin iqtisodiy zonalar va ular faoliyatiga oid o'z ilmiy qarashlarini bayon qilishgan. A.V.Vaxobov tomonidan "Erkin iqtisodiy zonalar - shunday geografik hududki, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan ma'lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi" deb, ta'rif berilgan[8]. S.S.Mirzalieva tomonidan "Erkin iqtisodiy zona - mamlakat (yoki mamlakatlar) hududining muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalarni hal etish maqsadida barpo etiladigan, maxsus ma'muriy boshqaruvga va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning imtiyozli rejimiga ega bo'lgan qismidir" deb, ta'rif berilgan[51]. Ushbu ta'rifda fikrimizcha, muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalarni hal etish maqsadida jalb etiladigan investisiyalar va ular hajmidan kelib chiqib imtiyozlarning belgilanishi nazardan chetda qolgan.

M.A.Raimjonova tomonidan "Mamlakat hududida maxsus iqtisodiy rejim va ma'muriy boshqaruvga ega bo'lgan, davlat

---

[49] Kim Young Rae. (2009). The study on issues related between limits of land development and total control restriction system in the actual conditions within capital region, Seoul National University of Technology, 8-75.

[50] Papava Vladimer. (2007). The Immortal idea of a free economic zone, Georgian Foundation for Strategic and International Studies, 1-16. [8] Вахобов А.В. ва бошқалар. Хорижий инвестициялар. Фқув қўлланма. Тошкент: Молия., 2010. 360 б.-180 б.

[51] Мирзалиева С.С. Эркин иқтисодий зоналарни ривожлантиришнинг хориж тажрибаси. Дисс. автореф. и.ф.н. Тошкент. 2001. -8 б.

aralashuvi kamaytirilgan va ayni vaqtda uning nazoratidan butkul ozod etilmagan, balki xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyat yuritishi uchun mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag'batlantirishlar beriladigan hudud - erkin iqtisodiy hudud", deb ta'rif keltirilgan[52].

A.A.Ostonakulov tomonidan "erkin iqtisodiy zona - hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularga investisiyalarni jalb etish maqsadida alohida imtiyozlar belgilangan, shuningdek, ulardan iqtisodiyotni modernizasiya va diversifikasiyalashning hududiy uslubi sifatida foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiy tuzilmaga joriy qilish uchun tashkil etilgan hududdir"[53]-degan fikr ilgari surilgan. Xususan: H.R.Hamroyevning "Zonal siyosat" nomli monografiyasida erkin iqtisodiy hududlarning tarkibiy jihatdan tuzilishi,faoliyati va jahon tajribasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lim mumkin *1+.

Bundan tashqari, Ye.Avtokushin o'zining risolalarida "erkin zonalar- investisiya o'chog'i" –deb, ta'rif keltirib o'tadi*3+.

Iqtisodiy lug'atlarda erkin iqtisodiy hududlarning (EIH) xorijiy investisiyalarning kirib kelishini rag'batlantirishiga urg'u berilgan. U yerda yozilishicha: "Erkin iqtisodiy hudud: xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyatni rag'batlantiruvchi, imtiyozli valyuta-moliyaviy va qulayroq soliq rejimlariga ega bo'lgan hududdir". Ammo, respublikamizning hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish darajasi erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish, nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq o'rganishni talab etadi. Hozirgi globallashgan davrda har bir davlat o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yishi aniq, lekin bu maqsadlar investisiyalarsiz tashkil etilishi qiyindir. Shu investisiyalarning majoziy ma'noda o'chog'i hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning 150 dan ortiq davlatida tashkil etilgan erkin zonalar mamlakatlar taraqqiyoti uchun xizmat qilib

[52] Раимжонова М.А. Ўзбекистонда эркин иқтисодий ҳудудларга инвестицияларни жалб қилиш: назарий асослари, ҳозирги ҳолати ва истиқболлари. "Extremum-press" нашриёти, 2013 й. 76 б.-116

[53] Остоноқулов А.А. Эркин иқтисодий зоналарда бухгалтерия ҳисоби ва аудитни такомиллаштириш. Дисс. и.ф.н. Тошкент. 2017. -151б-18 б.

kelmoqda.Fzbekistonda ham qariyb, 10 yillik tajriba mavjud. Bu jarayon albatta Fzbekiston uchun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini o'rganishni talab qiladi. Hamma davlatlarda ham erkin iqtisodiy zonalar yaratish ishlari ilmiy asosda, puxta o'ylangan erkin iqtisodiy zonalar siyosati orqali tashkil etilgan, deb bo'lmaydi. Biz bu borada katta tajribaga ega bo'lgan ayrim davlatlardagi zonalarda olib borilgan ishlarni tahlil qilmoqchimiz. Bu borada katta tajribaga ega davlatlar anchagina, ammo qaysi davlatning tajribasiga e'tiborni qaratishda ikki narsani hisobga oldik: birinchidan, erkin iqtisodiy zonalar siyosati borasida o'ziga xos o'rni bor va ikkinchidan, tajribasini Fzbekistonda qo'llash uchun ahamiyati muhimroq davlatlar tanlandi.

Birinchi tanlagan davlatimiz bu - **Yaponiya.** Bu davlat erkin iqtisodiy zonalar siyosati masalasida o'ziga xos tomonlarga ega bo'lib, u quyidagi mezonlar tizimiga tayanadi:

- mintaqalarning cheklangan yer resurslaridan iloji boricha samarali foydalanish;
- tabiiy resurslarning nisbatan kambag'alligini hisobga olish;
- mahalliy va markaziy ma'muriyat manfaatlarini moslashtirish;
- yirik shaharlarda aholining va sanoat ishlab chiqarishning haddan tashqari konsentrasiyalashuvini kuchsizlantirish.

Mamlakat milliy masshtabda mintaqalarni rivojlantirishni rejalashtirishning o'ziga xos usullariga ega. Davlat tomonidan rejalashtirish o'z ichiga rivojlanish rejasining umumiy hamda alohida vazirliklarning qo'shma tadbirkorlikni turli usullari bo'lgan zonalarni rivojlantirish rejalarini oladi. Yaponiyada erkin import zonalari nomini olgan erkin iqtisodiy zonalar keng tarqalgan. Bunday zona "importni rivojlantirish va investisiyalarni jalb qilish hisobida rivojlanish maqsadida qonunchilikda alohida choralar"ni o'z ichiga oladi.

Ular dengiz va havo portlarida tashkil etiladi, bu zonalarni tuzishdan maqsad: portlarda mintaqa miqyosida tovarlarning yig'ilishi oqibatida yapon iqtisodiyotining butun sohalaridagi muomala xarajatlar optimallashtirishdan iboratdir;

xorijiy investisiyalarning o'sib ketayotgan sharoitda mamlakatda sanoat bazalarini "yuvilib ketish" jarayonini sekinlashtirishdan iborat;

qo’shni Osiyo mamlakatlari bilan mehnat taqsimotini kengayishiga ko’maklashishdan iborat;

tartibga solishning yangi usullarini sinashning o’ziga xos

“poligonlarini” yaratishdan iborat.

Yaponiyada quyidagi tur erkin savdo zonalari tuzish taklif etilgan:

importga ko’maklashuvchi erkin iqtisodiy zonalari: eksportga mo’ljallangan o’sish davriga oid tartiblarni ko’rib chiqish va o’zgartirish (10 mingga yakin qarorlarni ko’rib chiqish zarur). Bu zonalar Xitoy maxsus zonalari va Tayvanning eksport qayta ishlash zonalariga nisbatan o’zaro bir-birini to’ldiruvchi munosabatda bo’lishi zarur.

resursni tejovchi erkin iqtisodiy zonalari. Ularda jahon bozorlarida konyunktura qulay bo’lgan davrda sotib olinadigan xomashyoning yirik zaxiralaridan bojsiz saqlash kuzda tutilgan. Xomashyoni yapon iste’molchilari ham, zonada ishlab chiqarish bilan shug’ullanuvchi xorijiy firmalar ham ishlatishlari mumkin;

egizak zonalar, ya’ni Xitoyning maxsus iqtisodiy zonalaridagi mehnat ko’p talab qiladigan ishlab chiqarishlarni to’ldiruvchi zonalar. Bu zonalarga egizak zonalardagi xomashyo va detallarga asoslanuvchi kapital ko’p talab qilinadigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish ko’zda tutilgan:

Okean oldi mamlakatlaridagi firmalar uchun “eng qulay” tartibli erkin iqtisodiy zonalari;Ulardagi korxonalar, hatto yapon texnologiyasini qo’llasalar ham soliq imtiyozlarga ega bo’ladilar.

xalqaro savdo bilan aloqador masalalar bo’yicha ma’lumot-maslahat beruvchi maxsus tashkilotlar tuziladigan erkin iqtisodiy zonalari;

iqtisodiy taraqqiyoti darajasi past bo’lgan mamlakatlarga ko’maklashuvchi erkin iqtisodiy zonalar. Ularda rivojlanayotgan mamlakatlar tovarlarining sifat darajasini ko’tarish Yaponiyada mavjud marketing to’g’risidagi ma’lumotlarni tarqatish, sifatini boshqarishning yapon tizimini joriy etishga ko’maklashish ishlari olib boriladi.

Erkin import zonalari bilan bir qatorda ilmiy - texnik tipidagi

tadbirkorlikni rivojlantirishga mo'ljallangan erkin iqtisodiy zonalar ham mavjud. Ular AQShning texnoparklariga o'xshab ketadi, ammo ancha farq qiladi.

Texnopolis deganda, shahar va uning atrofi yaxlit bir hudud sifatida qaralib, unda yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari, ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari (texnopolis uchun ilmiy va injener kadrlarni tayyorlovchi), hozirgi zamon ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma joylashtiriladi. Bu tuzilmalarning eng muhim farq qiluvchi xususiyatlaridan biri, chekka tumanlar iqtisodiyotini ko'tarishning bosh richagi sifatida ilm ko'p talab qilishi va qo'shilgan qiymat hissasining-yuqoriligi bilan ajralib turuvchi ilg'or, o'zlashtirish bosqichida yoki rivojlanish bosqichida bo'lgan tarmoqlar texnologiyalar tanlab olingan.

"Texnopolis" dasturi quyidagi maqsadlarga ega:

sanoatni markazdan chekka o'lkalarga qayta taqsimlash,

-mahalliy universitetlardagi ilmiy xodimlarning faoliyatini aktivlashtirish hisobidan ilmiy ishlanmalarni intensivlashtirish;

sanoatni ilm ko'p talab qiladigan va energiyani tejovchi texnologiyalarga qayta mo'ljallashtirish.

"Texnopolis" dasturini Yaponiyaning tashqi savdo va sanoat vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu dastur bo'yicha mamlakatning iqtisodiy jihatdan qolok prefekturalarida 20 ga yaqin texnopolis nomini olgan ilmiy - texnik zonalarni yaratish ko'zda tutilgan edi. "Texnopolislar sgrategiyasi" - Yaponiyani umummilliy krezisdan olib chiqish va dunyoning buyuk davlatlar qatoriga olib chiqishga yordam bergan ishlardan biridir.

Odatda texnopolis deganda, iqtisodiyotda yangi texnologiya tadqiqot markazlari va shu texnologiyadan foydalanuvchi korxonalar asosiy rol uynaydigan shahar tushuniladi. Lekin, bu ta'rif asosiy mazmunni ifodalamaydi: yangi texnologiya odamlar orasida, odamlar va tabiat orasida qandaydir munosabat yaratishda qurol bo'lib hisoblanadi. Birinchi texnopolislar yaratilishi AKShda boshlandi, ammo faqatgina yaponlar texnopolislarni davlat darajasida shakllangan siyosatga aylantirdilar. Fikrimizcha, bu yapon hukumati olib borgan erkin iqtisodiy zonalar siyosatining kuchliligidandir. XX asrning 70-

yillarida Yaponiya asosida yapon millatining saqlash va rivojlantirish maqsadi yotgan, insoniyat erishgan ilmiy na madaniy potensialni ongli ravishda foydalanish jarayonini davlat tomonidan tashkil etishning strategiyasi ishlab chiqildi. Bu strategiya “texnopolislar strategiyasi”, ya’ni odamlarning yangi yashash sharoitlarini hokimiyat, biznes va ilm bilan birgalikda ishlab chiqarish nomini oldi.

Quyilgan maqsad quyidagi 3 yo’nalishda amalga oshirildi:

mahalliy resurslarni ishlatish asosida mahalliy hayotni faollashtirish.

zamonaviy texnologiyani jalb qilish va texnopolisni shakllantirish asosida mahalliy hayotni faollashtirish.

aholi bilan ish olib borish (“sifatli resurslarni tarbiyalash” ma’noda).

Yapon iqtisodiyotini rivojlantirishga monopolislar ham xizmat qilmoqda.Ularning yordamida Yaponiya texnologik yangiliklarni import qilishdan o’zining milliy ishlab chiqarish texnologiyalarni ishlashini amalga oshira oldi. Xulosa qilib aytganda, texnopolislar yapon iqtisodiyotini o’zgarib ketishiga olib keldi. Agar Yaponiya yigirmanchi asrning 70 - 80 yillarida dunyoning texnologiyalar importyori bo’lgan bo’lsa, 90- yillarda esa esportyoriga aylandi. Bunda texnopolislarning roli juda beqiyosdir.

Janubiy Koreya. Koreya uzoq vaqt mobaynida o’z mamlakatiga xorijiy investisiyalarni deyarli jalb qilmasdan kelgan. Mamlakat hududida xorijiy qo’shma korxonalar bo’lmagan. Faqat 1960 yil “Xorijiy investisiyalarni jalb qilish to’g’risida”gi qonun qabul qilingach sharoit o’zgardi. Bu investorlarga qator imtiyozlar bergandi. Ammo bu konun o’z imtiyozlarini 10 yildan keyin bera boshladi. 1970 yilda Janubiy Koreyada birinchi erkin iqtisodiy zona tashkil etildi, bu xorijiy kapital oqimini jadallashtirib yubordi. Asosiy maqsad, mamlakat iqtisodiyotida faqat eksport uchun ishlaydigan korxonalar sonini ko’paytirish, mamlakatning agrar rivojlanishda, mehnat ko’p talab qiladigal sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga erishish edi. Koreyadan o’rganadigan muhim jihatlardan biri, erkin iqtisodiy zonalardagi korxonalar eksport-import faoliyat uchun lisenziya talab etilmasligidir.

Xorijiy investisiyalar o’zi bilan birga zamonaviy menejment va biznes axloqini olib kirishdi desak, hyech ham mubolag’a bo’lmaydi.

Janubiy Koreyadagi xorijiy kapital jalb qilishni rag’batlantirish jarayoni 2 bosqichni bosib o’tdi.

bosqich (1962-1984 yillar). Barcha xorijiy investorlar quyidagi imtiyozlarga ega edi: -soliq imtiyozlari (daromad solig’i, korporativ soliq, mulk solig’i 50% kamaytirilgan); -bojxona to’lovlaridan ozod qilish; - import qilinadigan uskunalar qo’shilgan qiymat solig’idan ozod qilinadi.

bosqich (1984 yildan hozirgi kungacha). Faqat yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirishni rag’batlantiruvchi soliq solish tizimi kiritilgan.

Unga, quyidagi imtiyozlar kiritilgan:

daromad solig’i. Kapitali 100 % xorijiy bo’lgan qo’shma korxona ishlovchi xorijiy fuqarolar bu soliqni to’lashdan ozod qilinadi;

korporativ soliq. Kapitali 100 % xorijiy bo’lgan korxonalar korporativ soliqdan ozod qilinadi;

birinchi besh yil soliq to’lashdan ozod qilinadi, keyingi 3 yil soliqqa 50 % li imtiyoz beriladi;

xorijiy investorlarga dividentlarini xorijga ko’chirishda huquqiy himoya qilingan hamda hyech qanday to’siqsiz yo’qligidir.

Tadqiqotlarimiz davomida Janubiy Koreyada bir qancha erkin iqtisodiy zonalar qishloq xo’jaligi va olis tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishga qaratilganligiga amin bo’ldik. Ushbu tumanlarda aholi boshqa tumanlarga nisbatan juda zich joylashganligi hamda ularni ish bilan ta’minlashga erishilgan va mehnat ko’p talab qiladigan tarmoqlar ixtisoslashtirilgan.

Janubiy Koreyadagi erkin iqtisodiy zonalarni o’rganishdagi muhim xulosalardan biri shuki, fan milliy korporasiyalarining investisiyalarini mamlakatga jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalar kuchli qurol ekanligini yaqqol isbot qilib berdi.

Xitoy. Xitoydagi erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiy islohotlarning jadal sur’atlar bilan borishida juda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda erkin iqtisodiy zonalarning hissasi 20 %ni tashkil etadi. Xitoy

Osiyoning mamlakatlari ichida birinchi bo’lib erkin iqtisodiy zonalar to’g’risidagi qaror qabul qildi. Xitoy olimlari erkin iqtisodiy zonalarni yaratishdan oldin AQSh, Yaponiya, Gongkong, Singapur, Tayvanlarni tajribasini chuqur va har tomonlama o’rganib chiqishganligi ular yuritgan erkin iqtisodiy zonalar siyosatida ham o’z aksini topgan.

Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar yaratishdan quyidagi maqsadlar ko’zlangan edi:

Xorijiy kapitalni jalb qilish.

Rivojlangan mamlakatlardagi ilg’or texnologiyani va menejment tajribasini qabul qilish.

Samarador ish joylarini yaratish yo’li bilan nafaqat aholi bandligi darajasini ko’tarish, balki aholining turmush darajasini oshirish, mamlakat ijtimoiy muhitni barqarorlashtirishga erishish.

4. Eksportni ko’paytirish yo’li bilan valyuta tushumlarini oshirish.

Chet el kapitalidan eng unumli tarzda foydalanish.

Xalqaro iqtisodiy va texnologik hamkorlik darajasini oshirish iqtisodiy va texnologik axborotni yig’ish, xorijiy mamlakatlar hamkorlik va tashqi savdo sohasida band bo’ladigan kadrlarni tayyorlash.

Ijtimoiylashgan keng masshtabda ishlab chiqarishni boshqarishdagi xorij tajribasini o’rganish.

Zamonaviy sanoat korxonalari turini yaratish.

Yangi tur mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni xalqaro ko’lamda raqobatbardoshligini ta’minlash.

Ichki sanoatga etibor bergan holda, asosiy e’tiborni tashqariga yo’naltirilgan iqtisodiyotni qurish, sanoat, savdo va qishloq xo’jaligi integrasiyasi, chorvachilik, baliqchilik va turizmni bir vaqtda rivojlantirish. Maxsus iqtisodiy zonalarda aholi jon boshiga daromad miqdorini jadal oshirish.

Xitoy tajribasida zona uchun joy tanlashda quyidagilar asosiy hisoblangan:

tashqi bozorga mustaqil ravishda chiqishini ta’minlay oladigan yirik port bo’lishi kerak (yoki bunday port qurilishi kerak);

jahonning yirik moliyaviy iqtisodiy markazlariga qulay

joylashgan bo’lishi kerak (birinchi navbatda Gonkong, Singapur va Yaponiya shaharlariga);

aholi zichligi unchalik yuqori bo’lmagan, nisbatan erkin, bo’sh maydonlarga ega bo’lgan joylarda joylashishi kerak (yangi sanoat obyektlarini qurish va yangi ishlovchilarni joylaylashtirishga imkon bo’lishi uchun).

Xitoy iqtisodiyotiga xorijiy investorlarni jalb qilgan asosiy omil bu nafaqat erkin iqtisodiy zonalarda, balki mamlakat miqyosida infratuzilmaning yuqori darajada tashkil etilganligidir. Infratuzilma bu - shunday omilki, u davlatdan zonalarni yaratish bo’yicha asosiy qo’yilmalarni talab qiladi va o’z navbatida, ular faoliyat yuritishining makroiqtisodiy samaradorligini belgilaydi. Bunda Xitoyliklar infratuzilmaning shakllanishi “oltita qo’yilish, tekislash” shiori ostida ketmoqda. Yo’llarni, suv, gaz quvurlarini, kommunikasiyani, issiklik, elektr uzatish liniyalarini qo’yish va shuningdek yer uchastkalarini tekislash. Bundan yaxshi ko’rinadiki, qurilish deyarli noldan boshlangan.

Xitoy erkin iqtisodiy zonalaridagi imtiyozlar tizimi quyidagilardan iborat:

kamida 5 yil muddatda o’z foydasini Xitoyga qayta investisiyaga aylantirgan xorijiy investorlarga reinvestisiya qilingan ulushga mos ravishda to’langan daromad solig’ining 40% qaytarib beriladi;

past rentabelli yoki iqtisodiy chekka va qoloq tumanlariga o’z kapitalini kiritgan tadbirkorlar 11 yildan boshlab, (10 yil imtiyoz davridan keyin) daromad solig’ini 15-30 foizi mukofot tarzida chegiriladi;

5 mln. AQSh dollaridan ortiq investisiya kiritgan yoki zamonaviy texnologiyani taqdim etgan yoxud aylanma kapitali sekin aylanadigan korxona solig’idan qisman yoki to’liqligigacha ozod qilinishi mumkin;

bojxona zonalariga bojxona - sanoat solig’i hamda bojxona to’lovlarini to’lamasdan, xohlagan mahsulotni kiritish mumkin. Bu tovarlarni ichki bozorda olib kiritilayotganda esa soliq va to’lovlar to’liq holda olinadi*5+.

Tadqiqotlarimiz davomida Xitoy tajribasidagi yana bir jihat, bu

erkin iqtisodiy zonalardagi mahalliy hukumatlarning qo'shma korxonalar uchun mahalliy byudjetga aloqador bo'lgan soliqlar bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar berishi bo'ldi. Masalan, subsidiyalar past narxlar tizimi orkali kommunal xizmati uchun, uchastkalardan va ishlab chiqarish xonalaridan foydalanish uchun ijara to'lovini arzonlashtirishga, shuningdek, byudjet dotasiyalari va davlat kreditlari beriladi. Ma'muriy imtiyozlar investorlarni infratuzilma vositalarini ta'minlashga, qayd qilish va bojxona muolajalarini soddalashtirishga tegishli, shuningdek biznesga ko'maklashayotgan turli xil xizmatlarni ko'rsatishga tegishlidir.

Xitoy tajribasidan xulosa qiladigan bo'lsak, erkin iqtisodiy zonalarni yaratishda va rivojlantirishda ular qo'yidagilarga asosiy e'tibor qaratganlar:

Puxta o'ylangan huquqiy – me'yoriy normativ baza yaratilganligi;

Iqtisodiy, moliyaviy va boshqa imtiyozlarning turi va darajasi mahalliy sharoit, qo'yilgan maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda puxta ravishda tabaqalashtirilgan.

Zonalarda moslashuvchan investisiya siyosati amalga oshirilganligi.

4 Ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot bazasi va savdo-sotiq tizimini qayta ishlash sanoatini kompleks rivojlantirishga qaratilganligi.

Katta miqdorda nisbatan arzon bo'lgan ishchi kuchining mavjudligi.

Eksport uchun real va shaffof ishlash imkoniyatining yaratilishi.

Xitoy sug'urta kompaniyalari xorijiy investorlarni sug'urtalashni o'z bo'yniga olganligi.

Erkin iqtisodiy zonalar rivojlanishini davlat tomonidan keng tarzda qo'llab-quvvatlash ammalga oshirilganida, deb bilamiz.

Bu tajribani Fzbekistonda ishlab chiqish va erkin iqtisodiy zonalarni yaratishda o'rganish lozim.

AQSh. Erkin iqtisodiy zonalar masalasida juda katta ishlar olib borayotgan va katta yutuqlarga erishgan davlat bu - Amerika Qo'shma Shtatlaridir. Hozirgi kunda, AQShda faoliyat olib borayotgan erkin iqtisodiy zonalar soni 2000 tadan ortiqni tashkil etadi. Ularning

ko’pchiligini tadbirkorlik, tashqi savdo va texnik - tadqiqot zonalari tashkil etadi.

AQShning tajribasidan shuni ko’rish mumkinki, erkin iqtisodiy zonalarning shakllaridan biri bo’lgan texnik-tadqiqot zonalar yoki texnopolislar yaratish va rivojlantirish borasida yuqori tajribaga ega. AQSh texnopolislarini yaratish dasturida asosiy e’tibor quyidagilarga qaratiladi:

- texnik jihatdan qo’llab-quvvatlash;

kadrlar bilan yordam berish;

- qurilish maydonlari va inshootlarini tayyorlash uchun lisenziya va subsidiya berish shaklidagi tijorat yordami;

moliyaviy yordam (xodimlarni texnik jihatdan tayyorlash uchun ssuda, subsidiya va qarzlar berish, ilmiy tadqiqot ishlari uchun soliq imtiyozlarini berish)*7+.

AQShning tadbirkorlik zonalari faoliyati tajribasining umumiy xulosasi shundan iboratki, tashkil etiladigan zona unchalik ko’p bo’lmagan tuzilmani o’z ichiga olishi, sohaga nisbatan rag’bat, imtiyozlar tizimiga boy bo’lishi lozim.

Tashqi savdo zonalari tahlili shuni ko’rsatadiki, bu zonalarda eksport mamlakat bo’yicha o’rtacha ko’rsatkichga nisbatan ancha tezroq o’sadi. Ular bevosita yoki bilvosita aholining bandlik darajasini oshiradi, iqtisodiyotga nafaqat lokal darajada, balki butun milliy iqtisodiyot darajasida ijobiy ta’sir etadi, deb qaralgan. Ularda asosiy e’tiborni xalqaro marketingni rivojlantirishga, xalqaro savdo markazlarini yaratishga qaratilgan.

Tashqi savdo zonalarining ikki turi mavjud: umumiy zonalar (general 116nstitu, GR) va maxsus kichik zonalar (spesial 116nstitu, SR).

Eng muhim jihat zonalarda tovarlar 4 turga ajratiladi va ularning har biriga alohida bojxona tartibi tuzilgan:

imtiyozli xorijiy tovar maqomi;

imtiyozi bo’lmagan xorijiy tovar maqomi;

ichki tovar maqomi;

zona miqyosidagi tovar maqomi.

Rossiya. Rossiyada erkin iqtisodiy zonalar Xitoy tajribasidan foydalangan holda tashkil etilgan. Rossiya investisiyalar oqimini o’ziga jalb qiluvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni hisoblaydi: - yirik ichki bozor;

arzon xomashyo va energiya resurslari;

malakali va nisbatan arzon ishchi kuchi hamda foydalanilmayotgan ilmiy potensial;

olim va yuqori malakali mutaxassis kadrlarning nisbatan arzonligi;

harbiy-sanoat kompleksining qudrati va zamonaviy potensiali*6+.

Rossiya hukumatining erkin iqtisodiy zonalar siyosatini tahlil qilsak, erkin iqtisodiy zonalar yaratishning birinchi bosqichida markaziy hukumatda erkin iqtisodiy zonalar siyosati yaxshi yuritilmagan. Natijada ular «quyidan», mahalliy hokimiyatlar tashabbusi bilan, katta-katta maydonlarni erkin iqtisodiy zonalar, deb e’lon qilishdan boshlandi. Ammo, 1994 yildan erkin iqtisodiy zonalar siyosati shakllana boshladi. Buning xususiyatlari quyidagilardan iborat bo’lganligini izlanishlarimiz orqali ko’rib o’tdik. Masalan: -yirik maydonda zona yaratishga kat’iy to’siq qo’yilganligi;-yaratilajak zona maydonini iloji boricha davlat tomonidan qisqartirishga harakat qilinganligi;-mahalliy sharoit xususiyatlarini chuqur o’rganmasdan, xorijdagi erkin

iqtisodiy zonalarning sodda shakllarini kiritish boshlangani; -zonani boshqarish byurokratik tamoyillar bo’yicha olib borishga katta e’tibor qaratilganligini anglash mumkin.

Ammo, Rossiya texnik tadqiqot zonalari yaratishda o’ziga xos tajribaga ega, desak mubolag’a bo’lmaydi. Chunki ular harbiy vazifalarni bajarish uchun “yopiq” va “yarim yopiq” deb nomlangan ilmiy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan shaharlar paydo bo’ldi. Ularni naukograd deb nomlashadi. Naukograd (ilm shaharchasi) aholi yashaydigan joy sifatida Rossiyada yirik ilmiy tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish komplekslarida mamlakatning oliy hukumat organi qarori asosida ilmiy-texnik yo’nalishning davlat ahamiyatidagi muhim

vazifalarni hal kilish uchun barpo etilgan. Ular odatda bir yirik zavod yoki ilmiy – tekshirish 118nstitute atrofida barpo etildi. Ular fanni oldinga surishda katta xizmat qildi. Hozirgi paytda Rossiyada naukogradlar soni 70 ga yaqindir.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, Rossiya tajribasidan texnik tadqiqot zonalari amaliyotini o'rgansak maqsadga muvofiqdir.

Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etayotgan yoki yaratayotgan ko'plab mamlakatlar quyidagilarga erishganlar:

birinchidan, iqtisodiy jihatdan qoloq mintaqalarni rivojlantirish;

ikkinchidan, texnologiyalarni modernizasiyalash;

uchinchidan, yangi nou-xaularni, texnologiyalarni mamlakatga o'zlashtirish;

to'rtinchidan, o'z mutaxassislarini va ishchilarini mehnatning, boshqaruvning va sotishning yangicha usullariga o'qitish va o'rgatish;

beshinchidan, eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun o'z xomashyo resurslaridan oqilona va yuqori samaradorlikda foydalanish.

4.5-jadval

Erkin iqtisodiy zonalarning shakllari									
Savdo zonalari		**Ishlab chiqarish zonalari**		**Texnik tadqiqot zonalari**		**Xizmat ko'rasatish zonalari**		**Majmuaviy zonalar**	
Mos ravishda ularning turlari									
1	Erkin savdo zonasi	1	Sanoat ishlab chiqarish zonasi	1	Texnopark	1	Erkin bank zonasi	1	Maxsus iqtisodiy zona
2	Erkin bojxona zonasi	2	Eksport ishlab chiqarish zonasi	2	Erkin ilmiy zona	2	Offshor zona	2	Mintaqaviy zona
3	Erkin logistik zona	3	Kichik tadbirkorlik zonasi	3	Texnopolis	3	Turistik zona	3	Xalqaro erkin iqtisodiy zona
4	Erkin port	4	Import zona	4	Ilmiy texnologik zona	4	Erkin qayta ishlash zonasi		

5	Tranzit zona	5	Erkin savdoishlab chiqarish zonasi	5	Erkin innovasiya zonasi	5	Erkin sug'urta zonasi	
6	Erkin tashqi savdo zonasi	6	Agropolis	6	Ilmiy – texnik tijorat parki	6	Makiladoris	

Mamlakatimiz rivojlanish strategiyasining asosiy zonal siyosat borasidagi yo'nalishi -bu mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish. Bu borada Respublikamizda juda ko'p qonunlar qabul qilindi. 1996 yil aprelda qabul qilingan "erkin iqtisodiy zonalar" haqidagi qonun iqtisodiyotni erkinlashtirishni har tomonlama ishlab chiqilgan qonuniy xo'jalik tizimiga integrasiya jarayonlarini jadallashtirishda iqtisodiy erkinlik, bu samarali o'tish davrining asosiy o'zagini tashkil etadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda quyidagi turdagi erkin iqtisodiy zonalar faoliyat olib bormoqda.

Xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikda erkin iqtisodiy zonalarning eng optimal modellarini tashkil etish, bir tomondan Respublikamizning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ijobiy va samarali ta'sir etsa, ikkinchi tomondan xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnini ko'taradi. Bunday hamkorlik asosida jahon iqtisodiyotiga hos bo'lgan fundamental xususiyat, ya'ni baynalminallashuv jarayoni yotadi. Bu munosabatlarning shakllanishi, jahon iqtisodiyoti jarayonlari globallashuvining asosiy mezonidir.

Mustahkam barqaror, ishlab chiqarish, savdo iqtisodiy aloqalarning rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlar o'rtasida shakllanishi va rivojlanishi, bozor iqtisodiyoti mexanizmining muhim elementlaridan biridir. Shunday ekan, qabul qilingan qonunlarni hayotga tatbiq etish, erkin iqtisodiy zonalar tuzishning texnik-iqtisodiy asoslangan rivojlanish dastur va proyektlarini ishlab chiqish biz ilmiy xodimlardan chuqur izlanishlarni talab etadi.

Jahon tajribalarini tahlil qilib, erkin iqtisodiy zonalarning mukammal darajada rivojlanishini quyidagi jadvalda ko'rishimiz

mumkin. Bunda davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qaysi turdagi zonalarning o'rni muhimligi aks ettirilgan.

4.6-jadval

Jahondagi erkin iqtisodiy zonalarning namunali turi va ulardagi imtiyozlar[13]

Davlatlar	**Erkin iqtisodiy zona turlari**	**Namunali zonalarning nomi**	**Asosiy berilgan imtiyozlar**
Amerika Qo'shma Shtatlari	Erkin savdo zonalari	"Silikon vodiysi"	Import qilingan komponentlarga soliqlarni kamaytirish
Erkin tadbirkorlik zonalari		Soliq imtiyozlari va soddalashtirilgan hisobot	
Texnologiya parklari		Kredit berishning imtiyozli shartlari va ijara haqidan chegirmalar	
Texnopolislar	"Sakaiminato"	Tezlashtirilgan amortisaziya	
Majmuaviy zona	"Shennon"	ijara haqi va soliq imtiyozlari	
Maxsus iqtisodiy zona	"Shenchjen"	Bojxona va soliq imtiyozlari, daromad solig'i stavkasi 10%, ijara va yer solig'i bo'yicha	
		imtiyozlar (har bir km^2 1520 $)	
Erkin ishlab chiqarish zonasi	"Manaus"	yer solig'ini to'lashdan ozod qilish, mashina va uskunalar importiga soliqlar, boj imtiyozlari, majburiy shart – mahalliy xomashyodan foydalanish	
Birlashgan Arab Amirligi	Erkin savdo zonasi	"Djabel-Ali"	daromad solig'idan va boshqa soliqlardan 15 yilga ozod qilish
Janubiy Koreya	Agropolislar	"Masan"	ijara haqi va soliq imtiyozlari
Rossiya	Erkin bojxona zonasi	"Gavan"	boj to'lovi va soliq imtiyozlari
	Ilmiy - tadqiqot zona	"Naxodka"	barcha soliqlar

mehnat qiymati va unumdorligini oshirish dasturi;

mavjud sanoat bazasi;

erkin iqtisodiy zonalar ma’muriy boshqaruvining samarali tuzilmasini yaratish lozimdir.

Izlanishlarimiz natijasida va yuqoridagi davlatlarning erkin iqtisodiy zonalar borasida tajribalaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Erkin iqtisodiy zona – mahalliy mineral-xomashyo resurslarini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda chuqur qayta ishlash va yuqori qo’shimcha qiymatga ega jahon bozorida raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydigan zamonaviy korxonalar tashkil etuvchi maxsus hududdir- deb yuritish maqsadga muvofiqdir.

Erkin iqtisodiy zonalarni aniq maqsadiga mos holda ixtisosligiga qarab ajratish lozimdir. Hamma zonalarni erkin iqtisodiy zona deb emas, masalan, turizm erkin zonasi, erkin sanoat zonasi, erkin mashinasozlik zonasi va boshqalar.

Fzbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish uchun va davr talablarida tashkil etish uchun uning nazariyadagi belgilarni muntazam ravishda kengaytirib borish kerak. Masalan, mavjud sanoat bazasini kengaytirish yoki servis xizmati, konsalting xizmatlari va boshqalar.

Jahon bozorida erkin iqtisodiy zonani tezroq va shaffof tarzda tanitish uchun yuqori saviyadagi erkin iqtisodiy zonalar siyosatini olib borish lozimdir.

Har bir erkin iqtisodiy zonaning o’z konsepsiyalari bo’lishi va uni xalqaro andozalarga mos, investorlarga sodda va qulay tarzda ya’ni tushunarli holda yetkazish choralarini ko’rish lozim, degan fikrdamiz.

Xulosa qilib aytganda, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda, jahon bozoriga tobora integrasiyalashuviga, to’g’ridan-to’g’ri investisiyalarni rag’batlantirishning o’ziga xos va betakror mexanizmini joriy qilishda muhim soha Har qanday mamlakatda ham erkin iqtisodiy zonalar uchun birinchi qo’yiladigan talab – bu mamlakatdagi siyosiy barqarorlikni va xalqaro

integrasiyalashuvning yuqori darajada ekanligi, elektr energiya bilan yetarli ta’minlanganlik, transport kommunikasiyalari bilan yetarli ta’minlanganlik kabi jarayonlarni xalqaro andozalarga mos kelishidir.

Fzbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini butun xo’jalik huquqiy masalalarni tartibga solish uchun maxsus dastur ishlab chiqarish;

transport kommunikasiyalarni rivojlantirish;

zarur infratuzilma: suv ta’minoti, elektr ta’minoti, ijtimoiy sharoit va boshqalar;

tijorat infratizimi: bank, konsalting, yuridik xizmatlarning mavjudligi;

bozorga kira olish loyihasi;

bo’lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotning erkinlashtirish sharoitida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantiradi.

4.3. O`zbekistonda kichik sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari

Hozirgi vaqtda kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning samarali yo’llaridan biri bo’lib kichik sanoat zonalari hisoblanadi (KSZ). Kichik sanoat zonalari – bu tadbirkorlik subyektlarini joylashtirishga mo’ljallangan, muhandislik-kommunikasiya va infratuzilma obyektlarini, ma’lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o’z ichiga oluvchi xudud. Kichik sanoat zonalari ular joylashgan xududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Xususan, sanoat ishlab chiqarishni jadallashtiradi, hududlarni tadbirkorlik uchun investision jozibadorligini oshiradi, yangi investisiya va yangi texnologiyalarni jalb qilishga, tadbirkorlik faoliyatini rag’batlantirishga va ularni rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib beradi, jamiyat uchun o’lik yuk bo’lib yotgan bo’sh maydonlardan real iqtisodiy sektorni rivojlantirish orqali ulardan samarali foydalanishga, aholi uchun ish joylarini yaratishga, hamda yangi raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulki obyektlarini

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2014 yil 3 iyuldagi PQ-2200 sonli qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zarar ko’rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan hududlarini hamda ortiqcha ishlab chiqarish maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2014 yil 15 iyundagi 192-son qarori hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 31 dekabrdagi “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 378-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom Respublikamiz hududlarida kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishga huquqiy zamin yaratdi desak bo’ladi.

Rossiya Federasiyasida hududlarni rivojlantirishda “Industrial park”, “Industrial zona”, “Promishlennaya zona” kabi ishlab chiqarishni samarali tashkil etish shakllaridan foydalaniladi(2-7). Industrial park deganda-yangi ishlab chiqarishlarni joylashtirish uchun maxsus tashkil etilgan hudud bo’lib, u elektroenergiya, infratuzilma, ma’muriy-huquqiy sharoitlar bilan ta’minlangan, hamda u ixtisoslashgan kompleks tomonidan boshqariladi. Industrial parklarda ishlab chiqarish, omborxona ijtimoiymaishiy va boshqa obyektlar birgalikda joylashadi. Rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSh, Germaniya va boshqa Yevropa davlatlarida industrial parklar fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlari bo’yicha ilmiy-tadqiqot institutlarini, ishlab chiqarish va kadrlr tayyorlash tizimini o’z ichiga oladi. Ularda yaratilgan yangiliklar ishlab chiqarishga tezjoriy etiladi va ishlab chiqarishni oxirgi fan-texnika yutuqlari asosida rivojlantirishga erishiladi. Rossiya Fderasiyasida industrial parklarga ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni jalb etish uchun bir qator imtiyozlar beriladi. Investorlarga beriladigan soliq, kredit imtiyozlarining hajmi asosiy fondlarga kiritiladigan investisiyalar miqdori va investision loyihaning region iqtisodiyotining ustivor rivojlanish yo’nalishi bilan qanchalik bog’liqligiga qarab belgilanadi. Ilgari sanoat ishlab chiqarishi joylashgan, keyinchalik ular faoliyatini qisman yoki to’liq tugatgan

hududlarda sanoat zonalari tashkil etiladi va ularni kompleks rivojlantirish shart-sharoitlari o'rganiladi. Hudud boshida to'liq o'rganiladi, keyin sanoat zonasi hududini kompleks rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi va uni amalga oshirish dasturi ishlab chiqiladi. Industrial park, sanoat zonalari xududi, oxirgi vaqtlarda 100 gektar atrofida bo'lmoqda.

Mazkur sohani o'rganishga dunyoning yetakchi iqtisodchi olimlaridan M. Porter, Axmadeyeva O.A., Lyubova O. V., Belenov O. N., Smolyaninova T. Yu., Shurchkova Yu. V., Berkovich M. I., Antipina N. Fridman A.M., Semenov V.M., Vasilenkova N.V., I., Yegorova A. O., Kuznesova S. N., Lenchuk Ye. B. lar katta hissa qo'shgan (2-8). Bu olimlarni ishlari mintaqa iqtisodiyotini taxlil etish va ularni rivojlantirish masalalariga hamda rossiya hududlarida industrial parklarni va sanoat parklarini tashkil etish, moliyalashtirish ularni rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Industrial parklari va sanoat parklari va zonalari hududiy jihatdan juda katta bulib ularda yirik sanoat korxonalarini joylashtirish va rivojlantirish muammolari qaraladi. O'zbekistonlik olimlaridan Bayeva Sh., G'ulomov S.S., Yaxshiboyev G.K. (10,11,12) va boshqalarning ishlari asosan korxonalar, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishga bag'ishlangan. Lekin, yuqoridagi ishlarda kichik sanoat zonalarini moliyalashtirish masalalari deyarli qaralmagan. Kichik sanoat zonalar zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning va davlat mulki bo'lib foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida va binolarda tashkil etiladi. Bu joylarda ma'lum darajada ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjud, ya'ni, suv, gaz, elektroenergiya ta'minoti va avtomobil yo'llari. Bu o'z navbatida tadbirkorlarning o'z ishlarini yo'lga qo'yish uchun ketadigan boshlang'ich xarajatlarini keskin kamaytirishga olib keladi va biznesni boshlashni tezlashtiradi.Kichik sanoat zonalar uchun ajratiladigan maydonlar tadbirkorlik subyektlariga minimal stavka bilan qo'shimcha koeffisiyentlarsiz uzoq muddatga ijaraga beriladi.Ular uchun zarur bo'lgan tashqi muhandislik kommunikasiya va infratuzilma obyektlarining qurilishi DAK "O'zbekenergo", AK "Uztransgaz" va

mahalliy hokimiyatlar byudjeti mablag’idan amalga oshiriladi va kichik sanoat zonasida joylashgan tadbirkorlik subyektlari elektroenergiya va tabiiy gaz bilan muntazam ravishda ta’milanadi. Kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish tanlov asosida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv kichik sanoat zonalarga raqobatbardosh va eksportbop mahsulot ishlab chiqaruvchi, ya’ni zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqrishni yo’lga qo’yuvchi tadbirkorlarni jalb qilishga sharoit yaratadi. Bu kichik sanoat zonalarning raqobatbaroshligini oshiradi. Maydoni 10 gektar va undan ko’p bo’lgan hududga ega sanoat zonalari uchun Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzurida kichik sanoat zonalarini boshqarish direksiyasi tashkil etiladi. Xuddi shunday, 10 gektardan kam hududga ega bo’lgan, bitta tuman doirasida joylashgan sanoat zonalari uchun – tegishli tuman hokimliklarida ham kichik sanoat zonalarini boshqarish yagona direksiyalari davlat unitar korxonalari shaklida tashkil etiladi. Direksiyalar sanoat zonalari qatnashchilari bilan, tanlov komissiyasi qaroriga asosan uzoq muddatli shartnomalar tuzadi, sanoat zonalari hududida xizmat ko’rsatish ishlarini amalga oshiradi, shartnomalarni bajarilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi, kichik sanoat zona hududini qo’riqlash xizmatini tashkil etadi. Direksiyalar kichik sanoat zonalari faoliyatini tashkil etish bilan bog’liq ishlarni tezlashtirishga xizmat qiladi. Kichik sanoat zonalarining samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarshni klaster asosida tashkil etilishi sinergetik samaraga olib keladi.

kichik sanoat zonalarida kichik biznes subyektlariga umumiy xizmat ko’rsatuvchi tuzilmalarni tashkil etilishi ham qo’shimcha samaraga olib keladi. Masalan: yagona omborxona xizmati, transport xizmati, uskuna va texnologiyalarni ta’mirlash xizmati, ta’minot xizmati, qo’riqlash xizmati va boshqalar.

kichik sanoat zonalaridagi tadbirkorlik subyektlari o’rtasida kooperasiyani yo’lga qo’yilishi har bir tadbirkorlik subyekti amalga

oshira olmaydigan yirik loyihalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Masalan: qimmatbaho yangi uskuna yoki texnologiyani sotib olish, eksportni qo'llab quvvatlash, qo'shimcha ishlab chiqarish sexlarini tashkil etish, logistika xizmatlarini kengaytirish. Yuqoridagilar kichik sanoat zonalarini ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshishga olib keladi.

KSZlarini barpo etishni tashkil etish masalalari zonalarni o'zini ishlab chiqarish subyektlarini joylashtirishga tayyorlash bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Maydonlarni tekislash, muhandislik-kommunikasion elementlarini barpo etish, markaziy avtomobil yo'liga chiqishni taminlaydigan yo'lni qurish, zona atrofini o'rash, zonada qancha kichik biznes subyektlarini joylashtirish mumkinligini aniqlash, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatish obyektlarini aniqlash va ularni joylashtirish, har bir tadbirkorlik subyekti uchun qancha joy ajratish kerak, ularni bir-biridan ajratib turadigan masofa qanday bo'lishi kerak degan masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Toshkent, buxoro, Jizzax viloyatlarida barpo etilgan yoki barpo etilayotgan KSZlarida har bir tadbirkorlik subyekti uchun 0.2-0.5ga. yer uchastkasi ajratilishi kuzatilmoqda.

KSZlarini barpo etishni asoslashda ularning iqtisodiy samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda, birinchi navbatda, zona xududiga joylashtiriladigan tadbirkorlik subyektlarining loyixalari samaradorligini baholashga e'tiborni qaratish zarur. Keyingi bosqichda zona hududini tayyorlash, unda muhandislik-kommunikasion elementlarini, xizmat ko'rstish obyektlarini qurishga sarflangan xarajatlarni etiborga olgan holda zonaning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash zona faoliyatini iqtisodiy asoslashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari, KSZlarni ijtimoiy samaradorligini baholash va uni atrof-muhitga ekologik ta'sirini baholash ham zonalarni tashkil etilishini asoslashda muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Bu yerda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini daromad bilan ta'minlash, atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimal darajada bo'lishiga erishish nazarda tutiladi. KSZlarning iqtisodiy samaradorligini baholash quyidagi bosqichlar

bo’yicha amalga oshirilishi mumkin:

Hududni tayyorlash, ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini yaratishga qilingan xarajatlarni aniqlash, ya’ni, suv, gaz, elektroenergiya ta’minoti va avtomobil yo’llarini yaratish sarflari;

har bir tadbirkorlik subyekti loyixasining samaradorligini uning biznes rejasiga ko’ra aniqlash;

KSZda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum, foyda va xizmatlar ko’rsatishdan tushgan foydani hisoblash;

zonalarda kichik biznes subyektlariga umumiy xizmat ko’rsatuvchi tuzilmalarni tashkil etilishi bilan bog’liq xarajatlarni hisoblash;

KSZning umumiy samaradorligini baxolash.

KSZlarning samaradorligini baholshda malum bo’lgan quyidagi ko’rsatkichlardan foydalanish mumkin: sof joriy qiymat (NPV), rentabellikning ichki me’yori, qoplash yoki samaradorlik koeffisiyenti (IRR), loyixalarni rentabelligini hisoblash (PI). O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 10 avgustdagi 3194-sonli qaroriga muvofiq Toshkent viloyati, tumanlarda 17 ta kichik sanoat zonalari tashkil etildi. Qarorga ko’ra, kichik sanoat zonalari xududida joylashgan ko’chmas davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to’lovi nol stavkasida belgilanadi va import uskunalar va butlovchi qismlar xaridiga yo’naltirish uchun O’zbekiston rekonstruksiya va rivojlanish fondidan 50 million AQSh dollari hajmdagi kredit liniyasini ochish ko’zda tutilgan. Buxoro viloyatida 20 ta kichik sanoat zonalari tashkil etish uchun yer maydonlarini ajratish bo’yicha tanlov e’lon qilingan. Xuddi shunday mamlakatimizning boshqa viloyatlarida ham bo’sh maydonlarda va binolar o’rnida kichik sanoat zonalarini tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Toshkent shahrining Yunusobod, Sergeli va Yakkasaroy tumanlaridagi foydalanilmayotgan korxonalar negizida barpo etilgan kichik sanoat zonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ularning hududida to’qimachilik, kimyo, oziq-ovqat, elektrotexnika mahsulotlari, mebel, zamonaviy qurilish materiallari hamda boshqa raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi 513 ta kichik korxonalar foliyat yuritmoqda. 2016 yilning

o’zida ushbu korxonalar tomonidan 1,1 trln so’mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan, 140 million AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi tovarlar eksport qilingan, 11 mingdan ortiq ish o’rinlari yaratilgan.

Bugungi kunda respublikamizda bo’sh yer uchastkalari va ishlab chiqarish maydonlarida tashkil etilgan KSZlarining soni, O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi mutaxassislarining bergan ma’lumotlariga ko’ra[54], 96 taga yetgan, ularda umumiy qiymati 0.77 trln. so’mlik 1000 dan ziyod loyiha amalga oshirilmoqda. To’qqiz mingdan ziyod yangi ish o’rinlari yaratilgan. Bu loyihalar asosan to’qimachilik, kimyo, oziq-ovqat elektrotexnika mahsulotlari, qurilish materiallari, mebel va boshqa xaridorgir bo’lgan tayyor maxsulotlar ishlab chiqarish yo’lga qo’yilgan. KSZlarining 44 tasi joriy yilning o’zida tashkil etilgan va ularda 120 dan ziyod samarali loyihalarni joylashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Qoraqalpog’iston Respublikasida 1 ta, Xorazm viloyatida 23 ta, Toshkent viloyatida 17 ta, Jizzax viloyatida 12 ta, Andijon, Farg’ona viloyatlari hamda Toshkent shaxrida 8 tadan, Navoiy viloyatida 4 ta, Buxoro, Qashqadaryo, namangan, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlarida 3 ta kichik sanoat zonasi movjud.

Kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarshni klaster asosida tashkil etish orqalili sinergetik samaraga erishish;

Kichik sanoat zonalarida kichik biznes subyektlariga umumiy xizmat ko’rsatuvchi tuzilmalarni tashkil etish;

Kichik sanoat zonalaridagi tadbirkorlik subyektlari o’rtasida kooperasiyani yo’lga qo’yish;

KSZlarini barpo etishni asoslashda ularning iqtisodiy samaradorligini baholash muxim axamiyat kasb etadi. Bu yerda, birinchi navbatda, zona xududiga joylashtiriladigan tadbirkorlik subyektlarining loyixalari samaradorligini baholash. Keyingi bosqichda zona xududini tayyorlash, unda muxandislik-kommunikasion elementlarini, xizmat ko’rstish obyektlarini qurishga sarflangan xarajatlarni etiborga olgan xolda zonaning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash zona faoliyatini iqtisodiy asoslashda muxim

[54] www.biznes-daily.uz/...

ko’rsatgich hisoblanadi. Bundan tashqari, KSZlarni ijtimoiy samaradorligini baholash va uni atrof-muxiga ekologik tasirini baholash ham zonalarni tashkil etilishini asoslashda muxim ko’rsatgichlardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.

2. Axmadeyeva O. A., Lyubova O. V. Industrialnыye parki kak osnova razvitiya regionov na primere Chistopolskogo munisipalnogo rayona Respubliki Tatarstan // Strategiya ustoychivogo razvitiya regionov Rossii. 2013. № 18. S. 8-20.

3. Belenov O. N., Smolyaninova T. Yu., Shurchkova Yu. V. Industrialnыye parki: suщnost i osnovnыye xarakteristiki // Regionalnaya ekonomika i upravleniye. Elektronnыy nauchnыy jurnal. 2013. № 1 (33). S. 66-76.

4. Berkovich M.I., Antipina N.I. Osobennosti i klassifikasiya industrialnыx parkov: regionalnыy aspekt // Vestnik Kostromskogo gosudarstvennogo texnologicheskogo universiteta. 2013. № 1 (3). S. 25-28.

5. Yegorova A. O., Kuznesova S. N. Promыshlennыye parki kak platforma dlya razvitiya chelovecheskogo i finansovogo kapitala // Nauchnoye obozreniye. 2016. № 18. S. 138-141.

6. Kuznesov V. P., Kuznesova S. N., Lapayev D. N. Teoreticheskiye aspektы razvitiya organizasionno-ekonomicheskogo mexanizma formirovaniya promыshlennыx parkov. Kazan, izd-vo Poznaniye Instituta ekonomiki, upravleniya i prava. 2014. 148 s.

7. Kuznesova S. N., Kuznesov V. P. Metodika osenki integralnoy effektivnosti investisionnыx proyektov v ramkax promыshlennыx parkov:monografiya / Mininskiy universitet. Nijniy Novgorod. 2015. 200 s.

8. Garina E., Kuznetsova S., Semakhin E., Se-menov S., Sevryukova A. Development of National Production through Integration of Machine Building Enterprises into Industrial Park Structures. European Research Studies. No. XVIII. Special Issue. 2015. pp.267-282.

9. Porter M. E. On competition. Cambridge. MA: A Harvard Business Review Book. 1998.

10. Bayeva Sh.X. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish metadologiyasini takomillashtirish. Monografiya.-T.: IQTISODIYT, 2015.-120b.

11. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes.-T.: Sharq, 2002.-183b.

12. Yaxshiboyev G.K. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy taminlash masalalari. Nomz. Diss.-T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi.2005.

1-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

QARORI

Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

Qayd etib o‘tilsinki, keyingi yillarda mamlakatimizda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini vujudga keltirish, jumladan ularning faoliyatini tartibga soluvchi mustahkam normativ-huquqiy bazani shakllantirish, erkin iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishga xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etish imkonini beradigan soliq, bojxona imtiyozlari va yengilliklarining keng tizimini yaratish borasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishda jiddiy kamchilik va nuqsonlar mavjudki, ular shunday zonalarni rivojlantirishga va samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 avgustdagi PQ-3175-sonli qarori bilan tashkil qilingan Maxsus idoralararo komissiya tomonidan joylarga chiqib o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi:

birinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududlarida joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlari mavjud emas. Investitsiya loyihalarini ko‘rib chiqishda yangidan tashkil etilayotgan ish o‘rinlari soni, salohiyatli xorijiy sherik va investor-mamlakatning mavjudligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda talab qilinishi, eksport hajmi, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish darajasi hisobga olinmayapti;

ikkinchidan, erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish va amalga oshirish uchun taklif etilayotgan investitsiya loyihalarini kelishib olish va ma’qullash mexanizmi amalda haddan tashqari murakkab byurokratizmga uchragan, bu esa mazkur loyihalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishni qo‘p oylarga cho‘zib yubormoqda;

uchinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari uchun zarur muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini o‘z vaqtida barpo etish masalalariga yetarlicha e’tibor berilmayapti;

to‘rtinchidan, taklif etilayotgan investitsiya loyihalarining ishonchli moliyaviy manbalar, shu jumladan, mahalliy va xorijiy kredit resurslari,

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobiga ishonchli ta’minlanishi mufassal ishlab chiqilmagan. Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalariga biriktirilgan tijorat banklari ushbu muammolarni hal etishda sust ishtirok etmoqdalar;

beshinchidan, erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari Respublika tovar-xomashyo birjasi orqali sotiladigan xomashyo resurslarini zarur hajmda sotib olishda kattagina qiyinchiliklarga duch kelmoqda;

oltinchidan, erkin iqtisodiy zonalarning hududida foydalanishga topshirilgan korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan nihoyatda samarasiz foydalanilmoqda, buning oqibatida ishlab chiqarish va eksport hajmlari hamda ish joylari soni tasdiqlangan biznes-rejalar parametrlariga muvofiq kelmaydi;

yettinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlari rahbarligida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha tashkil qilingan hududiy komissiyalar tomonidan joylarda yuzaga keluvchi masalalarni tezkorlik bilan hal etish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirishning ta’sirchan mexanizmi mavjud emas.

Mana shularning hammasi erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida joylashtiriladigan investitsiya loyihalarini tanlab olish, yer maydonlari ajratib berish tartibi, xomashyo va materiallardan foydalanishni ta’minlash, tadbirkorlik sub’ektlariga kredit resurslari ajratishning prinsipial yangi tizimi yaratilishini taqozo etadi.

Tashqi bozorlarda xaridorgir bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatdosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarilishini ta’minlaydigan mineral-xomashyo va qishloq xo‘jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha yuqori texnologiyali zamonaviy ishlab chiqarishlarni barpo etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun g‘oyat qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish, shuningdek, respublika mintaqalarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, buning asosida yangi ish joylarini tashkillashtirish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida:

Oldingi tahrirga qarang.

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 13 iyundagi PF-153-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2022 y., 06/22/153/0518-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

3. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati sohasida bir-birini takrorlovchi vakolatlar hamda funksiyalarga ega bo‘lgan doimiy faoliyat yurituvchi komissiyalar va ishchi guruhlar tugatilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

(4-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 13 iyundagi PF-153-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2022 y., 06/22/153/0518-son)

* 1, 2 va 4-ilovalar rus tilidagi matnda berilgan.

5. Respublika kengashi (A.N. Aripov) 2017 yilning 1 dekabriga qadar mintaqalarning mavjud mineral-xomashyo, yer, suv, qishloq xo‘jaligi resurslarini, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini, ekologik shart-sharoitini hisobga olgan holda har bir erkin iqtisodiy zonaning tarmoq ixtisoslashuvini belgilasin.

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, tijorat banklari bilan birgalikda ikki oy muddatda har bir erkin iqtisodiy zonaning tarmoq ixtisoslashuvini hisobga olgan holda ana shu zonalarga xorijiy investorlarni jalb etish bo‘yicha «yo‘l xaritalari»ni ishlab chiqsin.

6. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari hududlarida loyihalarni moliyalashtirayotgan barcha tijorat banklariga, tasdiqlangan kvotalar doirasida, kredit liniyalari ochilishini ta’minlaydi;

(6-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

maxsus iqtisodiy zonalar va ularning ishtirokchilariga yer uchastkalarini ajratish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 dekabrdagi «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5600-son Farmoniga muvofiq amalga oshiriladi;

(6-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

kichik sanoat zonalarini tashkil etish nazarda tutilgan yer uchastkalari kichik sanoat zonasining bosh rejasiga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilinadi, umumiy foydalanishdagi yerlar esa kichik sanoat zonalari direksiyasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladi;

kichik sanoat zonalari hududidagi yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilishdan kelib tushgan pul mablag‘lari (Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan xarajatlar chegirib qolingan holda) kichik sanoat zonalarining direksiyalariga o‘tkaziladi, ushbu mablag‘lar kichik sanoat zonalarining bosh rejalari asosida tashqi va ichki muhandislik-kommunikatsiya hamda ishlab chiqarish infratuzilmasini qurish va yaxshilash uchun sarflanadi;

(6-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 oktyabrdagi PF-6320-sonli Farmoniga asosan uchinchi — beshinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2021 y., 06/21/6320/0940-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(6-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 13 iyundagi PF-153-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2022 y., 06/22/153/0518-son)

Oldingi tahrirga qarang.

maxsus iqtisodiy zona va kichik sanoat zonasidagi ishlab chiqarish quvvatlari, birinchi navbatda, tortib kelingan muhandislik infrastrukturasiga ega bo‘lgan hududlarda va faoliyat ko‘rsatmayotgan bo‘sh binolar, inshootlar hamda qurib bitkazilmagan ob’ektlar bazasida joylashtiriladi;

(6-bandning yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(6-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 maydagi PF-5447-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018 y., 06/18/5447/1269-son)

Oldingi tahrirga qarang.

maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi bo‘yicha berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona hududida ishlab chiqarish ob’ekti foydalanishga qabul qilingan sanadan boshlab hisoblanadi;

(6-bandning sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2018 yilning 1 martidan boshlab investorlar maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari direksiyalariga axborot tizimlarini ko‘llagan holda interfaol shaklda investitsiya buyurtmanomalarini taqdim etishlari mumkin;

(6-bandning to‘qqizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

investitsiya kiritish to‘g‘risidagi bitimlarda nazarda tutilgan investitsiya loyihasi parametrlarini bajarish bo‘yicha belgilangan majburiyatlarning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan bajarilmasligi tadbirkorlik sub’ektini maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan belgilangan tartibda mahrum etish uchun asos hisoblanadi;

(6-bandning o‘ninchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

tadbirkorni maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish uning maxsus iqtisodiy zona hududidagi faoliyatini, shuningdek maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisiga mulk egaligi huquqi bilan tegishli bo‘lgan boshqa ob’ektlarga nisbatan huquqlari to‘xtatilishiga olib kelmaydi. Bunda ushbu tadbirkorlik sub’ekti EIZ ishtirokchilari uchun berilgan imtiyozlar va afzalliklardan foydalanmaydi;

(6-bandning o‘n birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektidan, zarur hollarda, yer uchastkasini olib qo‘yish qonunchilikka hamda investor bilan tuzilgan investitsiya kiritish to‘g‘risidagi bitim yoki boshqa shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

(6-bandning o‘n ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(7-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(8-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi «Urgut», «G‘ijduvon», «Qo‘qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-4931-son Farmoni 8-bandining amal qilishi barcha mavjud va yangidan tashkil etilayotgan maxsus iqtisodiy zonalarning direksiyalariga joriy etilsin.

(9-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (B.A. Xodjaev) sug‘urta kompaniyalari bilan birgalikda maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga beriladigan kreditlar bo‘yicha garov ta’minoti sug‘urtalanishini rasmiylashtirishda 0,5 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorda sug‘urta mukofoti undirilishini amaliyotga tatbiq etsin.

(10-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. Tijorat banklariga belgilangan tartibda:

amaldagi kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari — korxonalarning pul oqimlarida vaqtinchalik nomutanosiblik ro‘y bergan hollarda kreditni qaytarish muddatini keyinga ko‘chirish yoki muddatini uzaytirish yo‘li bilan asosiy qarz yuzasidan to‘lovlar miqdorini kamaytirish bo‘yicha kredit shartnomalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

kredit buyurtmanomasini ko‘rib chiqish uchun maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilaridan vositachilik haqi undirilishini bekor qilish va abonent haqi to‘lashdan ozod qilish;

maxsus iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihasi ishga tushirilgunga qadar, ammo normativ muddatdan ko‘p bo‘lmagan davrda berilgan kreditlar yuzasidan qo‘shib hisoblangan foizlarni kapitallashtirish chora-tadbirlarini ko‘rish tavsiya etilsin.

(11-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

12. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining O‘zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalari va kichik sanoat zonalarining Yagona portalini yaratish va 2018 yilning 1 martidan boshlab uni ishga tushirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin, ushbu portal:

(12-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

mamlakatning maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari to‘g‘risida, taqdim etilayotgan imtiyozlar, investitsiya kiritish afzalliklari, infratuzilma, geografik joylashuv, shuningdek, ularning hududida joylashgan davlat mulki ob’ektlari, investorlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar to‘g‘risida davlat tili, rus tili va boshqa xorijiy tillarda kengaytirilgan axborotlar olishni;

(12-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

investorlar, shu jumladan, xorijiy investorlarga hamda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining ishtirokchilariga amalga oshirish tavsiya etilgan investitsiya loyihalari to‘g‘risida axborot berilishini;

(12-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

investorlar, jumladan, xorijiy investorlarga hamda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari ishtirokchilariga interfaol shaklda zonalar direksiyalarining, davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarning xizmatlari, shu jumladan, investitsiya buyurtmanomalari hamda boshqa hujjatlarni qabul qilish, arizalar, blanklar va boshqa zarur hujjatlarning shakllarini olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishini;

(12-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

investorning qaerda va qanday usulda murojaat qilganligidan qat’iy nazar, investitsiya buyurtmanomalarini ko‘rib chiqishning borishi va natijasidan xabardor bo‘lib turish imkoniyatini;

Oldingi tahrirga qarang.

salohiyatli investorlar hamda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari ishtirokchilarining o‘zlarini qiziqtiruvchi masalalar bo‘yicha zonalar direksiyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish imkoniyatini ta’minlaydi.

(12-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(12-bandning yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoniga asoosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

13. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi daxldor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini transport, muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta’minlashga qaratilgan loyihalari O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi va keyingi yillardagi rivojlanish davlat dasturlariga kiritilishini ta’minlasin.

(13-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi PF-5370-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.03.2018 y., 06/20/5370/0975-son)

Oldingi tahrirga qarang.

14. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi:

maxsus iqtisodiy zonalar hududida amalga oshirish taklif etilayotgan loyihalarning doimiy yangilab turiladigan ro‘yxatini shakllantirish, investitsiya buyurtmanomalarini sifatli va tezkor ko‘rib chiqish, maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ishtirokchilari — sub’ektlar tomonidan ma’qullangan investitsiya loyihalari amalga oshirilishini tizimli monitoring qilish yuzasidan;

Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda maxsus iqtisodiy zonalarning har biri uchun sherik-mamlakatni belgilash, salohiyatli xorijiy investorlarni MIZ hududida loyihalarni amalga oshirishga jalb etish, ular bilan tizimli ish olib borish, shuningdek, yangidan barpo etilayotgan ishlab chiqarishlarni zamonaviy uskunalari va texnologiyalar bilan jihozlash qismida maxsus iqtisodiy zonalar hududida ishlab chiqarishni joylashtirishga investitsiya buyurtmanomalarini sifatli va har tomonlama ko‘rib chiqish yuzasidan;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda bekor yotgan yoki qurilishi tugallanmagan ob’ektlar, samarasiz foydalanilayotgan ishlab

chiqarish binolari hamda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining ishtirokchilari — xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning yangidan qurilayotgan korxonalarini joylashtirish uchun yer maydonlari sinchiklab, puxta xatlovdan o‘tkazilishi yuzasidan;

b) O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi — maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida ishlab chiqarishni tashkil etish biznes-rejalarini yoki investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishda tadbirkorlik sub’ektlariga ko‘mak berish yuzasidan;

v) «O‘zbekenergo» AJ, «O‘ztransgaz» AJ, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari — maxsus iqtisodiy zonalar qurilishi va ularning tashqi infratuzilmaga ulanishi, maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari ishtirokchilarining elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv bilan, shuningdek, ularning ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiq tashqi kanalizatsiya tarmoqlari bilan uzluksiz ta’minlanishi yuzasidan mas’ul ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

(14-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

Oldingi tahrirga qarang.

15. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari direksiyalari xodimlarining investorlar bilan ishlash bo‘yicha, shu jumladan, maxsus kurslar tashkil etish yo‘li bilan malakasi muttasil oshirib borilishini ta’minlasin.

(15-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 06/21/36/1175-son)

16. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda:

erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi yangilangan nizomni;

kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi nizomni;

erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlash va ularning ishtirokchilarini ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni, shuningdek, byurokratizm va sansalorlikni bartaraf etishga qaratilgan normalarni

tasdiqlash, nizomlarga loyihalarni amalga oshirish hamda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida joylashtirish uchun tanlab olishning aniq mezonlarini kiritish;

erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga yer maydonlari berish to‘g‘risidagi yangilangan nizomni;

erkin iqtisodiy zonalar hududida soliqlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi yangilangan nizomni tasdiqlash, bunda loyihalarning biznes-rejalari/texnik-iqtisodiy asoslanishining asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlari, (kiritilayotgan investitsiyalar hajmi, tovar aylanmasi va eksport summasi, yaratilayotgan doimiy ish o‘rinlari soni, ishlab chiqarishning valyutada qoplanishi va boshqalar) hisobga olingan holda imtiyozlar qo‘llanilishini nazarda tutish;

erkin iqtisodiy zonalar direksiyalari, ishtirokchilari va investorlari o‘rtasida tuziladigan investitsiya kiritish to‘g‘risidagi namunaviy bitimni tasdiqlash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 maydagi PF-5032-sonli Farmoni bilan tashkil qilingan farmasevtika erkin iqtisodiy zonalariga kiruvchi hududlarning chegaralarini tasdiqlash bo‘yicha qaror qabul qilsin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun vazirliklar, idoralar, joylardagi davlat hokimiyati organlarini muvofiqlashtirishni kuchaytirish va ularning mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 7 avgustdagi PQ-3175-sonli qarori 4-bandining ikkinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

20. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi V.A.Golьshev, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vaziri G.K. Saidova hamda O‘zbekiston

Respublikasi investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasining raisi A.I.Axmedxodjaev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYoEV

Toshkent sh.,
2017 yil 25 oktyabr,
PQ-3356-son

Vazirlar Mahkamasining
2020 yil 9 martdagi
134-son qaroriga
ILOVA
Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi
NIZOM

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi, shuningdek, ularning hududlarida tadbirkorlik sub’ektlarini tanlov asosida tanlab olish va joylashtirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

kichik sanoat zonasi (keyingi o‘rinlarda KSZ deb ataladi) - ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlariaro hududning qonun hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahardagi erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining ma’muriy kengashlari (keyingi o‘rinlarda Ma’muriy kengash deb ataladi) - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar vakillaridan iborat namunali tarkibda tashkil etiladigan kollegial organ;

ijarachi - investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun yer uchastkasi va/yoki ishlab chiqarish maydonlarini uzoq muddatga ijaraga olgan KSZ ishtirokchisi;

ijaraga beruvchi - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va

Toshkent shahridagi KSZni boshqarish direksiyasi;

direksiya - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari qarorlariga asosan KSZ faoliyatini tezkor boshqarish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida tashkil etiladigan davlat muassasasi shaklidagi yagona direksiya;

yer uchastkasi - yer fondining aniq chegarasi, maydoni, joylashgan joyi, huquqiy rejimi va davlat yer kadastrida aks ettiriladigan boshqa tavsiflariga ega qismi;

investitsiya majburiyatlari - investitsiya loyihasini amalga oshirishda talabgor tomonidan qabul qilinadigan, pul bilan ifodalanadigan qiymatga ega bo‘lgan va qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan shakllarda amalga oshiriladigan majburiyatlar;

muhandislik-texnik kommunikatsiyalar - KSZ ishtirokchilarini elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv ta’minoti, kanalizatsiya, transport kommunikatsiyalari va boshqa xizmat turlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlovchi tashqi muhandislik kommunikatsiyalari va infratuzilma;

tanlov - investitsiya loyihasini talabgorlar tomonidan tanlov hujjatlarining mezonlari va shartlariga muvofiq taqdim etilgan eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali tanlab olish tartiboti;

yangi ish o‘rni - KSZ hududida loyihani amalga oshirish doirasida yangi ishchi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnoma tuzish orqali KSZ ishtirokchisi tomonidan tashkil etiladigan (joriy etiladigan) ish o‘rni;

vakolatli vakil - talabgorning yozma ishonchnomasiga asosan tanlovda ishtirok etish uchun vakolat berilgan jismoniy shaxs;

talabgor - tadbirkorlik sub’ekti - taklif etilgan shartlar asosida tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nodavlat yuridik shaxs;

KSZning loyiha-rejalashtirish hujjatlari - aholi punktining bosh rejasi yoki muayyan chegaralarda kishloq hududini (mavjud bo‘lganda) belgilangan tartibda tashkil etishning arxitektura-rejalashtirish loyihasi asosida ishlab chiqiladigan KSZning bosh rejasi;

ishlab chiqarish maydoni - KSZ hududida joylashgan va KSZ ishtirokchilariga uzoq muddatli ijara huquqi asosida foydalanishga beriladigan davlat mulki bo‘lgan ishlab chiqarish bino va ishnootlari;

Ma’muriy kengashning ishchi organi (keyingi o‘rinlarda ishchi

organ deb ataladi) - Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiyot va sanoat bosh boshqarmalari;

Ma’muriy kengashning KSZ faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish bo‘yicha kotibi - Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiyot va sanoat bosh boshqarmalari boshliqlari;

vakolatli organ - qurilishi tugallangan ob’ektni foydalanishga qabul qilish uchun Ma’muriy kengash tomonidan belgilanadigan organ;

KSZ ishtirokchisi - belgilangan tartibda KSZ ishtirokchisi maqomini olgan va KSZ hududida ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik sub’ekti.

2-BOB. KSZNI TAShKIL ETISh VA BOShQARISh TARTIBI

3. KSZ faqat muhandislik-texnik kommunikatsiyalari mavjud bo‘lgan yoki o‘tkazish oson bo‘lgan faoliyat ko‘rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalari negizida tashkil etiladi.

4. Yangi KSZ tashkil etish va faoliyat ko‘rsatayotgan KSZ hududining chegalarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorlar O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan kelishilgan holda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan qabul qilinadi.

KSZ hududining chegaralarini tasdiqlash, shuningdek, ularning keyinchalik o‘zgartirilishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ma’muriy kengash KSZ hududining chegaralarini tegishli tuman (shahar) hokimligi bilan kelishgan holda o‘zgartirish to‘g‘risida takliflar kiritish huquqiga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining KSZni tashkil etish yoki hududining chegalarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorlari KSZning kadastr va yer tuzish hujjatlarini tayyorlash, KSZning bosh rejasini ishlab chiqish, tadbirkorlik sub’ektlariga sanoat ishlab chiqarishini hamda unga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmani tashkil qilish uchun KSZ hududida yer

uchastkasini tegishli tuman (shahar) hokimining qarori qabul qilinmasdan berish uchun asos bo‘ladi.

5. Bitta tuman (shahar) hududida joylashgan bir nechta ishlab chiqarish maydonlarini bitta KSZda birlashtirishga ruxsat etiladi.

6. Yangi KSZ tashkil etish va faoliyat ko‘rsatayotgan KSZ hududining chegaralarini o‘zgartirish masalasini kelishish uchun Ma’muriy kengash O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga quyidagi hujjatlar to‘plamini kiritadi:

yangi KSZ tashkil etish yoki faoliyat ko‘rsatayotgan KSZ hududlarining chegaralarini o‘zgartirish zaruratini asoslaydigan tahliliy ma’lumot, shuningdek, asosli hisob-kitoblar bilan birga KSZning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot;

yer uchastkasining chegaralari va maydonlari (tuman (shahar) hokimligi tasarrufidagi zaxira yer) to‘g‘risidagi ma’lumot, shuningdek, negizida yangi KSZ tashkil etish yoki yer uchastkalarini faoliyat ko‘rsatayotgan KSZ tarkibiga kiritish rejalashtirilayotgan, muhandislik-texnik kommunikatsiyasi mavjud bo‘lgan yoki uni o‘tkazish oson bo‘lgan faoliyat ko‘rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalarining ro‘yxati;

yangi KSZ tashkil etish yoki faoliyat ko‘rsatayotgan KSZ tarkibiga kiritish taklif etilayotgan hududning muhandislik-texnik kommunikatsiyasi va ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjudligi, shuningdek, infratuzilma ob’ektlarini qurish bo‘yicha asosli hisob-kitoblar va moliyalashtirish manbalari ko‘rsatilgan taxminiy talablar to‘g‘risida ma’lumotlar.

7. KSZ hududida shaharsozlik faoliyati KSZning bosh rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

KSZning bosh rejasi loyiha tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladi va aholi punktining bosh rejasi yoki kishloq hududini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etishning loyihasi asosida Ma’muriy kengash tomonidan tasdiqlanadi, aholi punktining bosh rejasi yoki kishloq hududini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihasi mavjud bo‘lmagan taqdirda, KSZning bosh rejasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qurilish bosh

boshqarmalari huzuridagi hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashlari bilan kelishgan holda Ma’muriy kengash tomonidan tasdiqlanadi.

Direksiya KSZning bosh rejasini ishlab chiqish bo‘yicha buyurtmachi hisoblanadi.

8. KSZ faoliyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida tashkil etiladigan direksiyalar tomonidan boshqariladi.

9. Direksiyalar mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq tuzilmaga asosan davlat muassasasi shaklida tashkil etiladi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadigan ustavlar asosida faoliyat yuritadi yoki xususiy boshqaruv tashkilotlari tomonidan ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida boshqarilishi mumkin.

Direksiya o‘ziga biriktirilgan mulklarga nisbatan egalik va foydalanish huquqini, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq KSZ uchun ajratilgan yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini amalga oshiradi.

Direksiya tugatilgan direksiyalarning barcha huquqlari, majburiyatlari va avval tuzilgan shartnomalarining ijrosi bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Direksiyaga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan kelishgan holda, Ma’muriy kengashning qarori bilan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari hududlarda KSZni rivojlantirish uchun shaxsan mas’ul hisoblanadi.

10. Quyidagilar Direksiyalar faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari hisoblanadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya bosh boshqarmalari bilan kelishgan holda, Ma’muriy kengash tomonidan tasdiqlangan shtatlar jadvali va xarajatlar smetasi asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, tegishli viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalaridan ajratiladigan mablag‘lar;

KSZ ishtirokchilariga ko‘rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar, shu jumladan, hududni saqlash va qo‘riqlash, shuningdek, ishlab chiqarish

maydonlari va yer uchastkalarini KSZ ishtirokchilariga ijaraga berishdan tushadigan tushumlar;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Direksiyalar faoliyati KSZ tashkil qilingan paytdan boshlab uch yil mobaynida Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va tegishli viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari hisobidan ta’minlanadi va keyingi yillarda o‘zini o‘zi moliyalashtirishga o‘tkaziladi.

11. Quyidagilar direksiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi:

KSZ hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun ishlab chiqish va investorlarni topish;

KSZda tashkiliy-boshqaruv faoliyatini amalga oshirish;

KSZ ishtirokchilari bilan Ma’muriy kengashning qarorlariga, shuningdek, KSZ hududida xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarga muvofiq investitsiya loyihalarini amalga oshirish haqida bitimlar, ishlab chiqarish maydonlari yoki yer uchastkalarini uzoq muddatli ijaraga olish (balansda saqlovchi nomidan) shartnomalarini tuzish;

Ma’muriy kengashning qaroriga asosan ma’qullangan investitsiya loyihalarini joylashtirish va KSZ ishtirokchilari ro‘yxatini yuritish;

investitsiya loyihalarini amalga oshirish haqidagi bitimlar va uzoq muddatli ijara shartnomalariga asosan KSZ ishtirokchilari tomonidan o‘zlari qabul qilgan majburiyatlarni bajarishi bo‘yicha monitoring olib borish;

KSZ ishtirokchilariga keyinchalik ijaraga berish, shu jumladan, sotish uchun ishlab chiqarish inshootlari va ma’muriy binolarni qurish;

KSZ ishtirochilariga zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlariga ulanishida yordam berish;

KSZ ishtirokchilariga ishlab chiqarish, moliya, marketing, huquqiy, tashqi iqtisodiy va boshqa masalalarni hal etishda yordam berish;

KSZ ishtirokchilari va boshqa xo‘jalik sub’ektlari o‘rtasida kooperatsiyani rivojlantirishga ko‘maklashish;

KSZ ishtirokchilari bitimlar va shartnomalar shartlarini buzgan, shuningdek, o‘zlari qabul qilgan majburiyatlarni bajarmagan hollarda, bitimlarni va ishlab chiqarish maydonlari va (yoki) yer uchastkalarining uzoq muddatli ijaraga olish shartnomalarini belgilangan tartibda bekor qilish masalalarini Ma’muriy kengash tomonidan ko‘rib chiqish

tashabbusini bildirish.

12. KSZning loyiha-rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish, shu jumladan, yer uchastkalarini tanlash va ajratish bo‘yicha materiallarni tayyorlash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari hisobidan loyiha tashkilotlarini jalb qilgan holda ta’minlanadi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda KSZda tadbirkorlik sub’ektlarini joylashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan loyihalarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjeti, shuningdek, xizmatlarni yetkazib beruvchilar mablag‘lari hisobidan KSZning bo‘linish chegarasiga qadar zarur muhandislik-texnik kommunikatsiyalar qurilishi va modernizatsiya qilinishini ta’minlaydi.

3-BOB. KSZ IShTIROKChILARINI TANLAB OLISh TARTIBI

14. KSZ hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalari Ma’muriy kengash tomonidan bo‘sh maydonlar, bino va inshootlar mavjud bo‘lganda, ikki oyda kamida bir marta o‘tkaziladigan tanlov asosida tanlab olinadi.

15. Quyidagilar investitsiya loyihalarini KSZ hududida joylashtirishning asosiy mezonlari hisoblanadi:

Ma’muriy kengash tomonidan belgilanadigan tarmoq xususiyatiga muvofiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish;

yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish;

pul bilan ifodalanadigan qiymatga ega bo‘lgan investitsiyalarni qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan shakllarda kiritish;

muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo‘llagan holda, zamonaviy energiya tejovchi tizimlar va texnologiyalarni joriy etish asosida import o‘rnini bosadigan va (yoki) eksportga yo‘naltirilgan tayyor mahsulotlar turlari, materiallar va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish.

16. Ma’muriy kengash hudud iqtisodiyotining ehtiyojlari, shuningdek, hududlarning mavjud mineral xomashyo, yer, suv, qishloq xo‘jaligi resurslari, ishlab chiqarish va eksport salohiyati,

ekologik sharoitlari va infratuzilmasini inobatga olgan holda, har bir KSZning tarmoq ixtisoslashuvini belgilashga haqli.

17. Direksiya Ma’muriy kengashning qarori asosida KSZ hududida investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun ularni tanlab olish bo‘yicha tanlov o‘tkazishning barcha tashkiliy masalalarini hal qiladi.

18. Tanlovga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishni tashkil etish uchun Direksiya:

Ma’muriy kengashning qaroriga muvofiq tanlovni oldindan e’lon qiladi va o‘tkazishni tashkil etadi;

tanlovda qatnashish uchun talabgorlarning muhrlangan buyurtmanomalarini olingan sanasi va vaqtini ko‘rsatgan holda qabul qiladi;

talabgorlarning investitsiya buyurtmanomalari solingan konvertlar belgilangan tartibda ochilishiga qadar ularning saqlanishi va maxfiyligini ta’minlaydi;

Ma’muriy kengash tomonidan unga yuklangan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

19. Direksiya tanlovni o‘tkazishda investitsiya buyurtmanomalari solingan konvertlar ochiladigan sanadan o‘ttiz kun avval mahalliy bosma nashrlarda, Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining yagona portalida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent Shahar hokimliklarining rasmiy veb-saytlarida tanlov o‘tkazilishi haqida e’lon qilinishini tashkil etadi.

Investitsiya buyurtmanomalarini qabul qilish tanlov o‘tkazilishiga uch ish kuni qolganda to‘xtatiladi.

Direksiya ishchi organga investitsiya loyihalarini tanlab olish bo‘yicha tanlov o‘tkazish bilan bog‘liq barcha zarur materiallarning taqdim etilishini ta’minlaydi.

20. Investitsiya loyihalarini tanlab olish bo‘yicha tanlov o‘tkazilishi haqidagi e’londa quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi lozim:

KSZning tarmoq ixtisoslashuvi;

ishlab chiqarish maydonlari va investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan hamda elektron-onlayn auksionga qo‘yiladigan yer uchastkalarining nomi, soni, tavsifi, ular joylashgan joy, o‘tkazilgan va ulangan muhandislik-texnik kommunikatsiyalar mavjudligi;

buyurtmanomalarni qabul qilishning (kuni va soati ko‘rsatilgan holda) oxirgi muddati;

ishchi organning nomi va pochta manzili, bog‘lanish uchun telefon raqami, telefaksi, elektron pochta manzili va qo‘shimcha ma’lumot olish mumkin bo‘lgan boshqa rekvizitlari;

tanlovni o‘tkazish (investitsiya buyurtmanomalari solingan konvertlarni ochish) sanasi, vaqti va joyi;

talabgor taqdim etishi lozim bo‘lgan zarur hujjatlar ro‘yxati;

tutash yer uchastkalari to‘g‘risida ularning qo‘riqlanadigan zonalari (mavjud bo‘lsa) hajmlari ko‘rsatilgan ma’lumotlar;

investitsiya buyurtmanomalari solingan konvertlarni taqdim etish tartibi va shakli.

21. Tanlovda ishtirok etish uchun talabgor yoki uning vakolatli vakili bevosita kelib yoki pochta (xabardor qilgan holda buyurtma xati) orqali direksiyaga KSZ hududida investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq shaklda to‘ldirilgan va quyidagilar ilova qilgan investitsiya buyurtmanomasini (keyingi o‘rinlarda investitsiya buyurtmanomasi deb ataladi) ikki nusxada, muhrlangan konvertlarda tanlov haqidagi e’londa ko‘rsatilgan muddatlarda taqdim etadi:

taklif etilayotgan investitsiya loyihasining biznes-rejasi;

investorning oxirgi uch yil (mavjud bo‘lganda) davomidagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida ma’lumot;

talabgorning ko‘rsatilgan sohada ish tajribasi haqida ma’lumot.

Bunda taqdim etilgan hujjatlarning barcha varaqlari talabgorning imzosi bilan tasdiqlanishi lozim.

Talabgor taqdim etilayotgan ma’lumotlar va hujjatlarning ishonchliligi uchun javob beradi.

22. Tanlov to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan muddat o‘tgandan so‘ng tanlovda qatnashish bo‘yicha kelgan investitsiya buyurtmanomalari ko‘rib chiqish uchun qabul qilinmaydi. Tanlovga qatnashish rad etilishiga boshqa asoslar bo‘yicha yo‘l qo‘yilmaydi.

Qabul qilinmagan buyurtmanomalar bir ish kuni mobaynida rad javobi belgisi qo‘yilib, talabgorga yoki uning vakiliga tilxat orqali qaytarib (taqdim etiladi) beriladi yoxud ko‘rsatilgan hujjatlar pochta (olgani haqidagi xabardor qilgan holda buyurtma xati) orqali jo‘natiladi.

23. Direksiyaga taqdim etilgan va taklif etiladigan investitsiya

loyihasining biznes-rejasi quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim:

yuridik shaxsni tashkil etish yoki uning ta’sischilari, ularning tegishli sohadagi ish tajribasi va shunday investitsiya loyihasini amalga oshirganligi haqidagi ma’lumotlar;

investitsiya loyihasini ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish sanasini ko‘rsatgan holda amalga oshirish jadvali;

xodimlarni yollash manbalarini ko‘rsatgan holda yaratiladigan yangi ish o‘rinlari soni (bandlik markazi tomonidan yo‘naltirilgan kollej bitiruvchilari va boshqa shaxslar, xorijiy mutaxassislar);

ishlab chiqarish rejalashtirilayogan mahsulotning nomi, xususiyatlari va hajmlari;

ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berish hajmlarini ko‘rsatgan holda, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning taxminiy qiymati va sotish bozorlari;

ishlab chiqarish rejalashtirilayotgan mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarining marketing tadqiqotlari;

mahalliy va import materiallar, butlovchi qismlarni alohida ko‘rsatgan holda, xomashyo bazasining mavjudligi va investitsiya loyihasini amalga oshirish davrida materiallar va xomashyo bilan ta’minlanishini kafolatlovchi imkoniyatlar;

ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar va tayyor mahsulotlar logistikasi va transportda tashish sxemasi to‘g‘risida ma’lumotlar;

investitsiya loyihasini amalga oshirish va ishlab chiqarish barqaror ishlashi uchun muhandislik-kommunikatsiya ta’minoti vositalarining (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va texnik suv, kanalizatsiya, avtoyo‘l) zarur miqdorlari va parametrlari;

gaz, qattiq va suyuq chiqindilarning turlari va miqdorlarini ko‘rsatgan holda, ishlab chiqarish tashlamalarining mavjudligi;

ishlab chiqarishni samarali joylashtirish uchun zarur bo‘lgan yer uchastkasining (ishlab chiqarish maydonining) taxminiy hajmlari;

texnologik uskunalar, ishlab chiqaruvchilar, ta’minotchilar ro‘yxati bilan birgalikda (ekologik talablarni hisobga olgan holda) ishlab chiqarish texnologiyasining tavsifi;

ishlab chiqarishda foydalanishga mo‘ljallanayotgan texnologik uskunalar tavsifi;

investitsiyalarning rejalashtirilayotgan miqdorlari, turi va kiritish muddatlari, moliyalashtirish manbalari va kredit jalb qilingan taqdirda,

majburiyatning rejalashtirilayotgan garov ta’minoti;

investitsiya loyihasini amalga oshirishning moliyaviy-iqtisodiy hisob-kitoblari va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari;

ehtimoli mavjud tavakkalchiliklar tahlili.

24. Talabgorlar tomonidan taqdim etilgan investitsiya buyurtmanomalari solingan konvertlarning birinchi nusxalari Ma’muriy kengash yig‘ilishida ochiladi. Konvertlarning ikkinchi nusxalari ishchi organda saqlanadi va investitsiya loyihalar mazmuni bo‘yicha munozarali holatlar vujudga kelganda ochiladi.

25. KSZ hududida investitsiya loyihasini joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilinganda, Ma’muriy kengash quyidagilarni ko‘rib chiqadi:

investitsiya loyihasining ushbu Nizomning 21 va 23-bandlari talablariga muvofiqligi;

investitsiyalar manbalari (o‘z mablag‘lari, tijorat banklarining kreditlari va boshqalar);

talabgorlarning moliyaviy barqarorligi, texnik va texnologik bazasining mavjudligi;

texnologik uskunalar parametrlarining zamonaviy texnologik talablarga mosligi;

raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi.

26. Tanlovni o‘tkazish davomida Ma’muriy kengash taqdim etilgan investitsiya buyurtmanomalarini ko‘rib chiqadi va quyidagilar to‘g‘risida qaror qabul qiladi:

KSZ hududida investitsiya loyihasini joylashtirish va tadbirkorlik sub’ektiga shartnoma asosida umumiy maydonini ko‘rsatib, ishlab chiqarish maydonlarini ajratgan holda, KSZ ishtirokchisi maqomini berish, yer uchastkalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari bundan mustasno;

KSZ hududida investitsiya loyihasini joylashtirish maqsadga muvofiq emasligi.

Ma’muriy kengash a’zolari tomonidan talabgorning ishonchsiz ma’lumotlari haqida dalolat beruvchi holatlar aniqlansa, bunday investitsiya loyihasini ko‘rib chiqish to‘xtatiladi.

27. Yaratiladigan yangi ish o‘rinlari soni, raqobatbardosh, xaridorgir, eksportga yo‘naltirilgan va (yoki) import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishning texnologik izchil zanjirini tashkil etish hisobga olingan

holda eng jozibador investitsiya buyurtmanomasi eng yaxshi investitsiya loyihasi deb tan olinadi.

28. Agar o‘tkazilgan tanlov natijalari bo‘yicha talabgorlardan investitsiya buyurtmanomalari kelib tushmasa yoki bitta investitsiya buyurtmanomasi kelib tushsa, shuningdek, KSZ hududida investitsiya loyihasini joylashtirish maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, tanlov o‘tmagan deb hisoblanadi.

Ma’muriy kengash tomonidan takroriy tanlov o‘tkazish sanasi belgilanadi va bu haqda yagona buyurtmanomani bergan ishtirokchi xabardor qilinadi.

Takroriy tanlov o‘tkazish sanasi e’lon qilingan sanadan boshlab o‘n besh kun mobaynida belgilanadi.

29. Agar takroriy tanlovda talabgorlardan investitsiya buyurtmanomalari kelib tushmasa, Ma’muriy kengash yagona talabgorning buyurtmanomasini ko‘rib chiqish va KSZning tarmoq ixtisoslashuviga muvofiq ushbu investitsiya loyihasini KSZ hududidagi ishlab chiqarish maydonlarida joylashtirish yoki joylashtirish maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risida qaror qabul qilishga majbur, mazkur bandning ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan holat bundan mustasno.

Takroriy tanlovda talabgorlardan investitsiya buyurtmanomalari kelib tushmasa, Ma’muriy kengash yagona talabgorning buyurtmanomasini ko‘rib chiqish va KSZning tarmoq ixtisoslashuviga muvofiq ushbu investitsiya loyihasi shartlari asosida KSZ hududidagi yer uchastkasini elektron-onlayn auksionga joylashtirish yoki joylashtirish maqsadga muvofiq emasligi o‘g‘risida qaror qabul qiladi.

30. Ma’muriy kengashning investitsiya buyurtmanomasini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarori uning a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, bunda ovozlar teng bo‘lganda, Ma’muriy kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Ma’muriy kengashning qarori bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi hamda:

direksiya va KSZ ishtirokchisi o‘rtasida ishlab chiqarish maydonida investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi bitimni (keyingi o‘rinlarda loyihani amalga oshirish to‘g‘risidagi bitim deb ataladi) tuzish uchun;

loyiha shartlari asosida yer uchastkasini elektron-onlayn auksionga joylashtirish uchun asos bo‘ladi.

31. Ma’muriy kengashning qarori tanlovning barcha ishtirokchilari, ularning takliflari mazmuni va investitsiya loyihasini tanlab olish to‘g‘risidagi qarorni ko‘rsatgan holda, tanlov o‘tkazilgan sanadan boshlab besh ish kuni mobaynida rasmiylashtiriladi.

Ma’muriy kengash majlisining bayonnomasi majlisda qatnashgan uning barcha a’zolari va majlis kotibi tomonidan imzolanib, Ma’muriy kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi va shu kunning o‘zida ishchi organ tomonidan Ma’muriy kengash a’zolariga, direksiyaga, KSZ ishtirokchisiga yoki u vakolat bergan shaxsga, shuningdek, manfaatdor tashkilotlarga yuboriladi.

Ma’muriy kengash bayonnomasining asl nusxasi va unga tegishli materiallar ishchi organda saqlanadi.

32. Direksiya tanlov natijalari to‘g‘risida ma’lumotlarni Ma’muriy kengashning bayonnomasi rasmiylashtirilgan kunning o‘zida tanlov to‘g‘risidagi e’lon avval nashr qilingan Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining yagona portalida va O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining rasmiy veb-saytlarida, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining yaqin sonlarida e’lon qilinadi.

33. Ma’muriy kengash, ishchi organ va direksiya talabgor tomonidan taqdim etilgan maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilgani uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

34. Ma’muriy kengash KSZ hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihasini tanlab olish bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlovning oshkoraligini ta’minlashga majbur.

4-BOB. KSZ ISHTIROKCHILARINI JOYLASHTIRISH TARTIBI

35. Ma’muriy kengashning bayonnomasi qabul qilingandan boshlab uch ish kuni mobaynida direksiya tanlab olingan investitsiya loyihasi shartlari asosida yer uchastkalarining investitsiya bitimi bilan birga elektron-onlayn auksionga joylashtirilishini ta’minlaydi.

Yer uchastkalarining elektron-onlayn auksion savdolari qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi hamda avtomatik ravishda:

auksion g‘olibiga KSZ ishtirokchisi maqomi beriladi.

Direksiya auksion g‘olibi bilan bir ish kunida tanlab olingan investitsiya loyihasi shartlari asosida investitsiya loyihasini amalga oshirish

to‘g‘risidagi bitimni imzolaydi.

36. Direksiya va KSZ ishtirokchisi o‘rtasida investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi bitim tomonlar imzolagan sanadan boshlab kuchga kiradi va KSZ faoliyat yuritishining butun davrida amal qiladi.

37. KSZda investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi bitimning amal qilishi quyidagi holatlarda tugatiladi:

KSZ ishtirokchisi bitimda ko‘rsatilgan majburiyatlarini bajarmasligi;

KZS ishtirokchisi maqomidan mahrum bo‘lganda;

KSZning faoliyati muddatidan oldin tugatilganda;

tomonlarning kelishuvi yoki sud qarori mavjud bo‘lganda;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

38. Direksiya investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi bitim imzolangan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida tadbirkorlik sub’ektini KSZ ishtirokchisi sifatida ro‘yxatga oladi va ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha KSZ ishtirokchisi guvohnomasini beradi.

41. Yer uchastkasining uzoq muddatli ijara shartnomasi tuzilgandan so‘ng direksiya "bir darcha" tamoyili bo‘yicha quyidagilar amalga oshirilishini ta’minlaydi:

tuman (shahar) qurilish va kadastr organlari bilan birgalikda - yer uchastkasining chegaralarini naturada belgilash (Ma’muriy kengashning yer uchastkasini ajratish to‘g‘risida bayonnomasi qabul qilingan kundan boshlab uch kun mobaynida);

ekspluatatsiya tashkilotlari bilan birgalikda - KSZ ishtirokchisi tomonidan taqdim etiladigan ehtiyojlarga muvofiq muhandislik-texnik kommunikatsiyalarga ulanishning texnik shartlarini tayyorlash (Ma’muriy kengashning yer uchastkasini ajratish to‘g‘risida bayonnomasi qabul qilingan kundan boshlab uch kun mobaynida);

bino va inshootlarni qurish loyihasi bo‘yicha davlat ekspertizasi xulosasini belgilangan tartibda ishlab chiqish, kelishish va olishda amaliy yordam berish;

tuman va shahar qurilish organi bilan birgalikda - arxitektura-rejalashtirish topshirig‘ini ishlab chiqish (texnik shartlarni olgandan so‘ng bir hafta muddatda);

ob’ektlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha qurilish-montaj ishlari bajarilishining nazoratini belgilangan tartibda ta’minlash uchun qurilish sohasida nazorat bo‘yicha hududiy inspeksiyalar bilan

shartnoma tuzishda yordam berish.

Yer uchastkasining chegaralarini naturada belgilash va arxitektura-rejalashtirish topshirig‘ini ishlab chiqish bo‘yicha ishlar qiymati qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va miqdorlarda KSZ ishtirokchisi tomonidan to‘lanadi.

42. Vakolatli organ KSZ hududida qurilishi tugallangan ob’ektni foydalanishga qabul qilishda, foydalanishga qabul qilish to‘g‘risidagi dalolatnomani majburiy tartibda Direksiya bilan kelishadi.

43. Agar KSZ hududida ishlab chiqarish maydonlarini uzoq muddatli ijaraga berish tanlov predmeti hisoblansa, investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida bitim tuzilgandan so‘ng uch kun mobaynida direksiya va tanlov g‘olibi o‘rtasida KSZ hududida joylashgan ishlab chiqarish maydonlarining uzoq muddatli ijara shartnomasi tuziladi.

Uzoq muddatli ijara shartnomasida, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ijaraga olingan maydonda amalga oshiriladigan faoliyat turidan kelib chiqib, tegishli koeffitsientlarni qo‘llamagan holda ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkasi belgilanadi.

44. Ishlab chiqarish maydonlari va (yoki) yer uchastkalarining uzoq muddatli ijara shartnomasining muddati tugaganidan so‘ng KSZ ishtirokchilari avval tuzilgan shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajargan bo‘lsa, shartnoma muddatini belgilangan tartibda uzaytirish huquqiga ega.

5-BOB. KSZ ISHTIROKCHILARINING MAJBURIYATLARNI QABUL QILISHI

45. Ma’muriy kengashning direksiya xulosasi asosida tegishli qarorining qabul qilinishi KSZ ishtirokchilari tomonidan investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan muddatlar tugagandan so‘ng o‘zlari qabul qilgan barcha ijtimoiy va investitsiya majburiyatlari bajarilganining tasdig‘i hisoblanadi.

Bunda kiritilgan investitsiyalar miqdori KSZ ishtirokchisining mablag‘lari hisobidan mustaqil baholash tashkilotlarini jalb etish orqali aniqlanadi.

46. KSZ ishtirokchisi tomonidan investitsiya loyihasi KSZ hududiga joylashtirilgan kundan boshlab uch oy davomida uni amalga oshirish

bo‘yicha choralar ko‘rilmasligi, shuningdek, ob’ektdan ishlab chiqarish maydonlari va (yoki) yer uchastkalarining uzoq muddatli ijara shartnomasida ko‘rsatilgan maqsaddan tashqari foydalanish shartnomani bir tomonlama bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

47. Agar KSZ ishtirokchisi tomonidan ob’ektiv sabablarga ko‘ra investitsiya loyihasini ishlab chiqarish maydonlari va (yoki) yer uchastkalarining uzoq muddatli ijara shartnomasida ko‘rsatilgan muddatda amalga oshirish ta’minlanmasa yoxud olti oy mobaynida ishlab chiqarish faoliyati amalga oshirilmasa, Ma’muriy kengash:

loyihani amalga oshirishni tezlashtirish bo‘yicha "yo‘l xaritasi"ni tasdiqlagan holda, unga qo‘shimcha muddat berish;

yoxud u bilan shartnomani bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

6-BOB. KSZ HUDUDLARIDA YeR UChASTKALARINI UZOQ MUDDATLI IJARAGA BERISh TARTIBI

48. KSZ hududida yer uchastkalari loyiha shartlari asosida elektron-onlayn auksion orqali 10 yilgacha uzoq muddatli ijaraga beriladi.

Ijara shartnomasining barcha shartlarini bajargan ijarachi yer uchastkasi uzoq muddatli ijarasining muddatini uzaytirishda ustuvor huquqqa ega bo‘ladi.

49. Yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olgan ijarachi yer uchastkasini saqlash majburiyatlarini bajarganda, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu yer uchastkasida bino, qurilmalar va inshootlarni qurish yoki buzishga haqli.

Ijarachiga ijaraga berilgan yer uchastkasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘zi tomonidan qurilgan binolar va inshootlarga ular foydalanishga topshirilgani to‘g‘risidagi dalolatnoma rasmiylashtirilgandan so‘ng bir oy muddatda egalik huquqi beriladi.

50. Ijaraga olingan yer uchastkasini yoki uning qismini subijaraga berish taqiqlanadi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

51. Uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalari oldi-sotdi, garov, hadya, almashtirish ob’ekti bo‘la olmaydi.

Ijarachi o‘zining yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqlarini faqat qonunchilik hujjatlarida yoki ijara shartnomasida nazarda

tutilgan holatlardagina ijaraga beruvchining roziligisiz garovga berishi mumkin.

KSZ ishtirokchisi tomonidan ijaraga olingan yer uchastkasida barpo etilgan bino va (yoki) inshootlar garov bo‘yicha qarzlarni qoplash bilan bog‘liq holda sotilganda, hadya qilinganda, almashtirilganda yoki yo‘qotilganda, ushbu binolar va (yoki) inshootlar Ma’muriy kengashning qaroriga asosan KSZ ishtirokchisi maqomini olgan yangi mulkdorga o‘tadi.

Bunda KSZ ishtirokchisi maqomini yangi olgan shaxs bilan belgilangan tartibda KSZ hududida investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida bitim va yer uchastkasining uzoq muddatli ijara shartnomasi tuziladi.

54. Direksiya yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun yer uchastkasining uzoq muddatli ijara shartnomasi tuzilgandan so‘ng uch ish kuni mobaynida elektron-onlayn auksion natijalari to‘g‘risidagi bayonnoma va ijara shartnomasining nusxasini davlat yer tuzish korxonasining filialiga yuboradi.

55. Davlat yer tuzish korxonasining filiali tuman (shahar) qurilish bo‘limi bilan birgalikda mazkur Nizomning 54-bandidagi hujjatlarni olgandan so‘ng ikki ish kuni mobaynida yer uchastkasi chegaralarini naturada belgilaydi, yer uchastkasining chegaralarini natura shaklida ijarachiga ko‘rsatadi hamda yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish huquqini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazadi.

56. Yer tuzish davlat korxonasi filialining va tuman (shahar) qurilish bo‘limining yer uchastkasining topografik xaritasini tayyorlash, yer uchastkasining rejasini tuzish, yer uchastkasi chegaralarini naturada belgilash va ko‘rsatish bo‘yicha bajargan ishlarining qiymati qonunchilik hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Ishlar qiymati KSZ ishtirokchisi tomonidan shartnoma asosida to‘lanadi.

57. Yer uchastkasining ijara to‘lovi qonun hujjatlarida belgilangan yer solig‘ini to‘lash muddatlarida va stavkalari bo‘yicha to‘lanadi.

Yer uchastkasining ijara shartnomasida belgilangan ijara to‘lovi miqdori mazkur yer uchastkasiga qonun hujjatlarida belgilangan yer solig‘i miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak.

58. Ijarachi loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilishini ta’minlaydi, qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq shaharsozlik faoliyati bilan bog‘liq qurilish va boshqa tadbirlarni amalga oshiradi.

Qurilish loyihasisiz barpo etilgan bino yoki inshootlarga egalik huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish taqiqlanadi.

59. Uzoq muddatli ijara shartnomasiga rioya qilinmagan taqdirda, ijaraga beruvchi uni bekor qilish uchun tashabbus ko‘rsatishga haqli.

60. KSZ ishtirokchisidan yer uchastkasi uzoq muddatli ijara shartnomasi O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksida belgilangan tartibda bekor bo‘lganda olib qo‘yiladi.

Alohida loyihalarni ishlab chiqish va namunaviy loyihalarni bog‘lash belgilangan tartibda tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan loyiha tashkilotlari tomonidan yer ijarasi shartnomasi, qurilish tashkiloti tomonidan beriladigan loyihalash topshiriqlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmalari tomonidan beriladigan arxitektura-rejalashtirish topshiriqlari asosida amalga oshiriladi.

7-BOB. KSZ HUDUDIDA JOYLASHGAN BINOLAR VA INSHOOTLARNI XUSUSIYLASHTIRISH TARTIBI

61. KSZ ishtirokchilariga quyidagi huquqlar beriladi:

KSZ xududida o‘z mablag‘lari hisobidan qurilgan binolar va inshootlarga (ularning qismiga) egalik huquqini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

ularga berilgan bino va inshootlarni (yoki ularning qismini) investitsiya va boshqa ijtimoiy majburiyatlarni to‘liq bajarish sharti bilan, ammo KSZ ishtirokchisi maqomini olgan sanadan boshlab besh yildan kam bo‘lmagan muddatda xususiylashtirish;

o‘z mablag‘lari hisobidan rekonstruksiya qilingan yoki kapital ta’mirlangan bino va inshootlarni (yoki ularning qismini) KSZ ishtirokchisi maqomini olgan sanadan boshlab uch yildan so‘ng xususiylashtirish.

62. KSZ ishtirokchisi tomonidan bino va inshootlarni (yoki ularning qismini) rekonstruksiya qilish yoki kapital ta’mirlashga yo‘naltirilgan mablag‘lar vakolatli organning xulosasi asosida ularni xususiylashtirishda inobatga olinadi.

63. KSZ hududidagi bino va inshootlar (yoki ularning qismi):

KSZ ishtirokchisining o‘z mablag‘lari hisobidan rekonstruksiya qilingan yoki kapital ta’mirlangan bino va inshootlar (yoki ularning qismi) KSZ ishtirokchisi maqomini olgan sanadan boshlab uch yildan so‘ng -

rekonstruksiya qilish yoki kapital ta’mirlash xarajatlarini chegirib tashlagan holda, belgilangan tartibda aniqlanadigan baholash qiymati bo‘yicha;

investitsiya va ijtimoiy majburiyatlarni to‘liq bajarish sharti bilan (ishtirokchining o‘z mablag‘lari hisobidan rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlashni amalga oshirmasdan), ammo KSZ ishtirokchisi maqomini olgan sanadan boshlab besh yildan so‘ng - to‘lovlarni besh yil mobaynida teng ulushlarda amalga oshirish huquqini bergan holda, belgilangan tartibda aniqlanadigan baholash qiymati bo‘yicha xususiylashtiriladi.

64. KSZ hududidagi bino va inshootlar ushbu Nizom talablarini inobatga olgan holda, davlat tasarrufidagi ob’ektlarni xususiylashtirish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda xususiylashtiriladi.

KSZ hududidagi ko‘chmas mulklarga egalik huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish belgilangan tartibda hududiy yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonalari tomonidan amalga oshiriladi.

KSZ hududida joylashgan bino va inshootlarni xususiylashtirish masalalari ushbu Nizom talablarini bajarish sharti bilan Ma’muriy kengashning tegishli qarori asosida belgilangan tartibda ilgari suriladi.

8-BOB. KSZ ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

65. KSZ ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:

Uzoq muddatli ijara shartnomalari doirasida ajratilgan yer uchastkalari va (yoki) ishlab chiqarish maydonlariga mustaqil egalik qilish va ulardan foydalanish;

tashqi muhandislik-texnik kommunikatsiyalarning barqaror ishlashini ta’minlashni talab etish;

ishlab chiqarish faoliyatining boshlanishi kechikishiga ob’ektiv sabablar mavjud bo‘lganda, Ma’muriy kengashning qarori asosida investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish muddatini uzaytirish.

66. KSZ ishtirokchilari:

qonun hujjatlari va Ma’muriy kengashning talablariga, shu jumladan, KSZ ixtisoslashuvi bo‘yicha tegishli talablarga rioya etishga;

ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish boshlanishi bilan investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida bitimda nazarda tutilgan

va ijtimoiy sug‘urta badallari to‘layotgan xodimlarning haqiqiy soni to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan miqdorda yangi ish o‘rinlari yaratish va xodimlarni qo‘shimcha yollashni ta’minlashga;

investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida tuzilgan bitim va uzoq muddatli ijara shartnomasi shartlarini bajarishga;

investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish jadvalining muddatlari va parametrlariga rioya etishga;

ishlab chiqarish maydonlarining uzoq muddatli ijara shartnomasi tuzilganidan boshlab olti oydan kechikmasdan, KSZ hududida ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishni boshlashga majbur.

9-BOB. KSZ ISHTIROKCHISI MAQOMINI TO‘XTATISH YOKI UNDAN MAHRUM QILISH

67. KSZ ishtirokchisi maqomini to‘xtatish yoki undan mahrum qilish belgilangan tartibda direksiya yoki ishchi organning asoslantirilgan takliflariga ko‘ra Ma’muriy kengash tomonidan amalga oshiriladi.

68. KSZ ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish haqidagi qaror KSZ ishtirokchisining uni ushbu maqomdan mahrum qilish haqida bergan arizasiga asosan yoxud qonun hujjatlariga muvofiq u tugatilgan hollarda Ma’muriy kengash tomonidan qabul qilinishi mumkin.

KSZ ishtirokchisi maqomini olish, KSZ hududida investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan bahs va kelishmovchiliklar Ma’muriy kengashning qarori asosida direksiyaning arizasi bo‘yicha sud tartibida hal etiladi.

Direksiya Ma’muriy kengashning qarori qabul qilingandan so‘ng yoki KSZ ishtirokchisini ushbu maqomdan mahrum qilish to‘g‘risida sud qarori kuchga kirgan kunning o‘zida KSZ ishtirokchilari reestriga KSZ ishtirokchisi maqomidan mahrum qilingani haqidagi yozuvni kiritadi.

10-BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

69. KSZ faoliyatini tugatish haqidagi qaror O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan qabul qilinadi.

70. Ma’muriy kengash raisi, uning a’zolari va ishchi organi, direksiya

direktori va xodimlari, KSZ ishtirokchilari, shuningdek, manfaatdor tashkilotlar rahbarlari ushbu Nizom talablariga rioya etilishiga shaxsan javob beradi.

71. Ushbu Nizomning talablarini bajarishda vujudga keladigan nizo va munozaralar sud tartibida ko‘rib chiqiladi.

Nizomga

1-ILOVA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi Kichik sanoat zonasini boshqarish direksiyasining NAMUNAVIY TUZILMASI

Direktor

Tashkiliy masalalar, monitoring va tahlil sektori mudiri 1	Buxgalter 1
Investorlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassis 1	Shartnomalarni ro‘yxatga olish sektori (yuriskonsult) 1
Infratuzilma bilan ishlash bo‘yicha yetakchi mutaxassis 1	Har bir kichik sanoat zonasiga biriktirilgan bir nafardan mas’ul xodimlar *(zaruratga ko‘ra)*

Izoh. *Har bir kichik sanoat zonasiga biriktiriladigan mas’ul xodimlarning soni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining Ma’muriy kengashlari tomonidan hududdagi kichik sanoat zonalari sonidan kelib chiqib belgilanadi.*

Texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni tasdiqlangan me’yorlar bo‘yicha belgilanadi.

Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Kichik zonalarni boshqarish bo‘yicha yagona direksiyaning tashkiliy tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahrida boshqarishning o‘ziga xos tartibini kiritish bo‘yicha xuquqiy tajriba to‘g‘risida" 2018 yil 17 avgustdagi PF-5515-son Farmoniga muvofiq erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari Ma’muriy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Nizomga
2-ILOVA

_____ viloyatining
Erkin iqtisodiy zonalar
va kichik sanoat zonalarining
ma’muriy kengashiga

"_____" kichik sanoat zonasida joylashgan investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun INVESTITSIYa BUYuRTMANOMASI

1. Talabgor haqida ma’lumot:

Talabgor tashkilotning nomi, joylashgan mamlakati	
Talabgor haqida ma’lumotlar, shu jumladan davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanasi va joyi, ta’sischisi(lari) va boshqalar.	
Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli, ustav fondida ta’sischilar ulushlarining taqsimlanishi va ulushlar shakli	
Talabgor tashkilot joylashgan joy (manzili)	

2. Investitsiya loyihasi haqida ma’lumotlar:

Investitsiya loyihasining nomi	
Investitsiya loyihasining tavsifi i maqsadi, shu jumladan rejalashtirilayotgan yillik ishlab chiqarish quvvati	

Ishlab chiqariladigan mahsulotning nomi, maqsadi va asosiy xususiyatlari	
Mahsulot ishlab chiqarishning o‘rtacha yillik hajmi, shu jumladan eksport qilish va ichki bozor uchun mo‘ljallangan hajmlar (fizik va qiymat ko‘rinishida)	
Xomashyo, materiallar va butlovchi qismlarning asosiy turlari (mahalliy va import), ularning tayyor mahsulotdagi ulushi (% da)	
Xomashyo, materiallar va butlovchi qismlarga bo‘lgan yillik ehtiyoj (so‘mda yoki AQSh dollari ekv.), shu jumladan mahalliy va import.	
Mahsulot standartlari - O`zDst, ISO 9001 va ISO 14001 va boshqalar.	
Ishlab chiqarish ishga tushgan sana	
Yaratilgan yangi ish o‘rinlarining soni, shu jumladan mahalliy ishchilar	

3. Zarur maydon va infratuzilma haqidagi ma’lumot:

Talab etiladigan maydon (ga)	
Talab etiladigan ishlab chiqarish maydoni (kv. metr)	
Elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoj (bir yilda kVt/soat), belgilanayotgan quvvat (kVt yoki MVt)	
Tabiiy gazga bo‘lgan ehtiyoj (bir yilda kub metr), bosim (atm.)	
Ichimlik va texnik suviga (yiliga kub metr) hamda kanalizatsiyaga bo‘lgan ehtiyoj	
Mavjud tashlamalar, shu jumladan gazlar (nomi) kg yiliga yoki soatiga, qattiq chiqindilar (nomi) t/oyiga, suyuq chiqindilar (nomi) t/oyiga va boshqalar.	

4. Loyihaning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari:

Investitsiya loyihasining qiymati (so‘mda yoki AQSh dollari ekv.)	
Moliyalashtirish manbalari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, ta’sischilarning mablag‘lari, tijorat banklarining kreditlari)	
Mashina va uskunalarning qiymati (so‘mda yoki AQSh dollari ekv.), shu jumladan mahalliy va import	
QMI qiymati (so‘mda yoki AQSh dollari ekv.)	
Aylanma kapitalning summasi (so‘mda yoki AQSh dollari ekv.)	
Investitsiyalar kiritish jadvali va shakli	
Loyihaning qoplash muddati (biznes-rejaga muvofiq)	

Rahbar _____ _____

(imzo) (F.I.O.)

Nizomga
4-ILOVA

"_____"
kichik sanoat zonasi direksiyasi"
davlat muassasasi
GUVOHNOMA

Tartib raqami: _____
Berilgan:_____
(tashkilot nomi)
KIChIK SANOAT ZONASI IShTIROKChISI SIFATIDA
Berilgan sanasi: _____
Asos:_____
("_____" viloyati Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari
ma'muriy kengashi qarorining raqami va sanasi)
Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR kodi): _____
KZS Direksiyasi direktor: _____ _____ (imzo)
(F.I.O.)

Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz),
2020 yil 10 mart

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI
2021 yil 30 apreldagi PQ-5101-son

MAXSUS IQTISODIY VA KICHIK SANOAT ZONALARI MUHANDISLIK-KOMMUNIKATSIYA INFRATUZILMASINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida tadbirkorlarning to'liq va uzluksiz faoliyat olib borishini ta'minlash, ular uchun zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish, xorijiy va mahalliy investorlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

2021-2022 yillarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beradigan loyihalar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash tadbirlari parametrlari 1-ilovaga muvofiq;

2021 yilda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning manzilli ro‘yxatlari (keyingi o‘rinlarda — manzilli ro‘yxatlar) 2 va 2a-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarining tashqi infratuzilmasini qurish-ta’mirlash ishlari bo‘yicha:

ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari bo‘yicha — «Suv ta’minoti va kanalizatsiya ob’ektlarini qurish bo‘yicha injiniring kompaniyasi» unitar korxonasi;

avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari bo‘yicha — Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi huzuridagi «Mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati» davlat unitar korxonasi;

elektr energiyasi bilan ta’minlash ishlari bo‘yicha — «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ va «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» AJning hududiy filiallari;

tabiiy gaz yetkazib berish ishlari bo‘yicha — «Hududgazta’minot» AJ va «O‘ztransgaz» AJning hududiy filiallari;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beradigan loyihalarning muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish (ta’mirlash) ishlari bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyalari buyurtmachi etib belgilansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

manzilli ro‘yxatlarga ajratilgan mablag‘lar doirasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qo‘shimcha loyihalar (ob’ektlar)ni kiritish, shuningdek, tegishli loyihalarni chiqarib tashlash bo‘yicha o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritilishi mumkin;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyalarining 2020 yilda tugallanmagan va yildan yilga o‘tuvchi kichik sanoat zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash ishlari va kreditor qarzdorliklarni qoplash bo‘yicha buyurtmachi funksiyasi saqlanib qolinadi;

manzilli ro‘yxatlarda nazarda tutilmagan loyihalar (ob’ektlar) hamda manzilli ro‘yxatlarga kiritilib, loyiha-smeta hujjatlariga asosan mablag‘lar yetishmagan loyihalar bo‘yicha ularni qurish-ta’mirlash bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qarorlariga asosan tegishlilik bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanadi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 dekabrdagi «Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida«gi PQ-4929-son qaroriga muvofiq byudjet ssudasi mablag‘lari respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan 5 foiz stavkada uch yil muddatda qaytarish sharti bilan ajratilishi ko‘zda tutilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Moliya vazirligi 2021 yilda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarining tashqi elektr va tabiiy gaz tarmoqlarini tortish ishlari uchun Davlat byudjetini qo‘llab-quvvatlash maqsadida jalb qilingan xalqaro moliya institutlarining qarz mablag‘lari hisobidan «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ, «Hududgazta’minot» AJ va «O‘ztransgaz» AJlarning talabnomalariga muvofiq 600 mlrd so‘mgacha byudjet ssudasi ajratilishini ta’minlasin.

Bunda, ajratilgan byudjet ssudasi hamda xalqaro moliya institutlariga so‘ndiriladigan qarz mablag‘larining foiz to‘lovlari o‘rtasidagi salbiy farq Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

5. Moliya vazirligi markaziy apparatida uning boshqaruv xodimlari cheklangan soni doirasida 3 ta shtat birligidan iborat Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda yirik xorijiy va mahalliy investitsiya loyihalarining infratuzilmasini moliyalashtirish bo‘limi tashkil etilsin.

6. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda 2021 yil 1 sentyabrga qadar 2022 yilda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash uchun 150,0 mln AQSh dollari ekvivalentidagi mablag‘larning xalqaro moliya institutlari hisobidan jalb etilishini ta’minlasin.

7. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi ikki hafta muddatda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda manzilli ro‘yxatlarda nazarda tutilayotgan yangidan tashkil etilishi rejalashtirilayotgan kichik sanoat zonalarini qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirish choralarini ko‘rsin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar maxsus iqtisodiy zonalari ma’muriy kengashlariga quyidagi tadbirlarni muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilsin:

ta’minotchi va buyurtmachi korxonalar tomonidan maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beradigan loyihalar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalariga tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish uchun markazlashgan tarmoqlarga ulanishda eng yaqin (markazlashgan tarmoqlar) hududni tanlash;

tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish bilan bog‘liq tadbirlarga zarur mablag‘lar bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining ishlab chiqilishi va ekspertizadan o‘tkazilishini nazorat qilish;

har oy yakuni bilan talab etiladigan mablag‘larning manbalari va miqdorini hisob-kitob qilgan holda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beradigan loyihalar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlashga Davlat byudjetidan mablag‘lar ajratilishining maqsadga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha maxsus komissiyaga (T. Ishmetov) (keyingi o‘rinlarda — Maxsus komissiya) aniq asoslangan ma’lumotlarni taqdim etib borish;

kelgusida maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beradigan loyihalar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalari bilan bir qatorda aholi punktlarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash darajasini ham inobatga olish.

9. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining bosh rejalari loyihalarini ishlab chiqish, loyiha hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish xarajatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanishini ta’minlasin.

10. Qurilish vazirligi ob’ektlarda qurilish, rekonstruksiya ishlarini amalga oshirishda loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o‘tkazish va qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishi ustidan davlat nazoratini o‘rnatsin.

11. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish korxonalarining murojaatiga asosan belgilangan tartibda zarur aloqa xizmatlari bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

12. Maxsus komissiya (T. Ishmetov) har chorakda mavjud va yangidan tashkil etiladigan maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlanishi bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijadorligi to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga hisobot kiritsin.

13. Vazirlar Mahkamasi har chorakda ushbu qarorda belgilangan chora-tadbirlar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlislarida tanqidiy muhokama qilsin hamda o‘z vaqtida va to‘liq bajarilmagan tadbirlar yuzasidan mas’ul vazirlik va idoralar rahbarlariga nisbatan tegishli choralarni ko‘rsin.

14. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari J.A. Qo‘chqorov va S.U. Umurzakov zimmalariga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev

Toshkent sh.,
2021 yil 30 aprel,
PQ-5101-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2021 yil 30 apreldagi PQ-5101-son qaroriga
1-ILOVA

2021-2022 yillarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beradigan loyihalar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash tadbirlari PARAMETRLARI

mln so‘m

T/r	Mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlari	2021 yil uchun limit*	2022 yil uchun mo‘ljallar
	Jami	**1 600 000,0**	**1 800 000,0**
	Shundan:		
	O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi mablag‘lari	**1 000 000,0**	**1 100 000,0**
	shu jumladan:		
1.	Ichimlik suvi, oqova suv tarmog‘ini qurish va rekonstruksiya qilish	217 247,5	412 559,9
2.	Avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish	121 649,4	229 187,9
3.	Irrigatsiya tarmog‘ini qurish va rekonstruksiya qilish	39 040,0	
4.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini infratuzilma bilan ta’minlash xarajatlarining bir qismini qoplash uchun	232 663,1	308 252,2
